

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM YAZIRLIGI,
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova,
S.S.Shaimova

QULOQ, TOMOQ VA BURUN KASALLIKLARI

*O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash vazirligining oliv va
o'rta tibbiy ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy idorasiga kengashi
tomonidan tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

TOSHKENT
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI
TIBBIYOT NASHRIYOTI
2004

56,8

Yu91

9722

Taqrizchilar: **R.K.Mirazizov** — Respublika 1-klinik kasalxonasining

“Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari” bo‘limi boshlig‘i, t. f. n.

I.M.Tursunova — Sog‘liqni saqlash Vazirligining o‘quv-uslubiy
idorasi rahbari muovini, t. f. n.

Yusupova M. S. va boshq.

Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari: Tibbiyot kollejlari uchun
darslik /Mualliflar: M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova,
S.S.Shaimova.—T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr.,
2004.—192 b.

Sarlavhada: O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta
maxsus, kasb-hunar ta’lim markazi.

Mazkur o‘quv adabiyoti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta
maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tibbiyot kollejlarining talabalarini
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Darslik yangi dastur asosida yozilgan
bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilarga, shuningdek, mustaqil faoliyat
yuritayotgan hamshiralarni uchun kundalik ishlariда qo‘l keladi degan
umiddamiz.

BBK 56.8ya722

10 30319
291

ISBN 5-638-01962-6

Y 410814000009 — 2004
M354(04)2004

© Abu Ali ibn Sino nomidagi
tibbiyot nashriyoti, 2004 y.

2004	Alisher Navoi nomidagi O‘zbekiston M.
A5999	

SO'Z BOSHI

Har bir sohada bo'lgani kabi, tibbiyot sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtida otorinolaringologiya fani rivojlanib bormoqda. Otorinolaringologiya amaliyotida operatsion mikroskopdan foydalanish, qulqoq-tomoq mikroxirurgiyasida qo'lga kiritilgan yutuqlar yordamida, a'zolar funksiyasini tiklash bilan shug'ullanuvchi xirurgiya imkoniyatlari yanada oshib bormoqda. Diagnostika va davolashning yangi usullarini amaliyotga tadbiq etish, ultratovush va lazer nurlaridan foydalanish og'ir dardga chalingan bemorlarni davolash imkoniyatini berdi. Atrof-muhit va ishlab chiqarish omillari ta'sirida yuzaga keladigan karlik, qulqoq, tomoq va burun a'zolarining allergik holatlarini, plastik xirurgiya masalalarini atroficha o'rganish hozirgi zamon otorinolaringologiyasining diqqat markazida turibdi.

Mamlaktimizda ta'lif tizimini isloq qilish maqsadida joriy etilgan «Ta'lif to'g'risida»gi qonunlar» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», jahon miqyosida kasb-hunar madaniyatiga, ijtimoiy va ijodiy faoliyatida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishga qaratilgan.

Taklif qilinayotgan darslikning maqsadi yuqori malakali, zamonaliv o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va shakllantirish, ularni otorinolaringologiyadan tayanch bilimlar va zarur bo'lgan ko'nikmalarni bajarish algoritmlari bilan ta'minlash.

Darslikda klinik anatomiya va fiziologiyadan ma'lumotlar berilgan. Unda LOR a'zolari faoliyati buzilganda va LOR kasalliklarida bemorlarni kuzatish va parvarishlashga oid amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga e'tibor qaratilgan.

Mazkur faoliyatni amalga oshirishda feldsher, akusherka va tibbiyot hamshirasining tutgan o'rmini yoritish bo'yicha barcha zarur ma'lumotlar darslikdan imkon qadar joy olgan.

Har bir bobning yakunida o'quvchilar olgan bilimlarini o'zlashtirishlari va mustaqil ishlab chiqishlari uchun test vazifalari va vaziyatli masalalar keltirilgan.

Darslikni tuzishda mualliflar 1982 yilda «Meditrina» nashriyotida chop etilgan V.T.Palchun, N.L.Voznesenskiylarning «Quloq, tomoq va burun kasalliklari» darsligining ikkinchi o'zbekcha nashridan foydalanganlar. Shuningdek, Y.M.Ovchinnikov va S.V.Morozovalarning 2002 yil Moskva «Masterstvo» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Otorinolaringologiya»dan tibbiyot kollejlari uchun darsligidan olingan yangi ma'lumotlar tarjima qilingan va ular taklif qilinayotgan darslikdan mavzulariga oid boblardan joy olgan.

KIRISH

I bob.

OTORINOLARINGOLOGIYA TARIXI

XIX asrning ikkinchi yarmida meditsina fanidan otorinolaringologiya yoki qulqoq (*otos*), burun (*rhinos*), halqum va hiqildoq (*larungos*) kasalliklarini o'rganadigan fan alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Qulqoq, burun va tomoq kasalliklarining umumiyligi fan sifatida birlash-tirishga shu a'zolarning anatomik-topografik birligi, ularning fiziologik va funksional jihatdan o'zaro bog'liqligi asos bo'ldi.

Tabobat muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishda og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Har qaysi zamon tabobatidan bizgacha turli kasalliklarni davolashga doir qator aniq va ravshan usullar qolgan. Shuningdek, qadim yunon (Rotzes 11 maqbarasida topilgan) yozuvlarida turli xil xastaliklarni, shu jumladan, qulqoq kasalliklarini davolashga doir qator tavsiyalar yozib qoldirilgan.

Otorinolaringologiya — bu qulqoq, burun, tomoq a'zolari va ularning kasalliklari haqidagi ta'limotdir.

Suqrat asarlarida tomoq, burun va qulqoq kasalliklarini davolash haqida birmuncha aniq ma'lumotlar berilgan. Olim suyakli chig'anoq ichida pardali chig'anoq borligini aniqlagan. U hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan jarrohlik operatsiyalarini — ko'rsatkich barmoq bilan tanglay bezlarini va ipak ip bilan burun bo'shilg'idan poliplarni olib tashlash kabi jarrohlik usullarini qo'llagan. U qulqoq kasalliklarida eshituv yo'liga o'simlik moyini tomizish, qulqoqqa issiq suv shimdirilgan

paxta yoki matolar qo'yish yo'li bilan isituvchi kompresslar qilishni tavsiya etgan.

Taniqli olim **Sels** qulqasalliklari ko'z kasalliklariga qaraganda ancha xatarli kasallik ekanini, agar vaqtida oldi olinmasa, xunuk oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin ekanini alohida ta'kidlagan.

Arab shifokorlaridan **Abul Kozim** qulq qattiq og'riganda uning suprasiga yaqin muayyan nuqtalarni qizib turgan temir bilan kuydirish muolajasini bajarishni tavsiya qilgan.

X asr oxiri **XI** asr boshlarida yashagan mutafakkir olim **Abu Ali ibn Sino** (980—1037) qulq, tomoq va burun xastaliklarini davolash yo'llarini yaxshi bilgan. U konservativ hamda xirurgik davolash usullarini qo'llagan. Uning ana shu a'zolar anatomiyasiga va fiziologiyasiga oid ta'riflari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'sha davrga tegishli ma'lumotlar, asosan, qulq, tomoq va burunni ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan bo'limlariga aloqador kasalliklarga daxldor bo'lgan. **1314** yilda birinchi marta **Mandinode Lutsi** murdan yorishni amalga oshirgan. Bu odam organizmi tuzilishini har tomonlama o'rganish imkonini berdi. Chunonchi, **Fallopi** (1513—1582) qulq labirintini bayon qilgan. Bu kanal olim nomi bilan ataladigan bo'ldi. **Yevstaxiy** (u 1570 yilda vafot etgan) nog'ora bo'shlig'ining ikkala mushagini, nog'ora bo'shlig'ini burun-halqum bilan birlashtiradigan nayini topgan (Evstaxiy nayı). **Vezaliy** (1513—1564) birinchi bo'lib eshituv suyakchalarini o'rganib, shu suyakchalarining ikkitasi — bolg'acha va sandonchani ta'riflagan edi. 1683 yilda **Dyu Varne** birinchi marta chig'anoq tuzilishini kashf etib uni cholg'u asbobiga o'xshatdi. U asosiy membrana turli uzunlikda bo'lgani uchun chig'anoqning tovush tonlarini farqlay olish qobiliyati bor, deb faraz qildi. **1704** yilda **Valsalva** uzangining dahliz darchasining chetlari bilan birikib ketishi kar bo'lib qolishga sabab bo'lishi mumkinligini aniqlab bergan, bu

hozirda **otoskleroz** deb ataladi. Olim burunni yopib turib, **Yevstaxiy nayi** yordamida qulogqa puflab, qulogdagi yiringni chiqarib yuborish usulini taklif etgan. Shuningdek, qulog kasalliklarida xirurgik davo yo'llarini ham qo'llashni tavsiya qilgan.

Chunonchi, **1649** yilda **Riolan** eshituv nayi berkilib qolishi natijasida qulog eshitmay qolsa va guvillasa so'rg'ichsimon o'simtani trepatsiya qilish kerak, deb ta'kidlagan. **Kataniya** (1736—1822) yaratgan kashfiyot otiatriyaning rivojlanishida muhim bir bosqich bo'ldi, olim birinchi bo'lib qulog labirintida havo emas, balki maxsus suyuqlik borligini isbotlab berdi. U ichki qulogning suv yo'lini ham batafsil ta'riflab bergen. **1890** yilda **Kuper** birinchi marta parasentez — o'rtal qulog yallig'langanda nog'ora pardani operatsiya qilishni taklif qilgan.

Rossiyada nasht qilingan «Jarrohlikni qo'llash bo'yicha qo'llanma»sida kattagina bob qulog, tomoq va burun kasalliklariga bag'ishlangan bo'lib, bu ana shu kasalliklarga oid birinchi fundamental darslikdir. Bu darslik muallifi tibbiy-jarrohlik akademiyasining professori **I.F.Bushdir** (1771—1843). U tashqi, o'rtal qulog kasalliklarini bayon qilish bilan birga burun bo'shlig'i kasalliklari haqida ham ma'lumotlar keltirgan. Shuningdek, ko'pgina qulog, tomoq va burun kasalliklarini konservativ va xirurgik davolashga oid tavsiyalar bergen. Ko'rinish turibdiki, tibbiyot ilmida muhim o'rinn tutgan otorinolaringologiya fani uzoq va mashaqqatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Otorinolaringologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqqunga qadar yuqori nafas yo'llari kasalliklarini terapevtlar davolardi. Jarrohlar esa qulog kasalliklariga yordam ko'rsatar edilar. Chunki aynan qulog kasalliklarida aksari hollarda yordam talab qiladigan asoratlar ko'proq uchraydi.

Terapiya hamda jarrohlikni otorinolaringologiyaning rivojlanib shakllanishida hissasi katta bo'ldi. Klinik tajriba, fiziologik yutuqlarning to'planib borishi, tekshiruv va

davolashning yangi usullarining o'zlashtirilishi quloq, tomoq va burun patologiyasida nazariy va amaliy masalalarni kerakli darajada ixtisoslab ajratish zaturatini tug'diradi. Bunda tomoq, burun va quloq bo'shlig'ini ko'zdan kechirish usullarining kashf etilishi katta yordam berdi. **Gofmanning** dumaloq ko'zgusi ana shu kashfiyotlardan biri bo'tib, u yorug'lik tutamini eshituv yo'lli ichkarisiga, burun bo'shlig'iga yo'naltirish imkonini beradi. Taniqli xonanda, murabbiy **Manuel Garsio** (1855)ning taklifi laringoskopning paydo bo'lishiga katta turki bo'ldi, u o'z tomog'ini ko'zdan kechirish uchun turli tovushlar shakllangan bir paytda tish vrachlari ishlata digan kichkina ko'zgudan foydalangan. **Garsio** ko'zguni og'iz bo'shlig'iga kiritar ekan, qo'lida ushlab turgan oddiy ko'zgu yordamida o'z tovush yorig'ini va tovush boylamlarini ko'rib turgan. Bu usuldan keyinchalik tomoq kasalliklarini davolovchi shifokorlar ham foydalana boshladilar. Chunki bu ko'zgu hiqildoqni ko'zdan kechirish va davolash imkonini be-rardi. Keyinchalik burun bo'shlig'ini ko'zdan kechirish imkoniyati paydo bo'lishi bilan (**Chermak**, 1859) yana bir tarmoq — rinologiya, keyinchalik esa, otiatriya paydo bo'ldi.

Ushbu uchala ixtisoslik G'arbiy Ovrupoda ancha vaqt-gacha, 1914—1918 yillarga qadar alohida-alohida o'r ganilgan. Rossiyada bu ixtisosliklar ancha ilgari, 1893 yilda birlashdi. Bu paytda Sankt-Peterburgda akademik **N.P.Simanovskiy** mamlakatda birinchi marta otorinolaringologiya kafedrasi va klinikasini tashkil qildi. Bu birlashuv topografik anatomiya, fiziologiya, genetikaning o'zaro bog'lanishi va o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan. Moskvada birinchi klinika 1896 yili Moskva dorilfununi huzurida ochilib, u Ovrupo klinikalari darajasida zo'r jihozlangan edi. Uning asoschisi ko'plab ilmiy asarlar muallifi, quloq kasalliklari shifokori **S.F.Shteyndir**.

Otorinolaringologiya o'zining rivojlanishida bir qancha bosqichni bosib o'tdi. Klinika, tekshiruv usullari, ana-

tomiya, topografiya, quloq, tomoq va burun a'zolari funksiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar to'planib bordi. Bu bosqich o'tgan asrning deyarli 60—70-yillariga qadar davom etdi. Keyinchalik barcha ixtisoslik bo'limlarining zo'r berib rivojlanishi va amaliy izlanishlar, konservativ va xirurgik davolash usullari yordamida quloq va burun oldi bo'shliqlarining yiringli zararlanishlarida yuz bergan og'ir asoratlarini davolashga kirishildi. Mutaxassislarning shakllanishiga yordam beradigan qo'llanmalar paydo bo'la boshladi. **A.Politser** (Avstriya), **Shvars** (Germaniya), **N.P.Simanovskiy** (Rossiya) va boshqa shu kabi bir qator yirik mutaxassislarning nomlari otorinolaringologiya tarixida munosib o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasida aholiga otorinolaringologik yordam ko'rsatish va uning rivojlanish istiqbollari

1920 yilda Turkiston Davlat Universitetining hozirda Toshkent Davlat Milliy Universitetining ochilishi va uning huzurida tibbiyat kulliyotining tashkil etilishi O'zbekiston hayotida katta voqeа bo'ldi. 1931 yilda esa u alohida O'rta Osiyo bilimgohiga aylandi. 1935 yildan bilimgoh Toshkent Davlat tibbiyat instituti (hozirgi 1 va 2-tibbiyat instituti) deb atala boshladi. 1930 yilda Samarqandda ikkinchi universitet ochilib, keyinchalik u ham alohida tibbiyat oliygohiga aylantirildi. 1932 yilda shifokorlar malakasini oshirish ilmgohi, 1954 yili Andijon tibbiyat oliy bilimgohi, 1972 yilda Toshkentda O'rta Osiyo pediatriya tibbiyat instituti (hozir esa Toshkent Davlat Pediatriya tibbiyat instituti), 1990 yilda Buxoro tibbiyat instituti tashkil etildi.

Tashkil etilayotgan tibbiyat institutlarida otorinolaringologiya klinikalarining borligi ana shu ixtisoslikni rivojlanishiga yordam bermoqda. Professorlar **S.F.Shteyn**, **S.F.Kaplan**, **I.Y.Laskov** kabi olimlarning otorinolaringologiya fanini rivojlantirishda xizmatlari katta bo'ldi. Bunda professorlar **L.T.Levin**, **K.A.Drenova** (Toshkent shifo-

korlar malakasini oshirish instituti), **A.V. Savyeyev** (Samarqand Davlat tibbiyot instituti) ham katta hissa qo'shdilar. Hozirgi kunda respublikamizning tibbiyot institutlarida va shifokorlar malakasini oshirish institutlarida qulqoq, tomoq, burun kasalliklari bo'yicha 7 ta kafedra ishlab turibdi, kafedralarga tibbiyot fanlari doktorlari, professorlar **K.A.Xo'jayeva, A.I.Mo'minov, F.T.Ibrohimov, A.N.Dadamuhamedov, S. Hasanov, A.I.Alimov, T.X.Nasriddinovlar** rahbarlik qilib kelmoqdalar.

Hozirgi vaqtida otorinolaringologiya fani yuksalib bormoqda, bunga otorinolaringologlarning amaliyotda operatsion mikroskopdan foydalana boshlaganliklari misol bo'la oladi. Qulqoq, tomoq mikroxirurgiyasida qo'lga kiritilgan yutuqlar a'zolar funksiyasini tiklash bilan shug'ullanuvchi xirurgiya imkoniyatlarini oshirdi. Diagnostika va davolashning yangi usullarini amaliyotga tadbiq etish, ultratovush va lazer nurlaridan foydalanish og'ir dardga chalingan bemorlarni davolash imkoniyatini berdi. Atrof-muhit va ishlab chiqarish omillari ta'sirida yuzaga keladigan karlik va qulqoq, tomoq, burun a'zolari onkologiyasi, shu a'zolardagi allergik holatlarni, plastik xirurgiya masalalarini atroflicha o'rGANISH hozirgi zamon otorinolaringologiyasining diqqat markazida turibdi.

TEST SAVOLLARI

1. Otorinolaringologiya fani qaysi asrda mustaqil fan bo'lib ajralib chiqqan?

- A. XVIII.
- B. XX.
- C. XIX.
- D. XVII.
- G. XXI.

2. Otorinolaringologiya fani qaysi a'zolar kasalliklarini o'rGANUVCHI fandir?

- A. Qulqoq, tomoq, burun.

- B. Ko'z.
- C. Nafas olish a'zolari.
- D. Tishlar.
- G. Teri.

3. Suyakli chig'anoq ichida pardali chig'anoqni borligini kim aniqlagan?

- A. Suqrot.
- B. Sels.
- C. Gippokrat.
- D. Abu Ali ibn Sino.
- G. Vezaliy.

4. O'rta qulqoq va halqum orasidagi nayni kim aniqlagan?

- A. Yevstaxiy.
- B. Valdeyer.
- C. Fallopiy.
- D. Gippokrat.
- G. Manuel Garsio.

5. Hiqildaq oynasini kim birinchi bo'lib foydalanishga kiritgan?

- A. Manuel Garsio.
- B. Abu Ali ibn Sino.
- C. Sels.
- D. Gippokrat.
- G. Politser.

6. Birinchi bo'lib parasentez operatsiyasini kim taklif etgan?

- A. Kuper.
- B. Bush.
- S. Kataniya.
- D. Yevstaxiy.
- G. Fallopiy.

7. Otorinolaringologiya kafedrasи ToshMIda nechanchi yilda ta'sis qilindi?

- A. 1930 yil.
- B. 1931 yil.

- C. 1932 yil.
- D. 1935 yil.
- G. 1934 yil.

8. Infeksiya yo'lida halqumda joylashgan birinchi himoya to'sig'i — limfoid halqasini kim topgan?

- A. Pirogov va Valdeyer.
- B. Bush.
- C. Politser.
- D. Valsalva.
- G. Riolan.

9. Rossiyada birinchi otorinolaringologiya kafedrasini kim tashkil qilgan?

- A. Simanovskiy.
- B. Lixachev.
- C. Pirogov.
- D. Voznesenskiy.
- G. Laskov.

10. Peshona reflektorini kim ishlab chiqargan?

- A. Gofman.
- B. Kuper.
- C. Yevstaxiy.
- D. Manuel Garsio.
- G. Abu Ali ibn Sino.


II bob.

QULOQ SHIKASTLARI VA KASALLIKLARI SURDOLOGIYA VA ESHITISHNI PROTEZLASH


Quloq anatomiyasি

Eshituv va muvozanat organining asosiy qismi chakka suyagining piramidasimon o'simtasida joylashgan. U 3 qism — tashqi, o'rtalig'i va ichki quloqdan iborat.

Tashqi quloq (auris externa) — quloq suprasi va tashqi eshituv yo'lidan tashkil topgan (1, 2-rasm).



1-rasm. Tashqi quloq.



2-rasm. Tashqi, o'rta va ichki qulqoq.

1 — tashqi eshituv yo'lining suyak qismi; 2 — tashqi eshituv yo'lining tog'ay qismi; 3 — qulqoq suprasi; 4 — yarim halqasimon kanallar; 5 — chig'anoq; 6 — eshituv nayining tog'aysimon pardali qismi; 7 — eshituv nayining suyak qismi; 8 — nog'ora bo'shlig'i; 9 — nog'ora parda.


Qulqoq suprasi — teri bilan qoplangan elastik tog'aydan tuzilgan bo'lib, tovush to'lqinini ushslash vazifasini bajaradi. Tog'ay qulqoq chetida qayrilib supra burmasini hosil qiladi. Qulqoq suprasining asosini 0,5—1 mm qalnlikdagi elastik tog'ay tashkil qilib, u har yon tomonidan teri hamda tog'ay usti pardasi bilan qoplangan. Qulqoq suprasi uning tashqi sathini o'rab olgan gajak va ichki tomonidan unga qarama-qarshi joylashgan bolishsimon gajakdan tuzilgan. Qulqoq suprasining oldingi tomonidan ko'tarilib tashqi eshituv yo'lini bekitib turadigan bo'rtmasi supacha deyiladi. Uning orqa tomonidagi boshqa bo'rtmasi qarshi supacha deyiladi. Qulqoq suprasining pastki qismida tog'ay plastinka o'rnida yumshoq yog' qatlami bor. Bu joy qulqoq yumshoq'i deyiladi. Qulqoq suprasi voronkasimon torayish hosil qilib, tashqi eshituv yo'liga aylanadi.

Tashqi eshituv yo'li uzunligi 30—35 mmlig «S» simon kanał bo'lib, tashqi tomonidan qulqoq teshigi, ichkaridan nog'ora parda bilan chegaralanib turadi. Tashqi eshituv yo'li teri bilan qoplangan, qulqoq suprasi terisining davomi hisoblanadi. Tashqi eshituv yo'lining pardali tog'aysimon

bo'limidagi terining qaliligi 1—2 mm bo'lib, sertuk, yog' va sera ishlab chiqaradigan bezlari bor. Bu bezlar shaklan o'zgargan yog' bezlardir. Ular jigarrang sekret ajratadi, bular o'z navbatida yog' bezlari ajratmasi va tashqi eshituv yo'li terisidan ko'chgan epiteliylar bilan birgalikda qulqirini hosil qiladi. Nog'ora parda (membrana tympani) soat oynasiga o'xshash botiq doira shaklida bo'lib, yupqa va elastik to'qimadan tuzilgan, diametri o'rta yoshdagidagi odamlarda 9×12 mmcha bo'ladi. Qulquning nog'ora pardasi nog'ora bo'shlig'ining tashqi devori hisoblanadi. U tashqi qulqodan o'rta qulqni ajratib turadi. Shakli noto'g'-ri (oval ko'rinishida bo'lib) juda qattiq, xiyol elastik va juda yupqa (0,1 mm gacha) anatomik tuzilmadir. Nog'ora parda 3 qavatdan iborat: tashqi — teri qavat (bezsiz va so'rg'ichlarsiz), ya'ni tashqi eshituv yo'li terisining davomi hisoblanadi, ichki shilliq qavati — nog'ora bo'shlig'i shilliq pardasining davomi sanaladi, o'rta qavat — biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan ikki qavatli tolalardan (tashqi radiar va ichki aylana tolalardan iborat). Nog'ora parda tashqi eshitish kanali bilan o'rta qulq chegarasida joylashgan aylana ariqchaga soat oynasi soat korpusiga joylashgan-dek kirib turadi (3-rasm).

3-rasm Nog'ora pardasi:

- A. oldingi pastki; B. orqa pastki.
- D. orqa yuqori; E. oldingi yuqori kvadrantlari.
- 1 — uzangi muskulining payi;
- 2 — sandonning uzun oyoqchasi;
- 3 — sandon tanasi; 4 — bolg'acha boshchasi; 5 — bo'shashgan qismi; 6 — bolg'achanining orqa burmasi; 7 — bolg'achanining oldingi burmasi; 8 — bolg'achanining qisqa o'simtasi; 9 — bolg'achanining dastasi; 10 — kindikcha; 11 — tarang tortilgan qismi; 12 — nur konusi; 13 — fibroz-tog'aysimon halqa.



Tashqi qulq uyuq arteriyasi va yuqori jag' arteriyasi tarmoqlaridan oziqlanadi. Tashqi qulqning harakat innervatsiyasi yuz nervi tarmoqlari, sezgi innervatsiyasi uch shoxli va adashgan nerv tarmoqlari bilan boshqariladi.

O'rta qulq (*auris media*) — nog'ora bo'shlig'i va Yevstaxiy nayidan tashkil topgan (4-rasm).

Nog'ora bo'shlig'i (*caum tympani*) chakka suyagining toshsimon o'sig'i ichida joylashgan bo'lib, hajmi — 1 kub sm keladi, uni noto'g'ri formadagi kubga o'xshatish mumkin. Nog'ora bo'shlig'ining oltita devori bor:

1. Yuqori devori yoki nog'ora bo'shlig'ining tomi yupqa suyak plastinkasidan tuzilgan bo'lib, o'rta qulqni kalla bo'shlig'idan ajratib turadi.

2. Orqa devori nog'ora bo'shlig'ini so'rg'ichsimon o'siq ichidagi havo saqlovchi kataklar bilan qo'shadigan bir necha teshikchalaridan iborat.


3. Pastki devor yordamida nog'ora bo'shlig'i bo'yinturraq venanening piyozsimon qismidan ajralib turadi. U yupqa plastinkadan iborat.

4. Oldingi devori ichki uyuq arteriyasi kanalidan ajratib turadi. Uning yuqori qismida eshituv nayining teshigi bor.

5. Ichki devori yupqa plastinkadan iborat. Devor o'rtasida bo'rtib chiqqan do'nglik pastda joylashgan dumaloq teshik nog'ora parda bilan qoplangan. Do'nglikning yuqorirog'ida joylashgan oval teshikni o'rta qulqqa joylashgan uzangining asosi bekitib turadi. Oval teshik tepasida yuz nervi o'tadigan kanal yotadi. Kanal devori juda yupqa bo'lib, o'rta qulq kasallanganda yuz nerviga ta'sir etadi.

6. Tashqi devori — o'rta qulq bilan tashqi qulq chegarasida joylashgan nog'ora pardadan iborat.

Nog'ora bo'shlig'ining shilliq pardasi burun-halqum shilliq pardasining davomi hisoblanadi. Nog'ora bo'shlig'i 3 ta eshitish suyakchalaridan: bolg'acha, sandon va u uzangidan iborat bo'lib, ular o'zaro paylar va boylamlar (bo'g'imlar) bilan birikkan, tuzilishi va funksiyasi jihatidan



4-rasm. Nog'ora bo'shlig'ining medial devori:


1 — so'rg'ichsimon o'simtaning havo kataklari; 2 — sigmasimon sinusning bo'rtmasi; 3 — g'or; 4 — gorizontal yarim halqasimon kanal ampulasi; 5 — yuz nervi kanalining bo'rtmasi; 6 — nog'ora pardasini taranglovchi muskul; 7 — qirg'oq; 8 — chig'anoq oynasi; 9 — uzangi; 10 — uzangi muskuli; 11 — yuz nervi.

yaxlit zanjir hosil qilgan, u nog'ora pardadan dahliz darchasigacha davom etadi (4-rasm).

Nog'ora bo'shlig'ida ikkita muskul bor. Ular nog'ora pardani taranglab turuvchi muskul va uzangi muskulidir. Bu ikkala muskul, bir tomonidan, eshituv suyaklarini tarang tortib, ya'ni tovushni o'tkazish uchun qulay vaziyatda tutib turadi, ikkinchi tomonidan, ichki quloqni har xil kuchli tovush zarbalaridan reflektor ravishda qisqarib zararlanishdan himoya qiladi.

Shunday qilib, havo to'lqini tashqi quloqdan nog'ora pardaga tegib, uni harakatlantiradi. Bu harakat to'lqini o'z navbatida eshitish suyakchalarini harakatlantirib, eshitish (havo) to'lqini ovalsimon teshik orqali ichki quloqqa o'tkaziladi (5-rasm).

Eshituv (Evstaxiy) nayi orqali nog'ora bo'shlig'i burun-halqum sohasida tashqi muhit bilan tutashgan. U ikki qismidan iborat: qisqa suyak (kanalning 1/3 qismi) va uzun tog'aysimon pardali qism (kanalning 2/3 qismi). Uning uzunligi katta odamlarda 3,5 sm, chaqaloqlarda



5-rasm. Tovush to'lqinining tarqalishi.


a — tashqi va o'rta qulqlarda; b — ichki qulqoda.

2 sm. bo'lib, suyak qismi tog'ay qismidan 2 mm qisqadir. Eshituv nayining yutqun teshigi burun-halqumning yon devorida joylashgan bo'lib, pastki burun chig'anog'iga to'g'ri keladi.

Nog'ora bo'shlig'ining qon bilan ta'minlanishi nog'ora va bigiz-so'rg'ichsimon arteriyalar orqali amalga oshadi. Nog'ora bo'shlig'idan qonning orqaga qaytishi esa shu nomli venalar orqali ta'minlanadi. Limfa esa eshituv nayi shilliq pardasi bo'ylab yutqun orti limfa tugunlari orqali oqadi.

Nog'ora bo'shlig'ining sezuvchanligi 3 shoxli hamda til-halqum nervlari tolalaridan iborat, nog'ora chigali orqali innervatsiya qilinadi.

Ichki qulqoq (auris interna) murakkab tuzilgan bo'lib, chakka suyagining piramidasimon o'simtasi ichida joylashgan va labirint deb ataluvchi suyak kanallaridan tuzilgan. Suyak labirinti ichida pardasimon labirint joylashgan. Pardasimon labirint endolimfa bilan, suyak labirinti bilan pardasimon labirint orasidagi bo'shliq esa kimyoviy tarkibiga ko'ra orqa miya suyuqligiga o'xshash perilimfa bilan to'lgan. Suyak labirinti dahliz, 3 ta yarim halqasimon kanallar va chig'anoqdan tashkil topgan (6-rasm).




6-rasm. Quloq labirinti.

1 — elliptik qopcha; 2 — gorizontal yarim halqasimon kanal ampulasi; 3 — endolimsatik qop; 4 — chig'anoq irmog'i; 5 — sferik qopcha; 6 — perilimsatik irmoq; 7 — chig'anoq oynasi;
8 — dahliz oynasi.

Dahliz (*vestibulum*) suyak labirintning markaziy qismini tashkil etib, uning tashqi devorida dahliz darchasi, qarama-qarshi ichki devorida dahlizning pardasimon xaltachalari uchun 2 ta yuza chuqurchalar bo‘ladi. Oldingi xaltacha dahlizning oldingi tomonida joylashgan pardasimon chig'anoq bilan, orqadagi xaltacha esa dahlizning orqa va yuqori tomonida joylashgan 3 ta pardasimon yarim doira kanal bilan tutashadi.

Yarim halqasimon kanallar 3 ta kanallardan iborat bo‘lib, 3 ta tekislikda: gorizontal, frontal va sagital tekisliklarda joylashgan. Har bir kanalning ikkita oyoqchasi bo‘lib, ular ampulyar va oddiy oyoqcha deyiladi. Oldingi va orqa kanallarning oddiy oyoqchalari bir-biriga qo’shilib bitta umumiy oyoqchani tashkil qiladi. Natijada 3 ta yarim halqa kanallarning 6 ta oyoqchalari va 5 ta teshigi bor. ular dahlizga ochiladi (6-rasm).

Chig'anoq o'z o'qi atrofida 2,5 marta aylanishdan hosil bo'ladi. Uning asosi ichki eshituv yo'liga qarab turadi, undan vintsimon suyak plastinkasining ichki kanali ajraladi. Bu suyak plastinka — yuqorigi va pastki spiral yo'lakchaga bo'linadi. Yuqori yo'lakcha dahliz narvonchasi, pastkisi nog'ora narvonchasi. Bu ikkala narvoncha bir-biridan ajralgan (izolyatsiya qilingan) bo'lib, faqat chig'anoq uchidagina teshik orqali tutashib turadi. Dahliz narvonchasi dahliz bilan tutashadi. Nog'ora narvonchasi chig'anoq darchasi yoki aylanma darcha orqali nog'ora bo'shlig'i bilan chegaralanadi. Birinchi jingalak chig'anoq asosi hisoblanadi, u bo'rtiq hosil qilib nog'ora bo'shlig'iga chiqib turadi (7-rasm).



7-rasm. Chig'anoqning kesmasi.

1 — chig'anoq teshigi; 2 — dahliz narvoni; 3 — g'alvirsimon labirint; 4 — nog'ora narvoni; 5 — suyakli spiral to'siq; 6 — suyakli o'q.

Suyak labirinti perilimfa suyuqligi bilan to'lgan. Undagi pardasimon labirint ichida esa endolimfa suyuqligi bo'ladi. Pardasimon labirint suyak labirintining tuzilishini qaytarib, kanallar va bo'shtiqlar sistemasidan tarkib topadi.

Anatomik tuzilishi va faoliyati nuqtai nazariga ko'ra, pardasimon labirintning ikkita apparati farqlanadi: 1) eshituv apparati (chig'anoq pardasida joylashgan); 2)

vestibulyar (dahliz xaltachalari va uchta pardasimon yarim aylana kanallarini tutashtiradi) apparat.

Chig'anoq pardasi spiralsimon kanal ko'tinishida bo'lib, chig'anoq yo'li uning ichida retseptor apparat — spiral (Kortiyev) a'zosi joylashgan.

Pardasimon yarim aylana kanallar suyak kanallarida joylashgan. Ularning diametri kichik bo'lib, suyak kanallari tuzilishiga o'xshaydi, ya'ni ampulyar va silliq qismi tizzachaga ega bo'lib, biriktiruvchi to'qima bo'rtmalari orqali suyak devorining ustki pardasiga birikadi, ulardan tomirlar o'tadi. Pardasimon kanallar, ichki sathi endoteliy bilan qoplangan bo'lib, retseptor hujayralar joylashgan, ampula bundan mustasno. Ampulaning ichki sathida doirasimon bo'rtiq — toj bo'lib, bunda tayanch hamda sezuvchi tukli hujayralar joylashgan, ular vestibulyar nervning periferik retseptorlari hisoblanadi.

Labirint dahlizida ikkita pardasimon xaltacha *sacculus* va *utriculus* bo'lib, ularda otolit apparati joylashgan. Sezuvchi hujayralar tukchalari murakkablashib qo'shilish to'r hosil qiladi, unda ko'p miqdorda kristallar saqlangan, dirildoq membrana joylashgan.

Bu kristallar otolitlar deb ataladi, ular fosfat va kalsiy karbonatdan tashkil topgan.

Tukli hujayralar tuklari otolitlar bilan birqalikda otolit membranasini hosil qiladi.

Ichki quloq ichki eshituv arteriyasi orqali qon bilan ta'minlanadi. Ichki quloq vena qon tomirlaridan qon uch yo'l: chig'anoq *suv* yo'li venasi, dahliz suv yo'li venasi va ichki eshituv yo'li venalari orqali qaytadi.

Ichki quloq innervatsiyasi kalla nervining VIII just nervi orqali innervatsiya qilinadi, u uzunchoq miyadan chiqib, ko'prik-miyacha burchagi orqali yagona poya hosil qilgan holda ichki eshituv yo'liga yo'naladi.

Vestibulyar soha: 1) orqa miya; 2) miyacha; 3) ko'zni harakatlantiruvchi nerv yadrolari; 4) vegetativ markaz yadrolari; 5) bosh miya po'stlog'i bilan bog'langan.

Chig'anoq yo'llari nervlar o'tuvchi kanallar bilan teshilgan suyak o'zagi atrofiga o'ralgandir, bu o'zak gorizontal yotadigan duk deb ataladi.

Quloq fiziologiyasi

Eshitish analizatori fiziologiyasi — tashqi quloqdan boshlanib, bosh miya po'stlog'ida tugaydigan bir butun sistemadir. Bu sistemalarning har biri ma'lum bir funksiyaga ega bo'lib, uning buzilishi eshitishni qisman yoki to'la yo'qolishiga olib keladi.

Eshituv analizatorining adekvat ta'sirlovchisi tovushdir. Quloq suprasi tovushning yo'nalishini aniqlashda qatnashadi. Uning shakli va eshitish yo'llarini tuzilishi tovush to'lqini bosimining ortishini ta'minlaydi.

O'rta quloq tizimi tovush to'lqinlarini to'liqligicha ichki quloqqa yetkazilishini ta'minlashga mo'ljallangan. Bu jarayon o'rta quloqda mavjud bo'lgan «mexanizmlar» yordamida amalga oshiriladi. Nog'ora parda, tovush kuchi va tovush to'lqini bosimini labirint dahliziga uzatadi.

Eshituv suyakchalarining zanjiri ikkita — antagonist mushaklar bilan bog'langandir. Shuning uchun uzangida tovush to'lqininining bosimi ortib, natijada nog'ora parda va labirint dahlizi bilan kontakt hosil bo'ladi. Odamning qulog'i tashqi muhitidan 16 dan 22000 Gs gacha tebranadigan tovushlarni qabul qiladi. Eshitish qobiliyati odamlarda 20—30 yoshlarda eng yuqori nuqtaga yetadi.

Odamlarning mazkur qobiliyatini paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'riflovchi ko'p nazariyalar mavjud. Masalan 1868 yilda nashr etilgan G.Gelmgolsning rezonans nazariyasi, P.Lazaryevning (1925 y.) ion nazariyasi, Bekoshning (1960 y.) gidravlik nazariyasi va hokazolar.


Tovush tebranishlarining minimal energiyasi eshitiladigan tovushni sezishga olib keladi, bu — tovushni eshitish bo'sag'asi deyiladi. Tovushning o'chov birligi detsibel (dB) dir.

Eshituv analizatorining muhim xususiyatiga tovush manbaining qayerdaligini aniqlash qobiliyati kiradi, bu esa ototopika deyiladi. Ototopika ikkala quloq faqat normal eshitgandagina, ya'ni yaxshi binoural eshitgandagina yuzaga chiqadi.

Eshituv analizatorining periferik qismi ikkita asosiy funksiyani bajaradi: 1) tovushni o'tkazish, ya'ni tovush energiyasini retseptor apparatiga tashib berish, bu ko'pincha mexanik (fizik) funksiyadir; 2) tovushni qabul qilish, tovush tebranishlari fizik energiyasining periferik retseptorlar — spiral (Kortiy) a'zoning nerv qo'zg'alishlariga (elektropotensiallarga) aylanishi (transformatsiya), bu — keyin miya po'stlog'iga uzatiladi (8-rasm).

Ana shu funksiyaga muvofiq tovushni o'tkazuvchi va tovushni qabul qiluvchi apparatlar farqlanadi.

Vestibulyar analizator fiziologiyasi. Vestibulyar apparat — muvozanat a'zosi hisoblanib, muskullar tonusini idora qiladi va gavdani ma'lum bir muvozanatda saqlaydi, gavda vaziyati hamda uning maqomidagi muvozanati haqidagi



8-rasm. Quloqning tovush o'tkazuvchi (1) va tovushni qabul qiluvchi (2) bo'limlari:

a) havo o'tkazuvchanligi; b) suyak-to'qima o'tkazuvchanligi.

informatsiyalarni miya po'stlog'iga yetkazib beradi. Vestibulyar apparat retseptorlarining ta'sirlanishi tufayli mushaklarda reflektor reaksiya sodir bo'ladi, bu esa gavdani muvozanatda saqlab turishga sharoit yaratib beradi.

Yarim halqa kanallar funksiyasi va dahliz xaltachalari funksiyalari farqlanadi. Otolit apparatidan reflekslar chiqishi mumkin. Bunday paytda og'irlik kuchi yoki to'g'ri chiziqli tezlanish va ampuladan chiqqan burchakli tezlanishlar ta'siri adekvat ta'sirlar bo'lib hisoblanadi.

Yarim halqa kanallari ta'sirlanganidan ko'ndalang targ'il mushaklarda reflekslar — animal reaksiyalar kelib chiqadi, ular orasida: ko'z, qo'l-oyoq, tana-bo'yin mushaklarida bo'ladigan reflekslar farqlanadi. Ko'z mushagida bo'ladigan reflekslar nistagm paydo bo'lishi — ko'z olmasining ritmik tebranishi bilan ifodalanadi, bu — sust va tez komponentlardan tashkil topadi.

Quloqni tekshirish usullari

Quloqni tekshirish anamnez to'plashdan boshlanadi, so'ngra uni ko'zdan kechiriladi va eshituv funksiyasi tekshiriladi. LOR a'zolarini mujassamlashgan holda tekshirishda quloqni ko'zdan kechirishdan oldin hamisha burun va halqumni qarab chiqiladi.

Bemorning shikoyatlarini aniqlashda quyidagilarga alohida ahamiyat beriladi:

qulogda og'riq bormi, bor bo'lsa uning xarakteri qanday?

yiring oqadimi?

qulog'i og'irlashganmi yoki butunlay eshitmaydimi?

qulog'i shang'illaydimi?

boshi aylanadimi?

bemorning o'zini qanday his qilayotganini, bosh og'ri'i, et junjikishi bor-yo'qligini aniqlash ham katta ahamiyatga ega.


Bemor qulog'i og'rishidan oldin gripp, o'tkir tumov kabi kasalliklar bilan og'rigan-og'rimaganligini aniqlash zarur. Qulojni ko'zdan kechirish deganda tashqi tomondan qarash, quloq va so'rg'ichsimon o'siqni ushlab ko'rish hamda tashqi eshituv va nog'ora pardasini ko'rish (otoskopiya) tushuniladi.

Otoskopiya. Bu tashqi eshituv yo'lini va nog'ora pardasini ko'zdan kechirish. Otoskopiyanı o'tkazishda peshona reflektori va quloq voronkasi, maxsus asbob — otoskop ishlataladi. Otoskopiyanı ikkala ko'z bilan qilinadi, bunda chap ko'z bilan reflektor teshigidan qaraladi. Yorug'lik bemorning o'ng tomonidan tushishi kerak. Quloq voronkasini kiritishdan oldin tashqi eshituv yo'lining kiring qismi ko'zdan kechiriladi va uning kengligi aniqlanadi. Quloq voronkasining kengaygan qismini bosh barmoq va ko'rsatgich barmoq bilan ushlab turiladi. Uni nozik aylanma harakatlar bilan asta-sekin eshituv yo'liga 1—1,25 sm ichkariga, imkon boricha suyak qismiga tekizmay kiritiladi. Eshituv yo'lini to'g'rilash uchun quloq suprasi ni yuqoriga va orqaga, yosh bolalar da pastga va orqaga cho'ziladi (9, 10-rasm).

Normal nog'ora pardasi kulrang — sadaf rangli oval shaklida bo'ladi. Quloq pardasining oldingi yuqori qismida to'g'nog'ich boshidek keldigan sarg'imtir oq bo'lmasi — bolg'achaning kalta o'sig'i bo'ladi. Undan oldingi va orqa tomonga kul rang oq ikkita yo'l — oldingi va orqa burma ketadi. Bular quloq pardasining — yuqori qismi (Shrapnell pardasi — *pars Schrapnelli*) tarang tortilgan pastki qismi (*pars tensa*) dan ajratib turadi. Kalta o'siqdan pastga va orqaroqqa bo'rtib tushgan bo'rtma bolg'acha das-



9-rasm. Peshona reflektori (a) va avtonom yoritgich bilan otoskop (b).




10-rasm. Quloq voronkasini o'ng (a) va chap (b) eshituv yo'liga kiritish.

tasi bo'lib u o'zining kengaygan pastki uchi bilan quloq pardasining markazida turadi. Bu joy kindik (*umbo*) deb ataladi. Quloq pardasi nog'ora bo'shlig'i bilan chambarchas bog'langan, shunga ko'ra u o'rta quloq kasallikkari-da o'rta quloqning holatini aks ettiradi. Pardanining rangi o'zgargan, masalan qizargan bo'lsa, bu — o'rta quloq yallig'langanidan darak beradi. Quloq pardasining harakatchanligini pnevmatik voronka yordamida aniqlanadi. Voronkaning kengaygan uchi lupa bilan germetik berkitilgan bo'lib, yonida esa rezina ballon bilan tutashadigan naychasi bor. Bu voronkani eshituv yo'liga zinch qilib qo'yiladi va rezina ballondan goh havo yuborib, goh tortib quloq pardasini tebrantirish va uni lupa orqali kuzatish mumkin (11, 12-rasm).



11-rasm. Zige pnevmatik voronkasi.



12-rasm. Qulogqa Politser balloonchasi bilan havo yuborish va otoskop orqali havo oqimini nog'ora bo'shilg'iiga o'tish vaqtidagi tovushni eshitish.


Otoskopiylada kasallangan qulogni sog'i bilan taqqoslash uchun tekshirishni sog'lom qulogdan boshlanadi.

Qulogning eshituv funksiyasini tekshirish

Eshituv funksiyasini shivirlash va so'zlashish yordamida, kamertonlardan foydalanib hamda audiometr bilan tekshiriladi. Eshitishni shivirlab gapirish bilan tekshirishni jimjit va kattaroq xonada olib borish kerak. Har bir qulogni alohida tekshiriladi. Bunda ikkinchi qulogni barmoq bilan berkitib turiladi. Bemor qulog'ini tekshiruvchining tomoniga tutib uning yuzini ko'rmasdan turadi va tekshiruvchining so'zlarini labidan sezib ololmaydi. Tekshiruv vaqtida hamisha bir xil shivirlash kerak. Normal qulog tarkibidagi past tovushlar, ya'nii lab tanglay undoshlari — b, p, t, m, n ustunlik qiladigan so'zlarni shivirlab gapirilganda uni 5—10 m masofadan eshitadi. Tarkibida baland tovushlar (shipillovchi va sirg'aluvchi s,z,ch,sh) ustunlik qiladigan so'zlarni esa 20 m gacha bo'lgan masofadan eshitadi. Eshitishni shivirlab gapirish bilan aniqlashda birdan yuzgacha sanash, past (1,4,7) va baland tovushli (3,8,80) kabi sonlarni tanlash kerak. Shivirlash taxminan

6—8 metr masofadan eshitilsa, eshitish qobiliyati amalda normal hisoblanadi. Bemor shivirlagan tovushni mutlaqo eshitmasa, bu holda gapirish yoki qattiq gapirish yo'li bilan tekshirishga o'tiladi. Bir tomonlama karlikni aniqlashda sog'lom qulogni barmoq bilan berkitib turish yetarli emas, chunki bemor sog'lom qulog'i bilan eshitayotgan bo'ladi. Shunga ko'ra, sog'lom qulogqa tovushlar kirmasligi uchun unga qulog tartaragi qo'yiladi. Tartarak ishlab turganda qulog hech qanday tovushni eshitmaydi.

Kamertonlar bilan tekshirish. Tovush o'tkazuvchi va tovushni qabul qiluvchi (13-rasm) apparat kasalliklari o'rtasi differensial diagnostika o'tkazish, shuningdek, eshitish kuchini to'laroq aniqlash uchun eshitishni kamertonlar bilan tekshirish zarur. Kamertonlar obertonsiz sof ton beradi. Inson qulog'i sekundiga 16 dan 20000 gacha tebranadigan tovushlarni farq qila oladi. Qulog eshitadigan eng yuqori ton eshitishning yuqori chegarasini, eng past ton — eshitishning past chegarasini belgilaydi. Yuqori va pastki chegara o'rtasida qabul qilinadigan tonlar eshitish diapazonini hosil qiladi. Havo o'tkazuvchanligini aniqlash uchun eshituv yo'li teshigiga sado berib turgan kamerton yaqinlashtiriladi. Suyak o'tkazuvchanligini aniqlashda sado berayotgan kamerton boshga yoki so'rg'ichsimon o'siqqa qo'yiladi. Qulog normal eshitsa, uning havo o'tkazuvchanligi suyak o'tkazuvchanligiga nisbatan uzoq davom etadi.



13-rasm. Kamertonlar yig'masi.

Veber tajribasi (tovush lateralizatsiyasini tekshirish tajribasi). Sado berayotgan C—128 kamertonini bemorning boshi tepasiga qo'yiladi. Va tovushni qaysi qulog'i bilan yaxshi eshitayotganini so'raladi. Tovush o'tkazuvchi apparat zararlanmagan bo'lsa (eshituv yo'lida sera (oltingugurt tiqini) to'planganda, o'rta qulog yallig'langanda), kasal qulog kamerton tovushini yaxshiroq eshitadi. Tovush qabul qiladigan apparat zararlanganda kamerton sog'lom qulogda yaxshiroq eshitiladi.

Rinne tajribasi (suyak va havo o'tkazuvchanligini taqqoslash). So'rg'ichsimon o'siqqa qo'yilgan sado berayotgan C—128 kamertoni eshitilmay qolgach uni qulogqa tutiladi. Bunda tovushning suyakka nisbatan havo orqali uzoqroq eshitilishi ma'lum bo'ladi (normada suyak orqali taxminan 45s, havo orqali 85—90s davomida eshitib turiladi). Bu holda, Rinne tajribasi musbat (Rinne +) deyiladi. Musbat Rinne tajribasi qulog'i normal eshitadigan, tovush qabul qiladigan apparati zararlangan shaxslarda bo'ladi. Tovush o'tkazuvchi apparat zararlanganda suyak orqali eshitish havo orqali eshitish bilan bir xil va hatto undan ko'ra ancha uzoq davom etishi mumkin. Bu holda Rinne tajribasi manfiy (Rinne —) deyiladi.


Shvabax tajribasi. Bu tajribada bemorning suyak o'tkazuvchanligi (boshning tepe suyagi yoki so'rg'ichsimon o'siqda) bilan tekshiruvchining suyak o'tkazuvchanligi taqqoslanadi. Tovush o'tkazuvchi apparat zararlanganda suyak o'tkazuvchanligi uzaygan, tovush qabul qiladigan apparat zararlanganda esa, qisqargan bo'ladi. C—4 (sekundiga 2048 marta tebranadi) kamertoni bilan qulogning yuqori tonlarini eshitish qobiliyatani aniqlanadi.

Eshitishni audiometrik tekshirish. Eshitishning buzilish xarakteri va darajasi haqida aniqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun audimetriyaning turli usullaridan foydalilaniladi(14-rasm). Toza tonlarni chiqaruvchi asboblar yordamida eshitishni tekshirish keng tarqalgan. Havo va suyak telefonlari orqali tekshirilayotgan bemor qulog'iga



14-rasm. Audiometriya uchun asbob-anjomlar.

turli kuchga va chastotaga ega tovushlar yuboriladi. Bemor aniq eshitgan eng past tovushni belgilash — audiometriyaning asosiy vazifasidir. Shu asosda chizilgan audiogrammalar eshitish analizatorining holatiga baho berishga yordam beradi. Rasmida normal eshitish, tovush o'tkazish va tovush qabul qilishning buzilishiga xos audiogrammalar keltirilgan (15-rasm).



15-rasm. Audiogrammalarining variantlari.

- 1 — normada; 2 — tovush o'tkazilishini buzilishi; 3 — tovush qabul qilishini buzilishi; 4 — aralash chala karlik.

Bolalar otiatriya amaliyotida refleks registratsiya qilish yoki tovushni ta'siri vaqtida yozib olingan EEGlarni qo'zatishga asoslangan ob'ektiv audiometrik usullardan foydalaniлади.

Qulinqing vestibulyar funksiyasini tekshirish

Qulinqing vestibulyar funksiyasini tekshirishni bemor dan so'rash va uni ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Vestibulyar apparati kasallangan bemorlar odatda boshi aylanishi, yurganda gandiraklashi, ko'ngil aynishi va qayt qilishidan shikoyat qiladilar. Kasallik anamnezi yig'iladi.

Romberg holatidagi turg'unligini tekshirish. Bemor paypoqda, oyoqlarini juft qo'ygan holda turib, qo'llarini ko'krak sathida cho'zadi, qo'l barmoqlari orasi ochilgan, ko'zları yumilgan (bemorni ehtiyyot qilish kerak, u yiqilib tushishi mumkin) bo'ladi. Labirint funksiyasi buzilgan bo'lsa bemor nistagmga qarama-qarshi tomonga yiqilib tushadi. Bemor boshini 90°ga chapga bursa labirint zararlanganda yiqilishning yo'nalishi o'zgaradi, boshini o'ng tomonga burganda ham xuddi shunday bo'ladi.

To'g'ri chiziq bo'ylab va yon tomonga qadam tashlash.

1. To'g'ri chiziq bo'ylab. Bemor ko'zlarini yumgan holda to'g'ri chiziq bo'ylab 5 qadam orqaga tashlaydi. Vestibulyar analizator funksiyasi buzilganda bemor to'g'ri chiziqdan boshqa tomonga, nistagmga qarama-qarshi tomonga chiqadi. Miyacha funksiyasi buzilganda zararlangan tomonga chiqadi.

2. Yon tomonga qadam tashlash. Bemor o'ng oyog'ini o'ng tomonga surib qo'yadi, keyin chapini qo'yadi va shunday holatda besh qadam tashlaydi, shunga o'xshash 5 qadam chap tomonga ham yuradi.

Vestibulyar funksiya buzilganda bemor yon tomonga qadam tashlashni har ikki tomonda ham yaxshi bajaradi. Miyacha funksiyasi buzilganda bemor zararlangan tomonning yon tomoniga qadam tashlashni bajara olmaydi (yiqilib tushishi sababli).

Ko'rsatuvchi tajriba. Bunda shifokor bemorning qarshisida o'tirib, qo'lini ko'krak sathiga cho'zadi, ko'rsatkich barmog'i ochilgan, qolganlari musht qilib yumilgan bo'ladi. Bemorning qo'li tizzasida bo'ladi, barmoqlari xuddi shunga o'xhash (ko'rsatkich barmoq ochilgan, qolganlari musht yumilgan) holatda bo'ladi. Bemor qo'lini ko'targan holda ko'rsatkich barmog'inining yon sathini vrachning ko'rsatkich barmog'iga tekkizishi kerak bo'ladi.

Bemor dastlab bularning hammasini 3 marta ko'zi ochiq holda, keyin ko'zini yumib turib bajaradi. Labirint funksiyasi normal holda bo'lganda u vrachning barmog'iga tekkizadi. Labirint funksiyasi buzilganda nistagmga qaramaqarshi tomonga har ikki qo'li bilan ketib qoladi. Miyacha zararlanganida bir qo'li bilan kasallangan tomonga ketib qoladi.

Adiadoxokinez (miyacha kasalliklarida spetsifik simptom). Bemor Romberg holatida turadi va ikki qo'li bilan supinatsiya va pronatsiyani bajaradi. Miyacha funksiyasi buzilganda kasallangan tomonga bog'liq holda shu tomondagi qo'lning keskin orqada qolishi kuzatiladi.

Spontan nistagmni aniqlash. Shifokor bemor qarshisida o'tiradi va ko'rsatkich barmog'ini vertikal holda, uning ko'zi sathida, 60—70 sm uzoqlikda o'ng tomonda tutib turadi va bemordan barmoqqa qarashni iltimos qilnadi. Bunday paytda ko'z harakati kuzatiladi (shu holda o'ng tomonga), u kuchli harakat qilmasligi kerak, chunki ko'z muskullarining zo'riqishi, ko'z soqqasining beixtiyor holda u yoki bu tomonga bir maromda tebranishi («uchib turishi») bilan birga kechishi mumkin. Shunday holatda nistagm bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Agar spontan nistagm bo'lsa, uning xarakteristikasi (tekisligi bo'yicha yo'nalishi, kuchi, amplitudasi, tezligi) aniqlanadi. Bemorni to'g'riga va chapga qaratib turib ham shunday tekshiriladi va baholanadi. Masalan, spontan gorizontal nistagm o'ngga, II darajali, jonli, mayda tebranishlar. Shuni nazarda tutish kerakki, qarashning (ko'zning tiki-

lib turishi) yo'nalishiga bog'liq bo'limgan holda tug'ma spontan nistagm bo'lsa ham uchraydi, ammo u sekin va tez komponentlarning yo'qligi bilan farqlanadi.

Bemorni ko'zdan kechirayotganda uni ko'zida spontan nistagmni ko'rish mumkin. Bu holat aksariyat vestibulyar analizator funksiyasini buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Spontan nistagm bemor ko'zini chetga qaratganda ba'zan esa to'g'riga qarab turganda ham kuzatilishi mumkin. Vestibulyar funksiyaning holatini aniqlash uchun 3 ta asosiy sinama bor: ular aylantiradigan, kalorik va pressor sinamalardir.

Aylantiradigan sinama. Gavda o'z o'qi atrofida aylantirilganda yarim doira kanallaridagi endolimfaning surilishi sodir bo'ladi. Endolimfaning bunday surilishidan retseptorlar ta'sirlanib nistagm vujudga keladi. Bemorni gorizontal tekislikda aylanadigan kursiga (Barani kursi) o'tkaziladi va vertikal o'q atrofida 20 sek mobaynida 10 marta aylantiriladi. Bunda yon tomonining yarim doira kanallarida endolimfa suriladi, oqadi. O'ng tomoniga aylantirilgandan so'ng kursi to'xtatilsa bemorning chap tomoniga, chap tomoniga aylantirilganidan so'ng to'xtatilsa, bemorning o'ng tomonida nistagm paydo bo'ladi. Nistagmni kuzatib turish uchun kursi to'xtatilgach bemordan tekshiruvchining barmog'iga qarab turish so'raladi: tekshiruvchining barmog'i nistagm paydo bo'lishi kutilgan tomonda 30 sm masofada tutib turiladi. Vestibulyar analizatorining qo'zg'aluvchanligi normal bo'lgan ko'pchilik kishilarda aylantirishdan so'ng nistagm taxminan 30—35 sek davom etadi.

Kalorik sinama. Asosiy mohiyati — sun'iy ravishda yoki sovutish yo'li bilan yarim doira kanallaridagi endolimfani harakatga keltirish. Bu sinamada har bir labirint alohida tekshiriladi. Har qaysi qulorra galma-gal Jane shpritsidan suv quyiladi; sovuq (16—30 °C li) suv quyilganda qarama-qarshi tomonda, iliq (38—41 °C li) suv quyilganda esa, suv quyilgan tomonda nistagm paydo bo'ladi.

Pressor sinama. Shifokor bemor qarshisida o'tiradi va tashqi eshituv yo'lining kirish qismiga moy surtadi, keyin chap qo'lining ko'rsatkich barmog'i bilan o'ng qulq suprasini bosadi yoki balloncha yordamida eshituv yo'lidagi havoni zichlashtiradi. Labirint holati normal bo'lganda nistagm kuzatilmaydi, yarim halqa gorizontal kanalda fistula bo'lganda nistagm o'sha tomonda, ya'ni o'ng tomonda bo'ladi. Sinama chap tomonda ham xuddi shunga o'xshatib o'tkaziladi. Tananing og'ishi nistagmga qarama-qarshi tomonda bo'ladi.

TASHQI QULOQ KASALLIKLARI

Quloq shikastlari

Mexanik jarohatlanishlar. Quloq suprasi yuzasining jarohati uning ezilishi, lat yeyishi, tishlanishi va boshqalar tufayli yuz beradi. Ayrim hollarda quloq suprasi qisman yoki to'liq (butunlay) yirtilgan bo'ladi. Jarohatga o'z vaqtida kerakli tibbiy davo choralarini ko'rsatish uni tez bitishiga yordam beradi va xunuk chandiqlar qolishining oldini oladi.

Quloq suprasi jarohatlanganda infeksiyalanadi. Ayniqsa, tibbiy yordamning kechiktirib ko'rsatilishi xondrit yoki perixondrit (tog'ay usti pardasining yallig'lanishi) kasalligi kelib chiqishiga sabab bo'ladi, bu esa keyinchalik tog'ayning erib ketishiga hamda quloq suprasi shaklining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Jarohat tog'ayga o'tmasdan, yuza joylashgan bo'lsa unga 5% li yod nastoykasi surtilib, penitsillin yoki streptotsid kukuni purkaladi. Chuqur jarohatlar umumiylar xirurgik qoidalarga binoan yuqumsizlantiriladi. Yordam ko'rsatish sxemaga rioya qilgan holda qoqsholga qarshi zardob kiritish bilan tugallanadi. Keyingi kunlarda bog'lamni har kuni almashtirib turiladi. Fizioterapiya muolajalari yordamida va antibiotiklar bilan davolani-ladi.

Birlamchi jarrohlik ishlovlardan ancha keyin jarohat yiringlasa, chok iplari olib tashlanadi va yiringni yo'qotish uchun zaruratga qarab terini qo'shimcha yana kesiladi. Jarohat bunday hollarda ikkilamchi bo'lib bitadi.

Otogramatoma. Quloq suprasining lat yeishi yoki uzoq ezilishi tufayli kelib chiqishi mumkin. Otogramatoma — bu tog'ay va tog'ay usti pardasi oralig'iga qon quyilishidir. Tekshirib ko'rilganda, odatda quloq suprasining oldingi yuzasining yuqori yarmida joylashgan flyuktuatsiya qilib turadigan aylana shaklidagi qizil-ko'kimtir shish aniqlanadi. Paypaslab ko'rilganda ko'pincha og'riqli bo'ladi. Ichidagi suyuqlik qon va limfadan iborat bo'ladi. Ba'zi hollarda tog'ay usti pardasining ostiga infeksiya tushishi sababli otogramatoma yiringlaydi.

Uncha katta bo'lmagan otogramatoma quloq suprasiga bosib turadigan bog'lamlar qo'yilganda o'z-o'zidan so'rib ketadi. Katta otogramatomalarda uni teshib, ichidagi suyuqlik so'rib olinadi va bir necha kunga bosib turadigan bog'lam qo'yiladi. Yiringlaganda esa, keng qilib kesiladi va antiseptik eritmada yuvib, so'ng bosib turadigan bog'lam qo'yiladi. Agar tog'aylar singan bo'lsa ularni to'g'iranib va ularga ham bosib turadigan bog'lam qo'yiladi.

Tashqi eshituv yo'li shikastlari. Teri — pardada yoki suyak qismlarida joylashgan bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda tashqi eshituv yo'lining ikkala qismi ham shikastlanadi. Tashqi eshituv yo'lining shu xildagi va boshqa shikastlanishlari pastki jag' suyagining to'g'ridan-to'g'ri urilishi yoki unga bog'liq bo'lmagan urilishlar natijasida yuz beradi, bunda tashqi eshituv yo'lining oldingi va pastgi devori shikastlanadi.

Birinchi yordam ko'rsatish jarohatga birlamchi ishlov berish, qon ketishini to'xtatish, jarohatni antiseptik eritma bilan yuvish va sxema bo'yicha qoqsholga qarshi zardob yuborishni o'z ichiga oladi. Chandiqlanish tufayli yuz beradigan tashqi eshituv yo'lining torayib qolishi, uning

atreziyasi va yallig'lanishning oldini olish maqsadida birinchi kundan boshlab tashqi eshituv yo'li toza vazelin, sintomitsinli yoki streptotsidli malhamlar shimdirlilgan turunda bilan tamponada qilinadi. Davolashning bu usuli antibiotiklarni umumiy qo'llash bilan birga olib boriladi. Bundan tashqari, tashqi eshituv yo'liga tubus orqali kvars, UVCh bilan fizioterapevtik davo tavsija etiladi. Tashqi eshituv yo'lining oldingi pastki devori singan jag' suyagining siljib ketmasligi uchun pastgi jag' bog'lam bilan mahkamlanadi va faqat suyuq ovqatlar beriladi.

Quloq pardasi shikastlanishi bevosita va bilvosita bo'ladi. Bevosita shikastlanishlar qulogni nobop jismlar (gugurt cho'pi, shpilka va boshqalar) bilan tozalanganda kuza tilishi mumkin. Tashqi eshituv yo'lidagi yot jismlarni uquvsizlik bilan olishga urinishlik ham qulog pardasini shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kalla suyagi asosi singanda, sinish chizig'i nog'ora halqasidan o'tganda nog'ora parda bilvosita shikastlanadi.

Ba'zi hollarda masalan qulog tomonga yiqilganda, unga urilganda, balanddan suvga sakraganda va boshqalarda tashqi eshituv yo'lida to'satdan havo bosimi oshib ketishi tufayli ham nog'ora parda shikastlanadi.

Bunda birinchi yordam ko'rsatishda tashqi eshituv yo'liga quruq steril turunda yoki paxta sharcha kiritish bilan cheklanish kerak. Shikastlangandan keyingi dastlabki kuniyoq, agar qulogdan ajralma chiqmasa, qulogqa dori kiritilmaydi.

Termik va kimyoviy shikastlanishlar yuqori va past harorat, kislota, ishqor va boshqalar ta'sirida kelib chiqadi. Termik shikastlanish deyarli hamisha yuz va bo'yinning birga shikastlanishi bilan qo'shilib keladi. Kuyishda ham sovuq urushdagidek 4°C tafovut qilinadi. Kuyishda: I daraja — eritema; II daraja — shish va pufaklar paydo bo'lishi; III daraja — terining yuzaki nekrozi (chirishi); IV daraja — chuqur nekroz (chirish), ko'mirga aylanish.

Sovuq urishda: I daraja — terining shishishi va ko'kariishi; II daraja — pufaklar paydo bo'lishi; III daraja — teri va teri osti kletchatkalarining nekrozi (chirishi); IV daraja — tog'ay nekrozi (chirish).

Davolash: qulinq suprasini va tashqi eshituv yo'lining terisi termik kuyganda birinchi yordam umumiy xirurgiya-ning barcha qoidalariga asoslanadi. Og'riqsizlantiruvchi dorilar — pantopon yoki morfin buyuriladi. Terining jarohatlangan joyi 2% li kaliy permanganat eritmasi yoki taninning 5% li suvdagi eritmasi bilan yuvib tozalanadi. Pufakchalar yorilgandan keyin 10—40 % li kumush nitrat eritmasidan foydalaniadi. Agar nekroz bo'lsa, nekrozlangan to'qimalarni tozalash bilan birga antisептик surtmalar va kortikosteroidlar (gidrokortizon suspenziyasи va boshqalar) qo'llaniladi.

Kuyishning dastlabki kuniyoq atreziya yoki torayib qolishning oldini olish uchun tashqi eshituv yo'liga sintomitsin emulsiyasi shimdirligani dokadan tayyorlangan tampon qo'yiladi, keyinchalik esa tashqi eshituv yo'lining kengayib oraliq paydo bo'lishi uchun tashqi eshituv yo'liga rezinadan tayyorlangan naycha qo'yiladi.

Qulinq suprasini sovuq urganda birinchi yordam sifatida uni iliq (37°C li) suv bilan isitish so'ng spirt bilan artish kerak bo'ladi. Pufaklar paydo bo'lganda burishtiruvchi eritmalar va surtmalar qo'llaniladi. Bular pufakchalarni quritadi, yoki bo'lmasa aseptika qoidalariga qat'iy rioxaya qilgan holda pufaklar yoriladi va ichidagi suyuqliklarni chiqarib yuborib antibiotikli surtma qo'yilgan bog'lamlar qo'yiladi.

III va IV darajali termik kuygan bemorlar kasalxonalarda davolanadilar.


Kimyoviy moddalardan kuyganda ko'rsatiladigan yordam neytralizatsiyalovchi moddalar qo'llashdan iborat bo'ladi (kislota bilan kuyganda ishqor bilan neytralizatsiya qilinadi va boshqalar) keyingi davolash usuli esa termik kuyishni davolanishiga o'xshash.

Quloqdagi yet jism

Tashqi eshituv yo'lidagi yet jismlar xilma-xil bo'lishi mumkin: mayda hasharotlar, dukkaklilar urug'i, metall zarrachalar va shunga o'xshash mayda jismlar. Ko'pincha yet jismlar tashqi eshituv yo'lining tog'ay qismida yoki tog'ay qismining suyak bo'limiga o'tish joyida tiqilib qoladi. Bunday hollarda bemor qulog'ida biror narsa borligidan, yaxshi eshita olmayotganidan, ayniqsa yet jism eshituv yo'lining ichkarisiga kirib qolib, nog'ora pardaga biror narsa tegib turganidan, og'riqdan shikoyat qiladi. Ba'zan yo'tal, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Jonli yet jismlar o'zingin harakati bilan quloqda shang'illash, qitiqlash va og'riq chaqiradi.

Quloqdagi yet jismlar maxsus ilgak yordamida chiqariladi. Tashqi eshituv yo'lini orqa-yuqori devori bo'ylab Jane shpritsi yordamida yuvish yaxshi samara beradi (16-rasm).

Agar tashqi quloq yo'liga kirib qolgan o'simliklar urug'i shishib kattalashib, uni butunlay zich berkitib qo'yan bo'lsa yoki jonli yet jism (hasharot) kirib qolsa, u holda uni olishdan avval quloqqa bir necha tomchi toza spirt



16-rasm. Tashqi eshituv yo'llarini yuvish uchun asboblar yig'masi:

1 — sochiq; 2 — lotok; 3 — Jane shpritsi.


tomiziladi. Shunda hasharot havo olish uchun tashqariga intiladi yoki o'ladi. Shundan so'ng yuvib olish mumkin (17, 18-rasm).

Agar yot jism quloq pardani teshib, nog'ora bo'shilig'iga o'tib ketsa, uni jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi.


Quloq chirki

Quloq chirki — tashqi eshituv yo'lining tog'ay pardali qismida joylashgan bezlarning sekretor funksiyasini buzilishi natijasida hosil bo'ladigan konglomeratdir. Agar bu chirk quloqda ko'p turib qolsa, qattiqlashib va uning devorlariga yopishib qoladi. Bu holda odamning eshitish funksiyasi pasayadi, quloqda shovqin bo'lishi va autofoniya kuzatiladi. Ba'zan bemorlar to'satdan eshitish faoliyatini keskin pasayganidan, ayrim hollarda quloqda shovqin paydo bo'lishidan shikoyat qiladi.

Davosi: agar chirk qattiq va eshituv yo'li devorlariga yopishgan bo'lsa bemor qulog'iga ikki, uch kun davo-



17-rasm. Tashqi eshituv yo'lidan yot jismni olib tashlash sxemasi.



18-rasm. Quloqni yuvish.

a) umumiy ko'rinishi; b) to'g'ri yuvish sxemasi.

mida soda-glitserinli tomchi yoki «Otinum» preparati tomiziladi. Chirk yumshagandan so'ng tashqi quloq iliq suvda Jane shpritsi yordamida yuviladi. Buning uchun 100—150 ml iliq suv olinib, quloq suprasini orqaga va yuqoriga, bolalarda esa orqaga va pastga tortib turib, suyuqlik oqimini eshituv yo'lining orqa — yuqori devori bo'ylab bo'lib-bo'lib yuboriladi. Quloqning eshituv yo'lini tozalash va yuvishga quyidagi moneliklar mavjud. Bular tashqi va o'rta quloq yallig'lanishlari, nog'ora pardasining perforatsiyasi.

Bu muolajadan keyin eshituv yo'li artiladi va quruq paxta bilan yopiladi.

YALLIG'LANISH KASALLIKLARI

Quloq saramasi

Quloq saramasi — gemolitik streptokokk qo'zg'atadigan va quloq terisida o'tkir yallig'lanish o'zgarishlari bilan xarakterlanadigan yuqumli kasallik.

Bemor qulog'i shishib, qizarib ketadi, eti uvishadi, tana harorati ko'tariladi, quloq suprasi achishib og'riydi. Tekshirganda yaqqol chegaralangan shish va qizarish aniqlanadi. Bu kasallikni perixondritdan farqlash lozim.

Davosi: keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar buyuriladi. Terining yallig'langan joyi ultrabinafsha nurlar bilan nurlantiriladi, zararlangan teriga tarkibida antibiotiklar bo'lgan moylar dan malhamlar qo'yiladi.

Perixondrit

Perixondrit — tog'ayning biriktiruvchi to'qimali pardasining yallig'lanishi. Ko'p hollarda shikastlangan joyga ko'k yiring tayoqchalari yoki turli kokklar tushib yallig'lanishga olib keladi.

Quloq suprasi ko'zdan kechirilganda qizargan va shishgan, paypaslanganda qattiq og'riq bo'ladi. Faqat quloq yumshog'ida o'zgarishlar kuzatilmaydi. Tog'ay va tog'ay usti pardasi orasida yiringli ekssudat paydo bo'lishi tufayli flyuktuatsiya yuzaga keladi.

Davosi: perixondritning kataral shaklida isituvchi spirtli kompresslar, ozonoterapiya va hokazolar buyuriladi. Keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan antibiotiklardan eritromitsin, tetratsiklin, oletetrin qo'llaniladi.

Quloq suprasining shikastlangan joyiga 5% li yod nastoykasi, 1% li kumush nitrat eritmasi surtiladi. Yiringli shaklida — jarrohlik davo usullari qo'llaniladi.

Quloq ekzemasi

Ekzema quloq suprasining orqa tomonida kuzatiladi, ekzemaning quruq va nam turlari tafovut qilinadi. Patologik jarayon so'rg'ichsimon o'siqchaga o'tish chegarasida boshlanib, atrofga tarqala boshlaydi. Bu xastalik yuq-maydigan bo'lib, tugunchalar, tangachalar yiring hosil qiladi va qichima bilan o'tadi. Xastalik o'rta quloqdan yiring oqib, tashqi quloq yo'lini qichishi natijasida kelib chiqishi mumkin.

Davosi: yallig'langan joyni spirtni toza eritmasi yoki bura suyuqligini surtib, bog'lab qo'yiladi. Ultrabinafsha nurlari bilan nurlantiriladi. Gidrokortizon, oksikort moyli dorilarini surtish ham yaxshi natija bermoqda.

Ko'p hollarda ekzema surunkali shaklda kechadi.

Tashqi eshituv yo'li chipqoni

Tashqi eshituv yo'lidagi teri shilinib, soch xaltachasi va yog' bezlariga har xil mikroblar tushishi natijasida chipqon chiqishi mumkin. Ko'p hollarda qo'zg'atuvchi stafilokokklar hisoblanadi.

Tashqi eshituv yo'li chipqonida bemor qattiq og'riq-dan shikoyat qiladi, bu og'riq quloq suprasining oldingi

tomonidagi dumboqni bosilganda, quloq suprasini tortganda yoki pastki jag'ni harakatga keltirganda zo'rayadi. Quloq suprasining old va orqa tomonlarida shish kuzatiladi. Limfadenit rivojlanadi. Chipqon 4—5 kun davomida jadallab borib, yiring yig'adi.

Chipqon teshilgandan so'ng eshituv yo'liga o'z-o'zidan yoriladi, bunda og'riq yo'qoladi, bemorning umumiylah ahvoli yaxshilanadi. Kasallik o'rta hisobda 7—10 kun davom etadi.

Davosi: kasallik boshlangan kundan antibiotiklar buyuriladi. Tashqi eshituv yo'liga borot spirti, gipertonik yoki antibiotikli turunda qo'yiladi.

Yallig'lanish jarayonni kamaygandan va jarohat yiringdan tozalangandan keyin isituvchi kompresslar qo'llaniladi. Autogemoterapiya ham yaxshi natija beradi.

Otomikoz

Hozirgi vaqtida nozik muammolardan biri — bu tez-tez uchrab turadigan tashqi quloqning zamburug'li yallig'lanishi — otomikozlardir. Otomikozlar ayniqsa bolalarda ko'p uchraydi.

Bolalarda bu kasallik ko'payishi disbakteriozlar va organizmning turli tashqi muhit omillariga qarshi kurashish kuchlari susayishi sifatida kuzatilmoqda. Kattalarda va bolalarda bu kasallik immunitet pasayishi, garmonal buzilishlar, modda almashuvining buzilishi, allergiya va uzoq vaqt antibakterial, garmonal sitostatik va nurli davolanishlardan keyingi holatlarda kelib chiqmoqda. Kasallikning klinik manzarasi yallig'lanishga olib kelgan zamburug' turiga bog'liq.

Oqmalarning ko'rinishi qo'zg'atuvchiga bog'liq: kazeozi massa yig'ilib oq va xiraroq rangda bo'lsa — *Candida albicans*, qora bo'lsa — *Aspergillus niger*, sarg'ish bo'lsa — *Aspergillus flavus*, yashilroq — *Penicillium* zamburug'lari qo'zg'atuvchi bo'ladi.

Bemor eshituv yo'lidagi kuchli qichishish, og'riq, eshitish faoliyatini pasayganidan shikoyat qiladi. Uning umumiy ahvoli o'zgaradi, boshi og'rishi mumkin. Tashxis bemorni ko'zdan kechirish va tashqi eshituv yo'li ajralmalarini mikroskopik tekshirishga asoslanib qo'yiladi. Tekshirilganda eshituv yo'li devorlari keskin qizarganligi aniqlanadi.

Davosi: Bolalarda bu kasallikni davolash katta muammolar tug'diradi. Zamburug'larga qarshi antibiotiklar — triozol birikmalari (ketokonazol, flukanazol), 3% li borat spirtidan foydalaniladi. Tashqi eshituv yo'li terisiga nistatinli malham, Kastellyani suyuqligi, brilliant yashili surtiladi.

Ko'p hollarda tashqi va ichki quloq kasalliklarida ichaklarning mikrobiotsinozini tiklash orqali yaxshi natijaga erishiladi.

Lazer muolajasi ham yaxshi nitija beradi. Nur moslamasi quloq suprasidagi teshikka qo'yiladi. Lazer muolajasini 7—10 kun davomida 3—5 daqiqalik seanslarda o'tkazilsa aniq klinik natija ko'rindi.

Oxirgi yillarda quloq kasalliklarining yuqumli yallig'lanishini davolashda ozon ishlatilayapti. Tibbiyotda yallig'lanishga, bakteriotsid, viruslarga qarshi kurashishda ozondan foydalaniladi. Ozon muolajasi 6—10 marta 5 daqiqadan o'tkaziladi.

Tashqi otitlarni davolashda yorug'liq muolajasi yaxshi natija beradi.

O'RTA QULOQ KASALLIKLARI

O'tkir kataral otit

O'rta quloq yallig'lanishiga sabab bo'ladigan mikroflora kokklardan iborat (streptokakk, stafilokakk, pnevmokakk). Kasallik, eshituv nayi shilliq qavatining yallig'lanishi natijasida, eshituv nayining torayishi va berkilishiga olib keladi, chunki shilliq qavatdagi bezlarning

shira chiqarishi ko'payib, nog'ora bo'shlig'ida suyuqlik yig'iladi.

Bunda bemorning ahvoli aytarli o'zgarmaydi, qulqoqda og'riq sezilmaydi. U faqatgina qulq bitishidan, eshitish qobiliyati pasayganidan, ozgina shovqindan va o'z ovozini kasal qulqoqda ko'proq eshitishidan shikoyat qiladi.

Bemorning qulog'i tekshirilganda qulq parda ichkari tomon tortilgan bo'lib, uning rangi bir oz sarg'ish yoki ko'kimdir holatda bo'ladi. Ba'zan nog'ora bo'shlig'idagi suyuqlik sathini qulq pardadan ko'rish mumkin.

Agar kataral otitni o'z vaqtida davolanmasa yiringli otitga aylanishi mumkin.

Davolash: bemorga og'riqni qoldiruvchi, isitma tushuruvchi, shishga qarshi, antigistamin dori moddalar, keng qamrovli antibiotiklar, burun bo'shlig'iga tomirlarni toraytituvchi suyuqliklar tomizish buyuriladi. Fizioterapevtik muolajalar ham tavsiya etiladi. Jumladan, isituvchi kompress yaxshi natija heradi. Qulq sohasiga qo'yilgan kopress og'riqni qoldiruvchi va isituvchi ta'sir ko'rsatadi, uni yiringli yallig'lanish alomatlari yo'qligida qo'llash mumkin. Isituvchi kompress qo'yish texnikasi: 4 qavat qilib taxlangan doka va kompress uchun maxsus qog'oz olinib uni qaychi bilan qirqib qulq suprasi uchun teshik ochiladi. Bu qog'ozning o'lchami dokadan kattaroq bo'lishi kerak. Dokani teng nisbatda suv bilan aralash-tirilgan spirtda namlab, siqib olinadi va uni qulq sohasiga qo'yiladi, so'ng uning ustidan maxsus kompress qog'oz qo'yiladi. Ularning ustidan paxta bo'lagi yopilib bint bilan bog'lanadi. Kompress 6—8 soatdan so'ng olinib, teri quruq qilib artiladi va quruq bog'lam qo'yiladi.

O'tkir yiringli otit

Yiringli otit uch bosqichda o'tadi. Birinchi bosqichda o'rtal qulq yallig'lanib, ekssudat va infiltrat paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bemor qulog'idagi qattiq og'riqdan,

ishtahasi yo'qligidan, uyqusi buzilganidan shikoyat qiladi.

Qulog tekshirib ko'rilganda nog'ora parda qizarib, ekssudat tufayli bo'rtib chiqqan bo'ladi. Tana harorati 38—39°C gacha ko'tarilishi mumkin.

Ikkinch bosqich — nog'ora pardanining teshilishi va yiring oqishidan boshlanadi. Bu bosqichni perforativ bosqich deyiladi. Bunda qulogdan 5—7 kun yiring oqadi. Og'riq biroz kamayib bemorning ahvoli yaxshilanadi, tana harorati me'yorga tushadi, lekin eshitish pasayadi.

Uchinchi bosqich — sog'ayish bosqichi deyiladi, bunda yallig'lanish jarayoni to'xtaydi. Bemorga o'z vaqtida tegishli yordam ko'rsatilsa perforativ teshik berkiladi, qulogning eshitish funksiyasi tiklanadi.

Davolash: bemorning ahvoli og'ir bo'lsa uni statsionarga yotqizish kerak bo'ladi. Unga kuchli antibiotiklar yuborib, qulog'iga spirtga shimdirlilgan paxta yoki doka qo'yiladi. Bunda kamfora yog'i bilan kompress qilish yaxshi natija beradi.

Ba'zida o'tkir yiringli otitni birinchi bosqichi cho'zilib ketib, bemorning ahvoli og'irlashsa zudlik bilan maxsus asbob yordamida qulog pardani sun'iy yo'l bilan teshish zarur (paratsentez).

Bolalarda o'tkir otitlar

Bolalarda o'tkir virusli respirator infeksiyalardan so'ng, ko'pincha o'rta qulogning shamollashi natijasida o'tkir otit boshlanadi. Bunday hollarda bola qulog'iga isituvchi kompress qo'yish lozim, buning uchun kamfora spirtining suv bilan teng nisbatda aralashmasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilinganda og'riq kamayib, bola tinchlanadi.

Bolani iloji boricha zudlik bilan vrach — otorinolaringolog ko'rigidan o'tkazish lozim. Agar muolaja o'z vaqtida boshlanmasa, otit surunkali bo'lib qolishi mumkin.

Rivojlanayotgan kasallikka eshitish a'zosining o'zi qarshilik ko'rsatadi. Bolalarning eshitish a'zosidagi kanallari kattalarnikiga nisbatan qing'ir-qiyshiq bo'ladi. Bolalarda tashqi eshituv yo'li oxirida o'rta qulogni yopib turuvchi nog'ora pardasi joylashgan. Nog'ora bo'shliq germetik emas — eshitish yoki Yevstaxiyev nayi uni burun bo'shlig'i bilan birlashtiradi. Bolalarda burun bo'shlig'i va qulogni birlashtiruvchi Yevstaxiyev nayi keng va kalta bo'lgani sababli mikroblar burun bo'shlig'idan to'g'ri qulognning nog'ora bo'shlig'iga kelib tushadi. Boshlanish davrida kataral otit rivojlanadi, bunda qulog bo'shlig'ida eshitish qobiliyati pasayadi, og'irlashadi va to'lib qolgandek tuyuladi. Zudlik bilan oldini olinmasa kataral otit yiringlashga olib keladi. Nog'ora bo'shlig'i ustki devori kalla suyagi bilan chegaradosh bo'lib, u yerga infeksiyaning o'tishi juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun nog'ora bo'shlig'ini yiringdan tozalash lozim. Nog'ora pardadan (paratsentez) yiring chiqarib yuborilishi bilan og'riq to'xtaydi, isitma tushadi, bolaning umumiy ahvoli yaxshilanadi. Eng asosiysi og'ir asoratlarning oldi olinadi. Hosil qilingan teshikchaning o'rni tezda bitib, eshitish qobiliyati yaxshilanadi.

Ko'p yiring yig'ilishi natijasida qulogdan to'q sariq — jigar rang suyuqlik ajralib chiqqa boshlaydi. Bunday hollarda qulog bo'shlig'ini har kuni bir necha bor vodorod peroksidga ho'llangan paxta bilan tozalash lozim, aks holda suyuqlik tashqariga chiqqa olmay qotib qolishi natijasida teshik berkilib qolishi mumkin.

Yiring oqishining to'xtashi va og'riqning yo'qolishi bola to'la tuzaldi degani emas. Bunday infeksiyaning o'chog'i bir necha oylar davomida yo'qolmasdan va surunkali otit rivojlanishi mumkin. U bilan doimiy ravishda kurashish lozim.

Profilaktikasi. Umumiy chiniqtirish. Odatda bolani ko'chaga aylantirgani olib ketayotganda uning boshiga issiq qalpoqcha kiygiziladi. Bunday qilish shart emas. Chunki

qulog tashqaridan emas, ichidan yallig'lanadi. Buning uchun respirator infeksiyalar, angina kasalliklarini vaqtida davolash kerak.

Emizikli bolalarda kasallik tez-tez qusish bilan kechadi: oshqozondan chiqayotgan ovqat bo'laklari eshituv nay orqali o'rta quloqqa tushadi va uning yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Bunga bolaning noto'g'ri holatda yotishi sabab bo'ladi. Bolaning qulog'idan o'pish ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunda bolaning quloq pardasi nozik bo'lib, yirtilishi mumkin. Go'daklar hamda o'rta yoshdag'i bolalarda o'rta quloq yallig'lanishiga infeksiyani buruntomoq orqali tarqalishi sabab bo'ladi. Shamollagan bolani har xil holatda yotqizish kerak. Agarda bolani uzoq vaqt bir holatda yotqizilsa, ekssudat o'rta quloqqa tarqalishi ehtimoli ortadi. Bolaga burnini to'g'ri qoqishni o'rgatish lozim.

Burundan oqayotgan suyuqlikni ichiga tortish xavfli hisoblanadi. Bunda infeksiyali suyuqlik osonlik bilan o'rta quloqqa boradi.

Bolalarda nafas olish ko'pincha buziladi, bunga sabab adenoidlar o'sib ketishidir. Bundan tashqari adenoidlar o'sib, ular eshitish naylarini yopib qo'yadi va qon aylanishini buzadi, bu o'rta quloqda yallig'lanish jarayoniga sabab bo'ladi.

Mastoidit

Mastoidit — so'rg'ichsimon o'simtaning suyak elementlarini parchalaydigan o'rta quloqning o'tkir yiringli yallig'lanishidir. Ko'p hollarda bu kasallik o'tkir yiringli otit asoratlaridan biri deb hisoblanadi. Aynan so'rg'ichsimon o'simtaning suyak to'qimasi destruksiyasi tufayli mastoidit o'tkir o'rta otitdan farqlanadi (19-rasm).

Mastoidit paydo bo'lishiga sabab — nog'ora bo'shlig'ida yiring to'planishidir. Yiring uzoq vaqt bo'shliqda qolib ketgani sababli so'rg'ichsimon o'siqchadagi kataklarni bir-



19-rasm. Mastoidit, suyak ustki pardasi ostidagi abscess.

biridan ajratib turuvchi suyak to'siqchalari yemiriladi, natijada yaxlit bo'shliq hosil bo'lib, bu bo'shliq yiring bilan to'lgan bo'ladi.

O'tkir o'rta otit kechishida quloq orti sohasida og'riq kuchayadi. Og'riq so'rg'ichsimon o'simtani, uning cho'qqisini bosib ko'rildganda kuchayadi.

Bunda eshitish pasayib, quloq shang'illaydi, undan yiring oqadi. Yiring ko'p, quyuq va sarg'imtir bo'ladi. Tana

harorati 38—39 °C gacha ko'tariladi.

Quloq suprasinig orqa tomonida, ya'ni so'rg'ichsimon o'siqcha sohasida shish, teri qizarib, qalnlashganligi ko'rindi. Paypaslaganda og'riq zo'rayadi.

Tashqi eshituv yo'lining suyak bo'limidagi orqa-yuqori devorining osilib qolishi mastoiditning patogenetik belgisi hisoblanadi.

Tashxisni tasdiqlash uchun quloqni rentgenografiya qilib ko'rildi, bunda so'rg'ichsimon o'simta katakcharining qoraygani, ayrim suyak devorlarining yemirilgani ko'rindi.

Davosi: xirurgik. Mastoidotomiya qilinadi: so'rg'ichsimon o'siqning tashqi yuzasidagi tekis uchburchak shaklidagi bo'lakchadan maxsus asbob yordamida katta g'or ochiladi, chirigan va patologik o'zgargan to'qimalar va suyaklar qirib olib tashlanadi. Turli antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar beriladi.

Surunkali yiringli otitlar

Klinik jihatdan surunkali o'rta otitning 2 asosiy turi: mezotimpanit va epitimpanit uchraydi. Surunkali yiringli

otit — bu o'rta qulinqning o'tkir yiringli jarayonining davomidir. Kasallik yillab cho'zilishi mumkin.

Mezotimpanit — o'rta qulinqning surunkali yiringli yallig'lanish kasalligi bo'lib, bunda nog'ora pardaning q'rta va pastki bo'limining shilliq pardasi zararlanadi.

Bemor qulog'idan vaqtı-vaqtı bilan yiring oqayotgandan, eshituv qobiliyati pasayganidan, qulog'i shang'ilashidan shikoyat qiladi.

Tekshirib ko'rilmaga nog'ora parda turli kattalikda teshilgan bo'lsa-da, lekin suyaklarga borib taqalmagan bo'ladi. Perforatsiya orqali ko'rilmaga shilliq parda qizarib, qalinlashgan va u yiring ajralmasi qatlami bilan qoplangan bo'ladi. Ajralma juda ko'p miqdorda, quyuq yopishqoq va cho'ziluvchan, hidsiz bo'ladi.


Bu kasallik yillab cho'zilishi mumkin. Gohida qulogdan yiring oqishi o'z-o'zidan to'xtaydi, kasallik qaytalan-ganda yana paydo bo'ladi.

Davosi: o'rta va tashqi qulodda yiring turib qolishining oldini olishdan va dezinfeksiyalovchi hamda burushtiruvchi moddalar bilan nog'ora bo'shlig'ini har kuni yuvib turishdan iborat. Antibiotikli eritmalar bilan yuvishdan avval, mikroflorani antibiotiklarga sezgirligini aniqlash lozim. Jarrohlik yo'li bilan granulyatsiyalar, poliplar olib tashlanadi.

Epitimpanit — o'rta qulinqning shilliq pardasi bilan birga suyak devorlarini ham zararlanishi.


Bemor odatda yomon eshitishdan, qulog'idan badbo'y hid kelayotganidan, ba'zan qon aralash yiring ajralishidan, qulog'ini artganda boshi aylanishidan, boshining chakka sohasidagi og'riqdan shikoyat qiladi. Eshitish qobiliyati susayadi.

Otoskopiyada: yiring yashilsimon sariq rangda, badbuy hidli, quyuq bo'ladi. Perforativ teshik nog'ora pardaning taranglashmagan qismida bo'lib, uning chekkasi suyak aylanasi qirg'og'igacha yetadi (20-rasm).



20-rasm. Nog'ora pardasining mezotimpanitda (*a*) va epitympanitdagi (*b*) perforatsiya turlari.

Davosi: jarrohlik yo'li bilan yiringli o'choq sanatsiya qilinadi. Mezotimpanitda qo'llanilgan konservativ davo chora-tadbirlari ham yaxshi natija beradi (21-rasm).



21-rasm. Nog'ora bo'shlig'i ustini (attikni) konyula yordamida yuvish.

Otogen miya ichi asoratlari

Otogen meningit, miyaning otogen abscessi, otogen sepsis, o'tkir va surunkali yiringli quloq otiti zo'rayishining asoratlari natijasida yuzaga keladi.

Streptokokk, stafilokokk, ko'k yiringli tayoqcha va boshqa mikroblar kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Organizmning himoya kuchlarining ahvoli miya ichi otogen asoratlarining paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Otogen meningit. U yiringli meningoensefalit ko'rinishida kechadi. Kasallik shiddat bilan boshlanadi. Bemorni kuchli bosh og'rig'i bezovta qiladi. Harorat uzoq vaqt yuqori ($39-40^{\circ}\text{C}$) bo'ladi. Yosh bolalarda ko'ngil aynish, qayt qilish, bosh og'rig'i kuzatiladi. Meningeal simptomlar: ensa mushaklarining tarangligining oshishi, Brudzinskiy simptomlari, Kernig belgisi paydo bo'ladi. Orqa miyani punksiya qilinganda orqa miya suyuqligi loyqa holatda yuqori bosim bilan qtilib chiqadi.

O'z vaqtida davo choralarini boshlansa umumiy miya simptomlari pasayib, bemor sog'aya boshlaydi.

Bunda o'rta va ichki quloqdagi yiring jarrohlik yo'lli bilan tezda olib tashlanadi va katta miqdorda antibiotiklar, sulfanilamidlar berib turiladi. Shuningdek, degidratatsion, dezintoksikatsion terapiya hemorning ahvoli tezroq yaxshilanishiga yordam beradi.

Miyaning otogen abscessi. Bu o'rta va ichki quloqning yallig'lanish jarayonida uchraydigan eng og'ir asoratdir.

Klinik ko'rinishiga ko'ra, uch guruh simptomlarni o'z ichiga oladi: yuqumli kasalliklarning umumiy miya simptomlari va absessning joylashgan joyiga bog'liq bo'lgan miya jarohatining belgilari. Absess sekin-asta shakllanadi. Miya absessining kechishi to'rtta bosqichga bo'linadi: I boshlang'ich, II yashirin, III ro'yirost (yaqqol), IV terminal.

I. Boshlang'ich davr — 1—2 hafta davom etib, bunda bosh og'rig'i, darmonsizlik, ko'p uqlash, ko'ngil aynishi, qayt qilish, haroratning biroz ko'tarilishi, kayfiyatning buzilishi kuzatiladi.

II. Yashirin davr — 3 hafta davom etib, bemorlarda hech qanday belgilar kuzatilmaydi, faqat bemorning rangi biroz oqarib, o'zini lanj his qiladi, ishtahasi yo'qoladi.

III. Ro'yirost (yaqqol) davrda bemorning umumiy ahvoli og'irlashib, terisi sarg'ayib, yer rangida bo'ladi, og'zi quriydi, ichi qotadi, ko'ngli ayniydi, boshi qattiq og'riydi. Ko'z tubi qon tomirlari o'zgarib, bosh miya bosimi oshishi, adashgan nervning siqilib qolishi kuzatiladi. Bemor muvozanatni yo'qotadi, ko'z soqqasining tebranishi — nistagm kuzatiladi.

IV. Terminal davr to'satdan tana haroratining ko'tarilishi ($40-41^{\circ}\text{C}$), nafas olishning buzilishi bilan boshlanadi. Vaqtni boy bermasdan davo qilinmasa bir necha daqiqa dan so'ng bemor o'ladi.

Davolash: bemor hayotini saqlab qolish uchun zudlik bilan kechiktirmasdan jarrohlik yo'li bilan o'rta va orqa miya qattiq pardasi ochiladi va undagi o'zgarishlar aniqlanadi. Yiring chiqarilib va ingichka rezina drenaj qo'yiladi. Bemorga antibiotiklar, sulfanilamidlar va vitaminlar berilib, dezintoksikatsion va degidratatsion davo o'tkaziladi.

Otogen sepsis. Otogen sepsis kallaning sigmasimon sinus devorining yallig'lanishi bilan kechadigan o'rta quloqdagi yiringli jarayon asoratidir.

Sigmatimon sinus devori yallig'lanishi natijasida devor ichki endotelial qatlaming zararlanishi obliteratsiya-lovchi tromb hosil bo'llishiga olib keladi, u esa sigmasimon sinusini to'ldiribgina qolmasdan, balki bo'yinturuq venasiga ham tarqaladi. Trombning yiringlashi mikroblar va toksinlarning venoz qon oqimiga tushishiga sabab bo'ladi, bunda sepsisning klinik manzarasi namoyon bo'ladi.

Agar mastoidit yoki surunkali yiringli timpanitda bemorning 15—45 minut davomida eti uvishib, harorati bir ko'tarilib bir tushsa (gektik harorat) va ko'p terlasa bu otogen sepsis alomati bo'lishi mumkin.

Bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi va qayt qilish kabi umumiy miya simptomlari orqa miya suyuqligi oqishining qiyinlashuvi natijasida kelib chiqadigan kalla suyagi ichi bosimining oshishi bilan bog'liq bo'ladi.

Sepsis boshqa a'zo va sistemalarga yangi yiringli o'choqlar, ya'ni metastazlar berishi mumkin — bu septiko-piyemiya deyiladi. O'choqlar o'pkada, mushaklarda, bo'g'inxorda uchrashi mumkin.

Davosi: ta'sir doirasi keng bo'lgan antibiotiklar yoki penitsillin har soatda sutkasiga 3000000 birlikda mushak orasiga yuboriladi, sulfanilamidlar ichishga buyuriladi.

1. Patogenetik davo sifatida degidratatsion va dezintoksi-katsion preparatlar buyuriladi:

- 300 ml izotonik eritmadi 30—60 g mannitol sutkada 1 marta vena ichiga yuboriladi,
- 2—4 ml laziks v/i;
- 10 ml magniy sulfatning 25% li eritmasi v/i yoki mushak ichiga;
- urotropinni 4% li eritmasi v/i;
- glyukozani 20—40% li eritmasi 20ml v/i;
- gemodez 250—400 ml v\i.

2. Simptomatik davo sifatida yurak glikozidlari, analgetiklar va analeptiklar buyuriladi.

ICHKI QULOQ KASALLIKLARI

Labirintit

Labirintit — ichki quloqning o'tkir yoki surunkali yallig'lanishi bo'lib, u chegaralangan bo'lishi mumkin va vestibulyar hamda eshituv analizatori retseptorlarining u yoki bu darajada ko'rinishidagi jarohatlanishi bilan birga kelishi mumkin.

Ichki qulinqning o'rtal qulog tomonida yallig'lanishi ko'p uchraydi. Ichki qulinqning yallig'lanishi umumiy, mahalliy, ya'ni chegaralangan, cheklangan bo'lishi mumkin. Ichki qulog bo'shlig'iga infeksiya ko'pincha labirintning suyak kapsulasini osteomiyelitik jarayondan yemirilishi (xolesteatoma, kariyes) natijasida tushadi.

Ichki qulinqning yoyilgan yallig'lanishi 2 turda bo'ladi: serozli va yiringli. Bunda ichki qulinqning parda qismi ham jarohatlanib, butun nerv tolalari (muvozanatni saqllovchi va eshituv) o'ladi.

O'rta qulinqning o'tkir yiringli yallig'lanishida eshitish qobiliyatining buzilishi bilan bir qatorda, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va quisish kuzatiladi. Ko'z soqqalari kasal qulog tomonga qarab harakat qiladi. Bunda ichki qulodqa bosim oshadi. Bemor ko'pincha sog' qulog tononi bilan, ko'zini yumib yotadi. Bemor ko'z oldida turli narsalar aylanayotgan bo'lib, ko'pincha bu sog' qulog tomonga yo'nalgan bo'ladi. Tana ham ko'proq sog' tomonga og'a boshlaydi. Eshitish qobiliyati pasayib, yoki to'la karlik yuzaga chiqadi.

Davosi: ta'sir doirasi keng bo'lgan antibiotiklar buyuriladi. 6—8 kun konservativ davolanadi. O'tkir labirintit xurujining pasayishi bilan, o'rta qulodqa sog' lomlashtiruvchi radikal operatsiyalar qilinadi. Bunda labirint yoki nog'ora bo'shlig'inining so'rg'ichsimon devoridagi patologik jarayonlarni bartaraf qilinadi.

Koxlear nevrit (neyrosensor chala karlik)

Koxlear nevrit — eshituv analizatorining periferik va markaziy bo'limlarining zararlanishi.

Neyrosensor chala karlik shunday kasallikka kiradiki, unga tashxis qo'yish va davolash usullari bir necha 10 yillardan beri o'rganilmoqda. Eshitish a'zolarini zararlanishi hozirgi sharoitda zaharli omillar ta'sirida kelib chiqib, bu o'z navbatida chala karlikka va yaxshi

eshitmaslikka olib kelmoqda. Quloqning neyrosensor yaxshi eshitmasligi bir necha klinik tekshiruvlar va izlanishlar natijasida quyidagi kasalliklarda asosiy belgilardan biri sifatida kuzatilishi aniqlandi:

— yuqumli kasalliklar (gripp, O'RFI, yuqumli parotit, sifilis);

— tomirlardagi o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan kasalliklar (gipertoniya va gipotonika kasalliklari, vertebrobazilyar dissirkulyatsiya, serebral ateroskleroz);

— kimyoviy sanoatning zararli ta'siri va ba'zi dori moddalari (antibiotiklar, aminoglikozidlar, salitsilatlar va bezgakka qarshi dorilar) ta'sirida kelib chiqadi. Nevritning yuzaga kelishiga asosan infeksion kasalliklar (gripp, meningit, parotit), dorilar ta'siri (antibiotiklar, diuretiklar, salitsilatlar tarkibida og'ir metallar bo'lgan), kalala-miya shikastlanishi, quloqning mexanik shikasti, barotrauma sabab bo'lishi mumkin.

Bemor qulodagi shovqindan, eshitish qobiliyati pasayganidan, vaqt-vaqt bilan boshi aylanishidan, muvozanati buzilganidan shikoyat qiladi.

Diagnostikasi. Hozirgi vaqtida eshitish a'zolarini tekshirishda ko'p rejali tekshiruvlar o'tkazilmoqda. Bu tekshiruvga eshitish a'zolarini o'tkazuvchi va eshitishni qabul qiluvchi yo'llar faoliyatini vestibulyar analizatorini o'rGANISH kiradi. Ya'ni qonning ivuvchanligini, yuraktomir va jigar faoliyatini o'rGANISH natijasida aniqlanadi.

Profilaktikada eshituv a'zolari funksiyasini aniqlashda audiometrik va audiologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak bo'ladi. Shu bilan birga kamertonal sinamalar o'tkazish, tonal audiogramma yozish ham kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtida qulogning yaxshi eshitmaslik diagnostikasini aniqlaydigan usullar va ob'ektiv tekshiruvlar bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Quloqning neyrosensor chala eshitmasligini tekshirish rejasiga impendansometriya usuli kiradi. Bu usul bilan eshituv suyakchalari zanjirini buzilishini, nog'ora bo'shlig'ida

ekssudat yig'ilishini, eshituv yo'llari funksiyasining buzilishi aniqlanadi.

Davolash: mikrotsirkulyatsiyani yaxshilaydigan vositalar (trental, kavinton), antixolinesteraza preparatlari, antigistamin vositalar, biogen stimulyatorlar, kokarboksilaza, ATF, A, B, va E guruhiga mansub vitaminlar bilan davolash kerak. Bundan tashqari, ionoforez, prozrinli ultra-fonoforez, igna sanchib refleksoterapiya va giperbarik oksigenatsiya o'tkaziladi. Davo naf bermagan taqdirda qulojni eshituv apparatlari bilan protezlagan ma'qul.

Davolash asosan klinik laboratoriya tekshiruvlari, individual tekshiruvlar asosida o'tkaziladi. Kasalni davolash har bir kasallik kelib chiqishida, uning patogenezi vaqtida o'sha bemorda allergiya bor-yo'qligini aniqlashdan iborat.

Menyer kasalligi

Kasallik fransuz shifokori nomi bilan atalib, labirintdagi endolimfa bosimining ortishi bilan bog'liq bo'lgan quloqning shang'illashi, eshituvning yomonlashuvi, bosh aylanishi, muvozanatni buzilishi, ko'ngil aynishi va qayt qilish bilan xarakterlanadi. Kasallik 30—60 yoshdagi odamlarda, ko'proq ayollarda kuzatiladi. Bu kasallik xurujining vaqtı-vaqtı bilan yuzaga chiqishi, remissiya davrida bemor ahvolining yaxshi bo'lishi tashxis qo'yilishida yordam beradi. Xuruj vaqtidagi quşish yengillik olib kelmaydi. Xurujlar haftada bir marta, oyda, yilda bir marta yoki kunda va bir kunda bir necha marta qaytarilishi mumkin.

Kasallik ko'pincha quloqda shovqin bo'lishi bilan boshlanib, biroz vaqtdan so'ng bunga vegetativ buzilishlar bilan birga sistemali bosh aylanish xurujlari qo'shiladi. Xuruj vaqtida bemor majburiy holatda bo'ladi: boshi yon tomoniga egilgan, ko'zi yumilgan, sog'lom quloq tomoniga yo'nalgan nistagm kuzatiladi.

Davolash: xuruj vaqtida simptomatik davo qo'llaniladi. Ya'ni ko'ngil aynishiga, quşishga, bosh aylanishiga qarshi

sedativ vositalar buyuriladi. Xuruj tutgan paytda bemorni yorug' va tinch xonaga yotqizib, oyoqlariga grelka qo'yish kerak va vena ichiga 2 ml 4% li glukoza eritmasi, teri ostiga 1ml 0,1% li atropin yuboriladi. Xurujlар orasida retsidivlarni oldini olish uchun tuzsiz parxez, suyuqlik iste'mol qilishni cheklash tavsiya etiladi. Betaserk, stugeron, A va E vitaminlari, arterial qon bosimini idora etuvchi dori moddalar buyuriladi. Alkogol iste'mol qilish, chekish, aqliy va jismoniy zo'riqish man etiladi.

Og'ir hollarda, xurujlар tez-tez kuzatilganda operativ davo choralarini qo'llash mumkin. Keyinchalik vitaminlar (B, PP, A, E,), 5%li natriy gidrokarbonat eritmasidan 50 ml vena ichiga 15 kun mobaynida yuboriladi.

Otoskleroz


Otoskleroz — bu keng tarqalgan suyakli labirint kasalligi. Uning oqibatida tez avj oluvchi karlik yuzaga kelishi mumkin.

Bu ichki quloq kapsulasining birlamchi distrofik kasalligi bo'lib, eshitish qobiliyatining tobora pasayib borishi bilan xarakterlanadi.

Kasallik boshlanishida, ichki quloqning suyak qismida o'zgarish kuzatiladi, ya'ni qattiq suyakning ba'zi joylari qalin spongioz to'qimaga aylanadi. Bunday holat ko'proq yassi darcha sohasida, so'ngra chig'anoq ichida va ichki eshituv yo'li atrosida qayd etiladi.

Quloq tekshirilganda nog'ora parda o'zgarmagan bo'lib, eshituv nayining o'tkazuvchanligi yaxshi bo'ladi. Kasallik rivojlanib chig'anoqda ham o'zgarish yuz beradi, bunda tovush qabul qiluvchi bo'lim ham buziladi.

Otosklerozning diagnostikasida eshitish faoliyatini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Kamerton va audometriya yordamida tovushning suyak orqali o'tishining yomonlashgani aniqlanadi.



22-rasm. Porshenli stapedoplastika sxemasi.

1 — uzangini to'liq olib tashlagandan keyin hosil bo'lgan oval shaklidagi darcha cheti; 2 — protez atrosida joylashgan aylana boylamasimon venoz transplantati; 3 — protezning ovalsimon darcha cheti sathida joylashgan uchi.

Davolash: asosan xirurgik yo'l bilan amalga oshiriladi. Ko'pincha stapedoplastika o'tkaziladi, bu uzangini protez bilan almashtirishdan va shu tariqa eshitish suyakchalarini zanjirining harakatchanligini tiklashdan iborat bo'lgan operatsiya (22-rasm).

Quloq o'smalari

Tashqi quloq sohasida xavfsiz (papiloma, gemangio-ma) va xavfli o'smalar (rak, sarkoma) uchraydi. Shu sohada yaralar paydo bo'lganda bemorni tekshiruvlardan (sitologik va gistologik) o'tkazib, doimiy nazorat ostiga olish kerak. Xavfli o'smalarning ilk davrlarida xirurgik davo — eng samarali usul hisoblanadi. Agar tashqi quloq terisida qonaydigan hidli granulyatsiyalar aniqlansa va bemor shunda og'riq sezmasa, o'sma kasalliklari mavjudligidan darak beradi. Limfatik bezlarda metastazlar paydo bo'lishi buning tasdig'i hisoblanadi.

O'rta quloqning o'smalidan glomusli o'sma (xemodektoma) uchraydi. U ko'pincha timpanal glomusdan kelib

chiqadi. Xemodektomada bemorni eshitish qobiliyati susayib, qulogda pulsatsiya sezish kuzatiladi. Timpanogrammada nog'ora pardanining qalinchashganligini, qimirlashi chegaralganligi, o'rta qulog ventilyatsiyasining buzilganligi aniqlanadi. O'sma kattalashganda o'rta qulogning suyakli tizimlarini buzib, miya nervlarining V, VII, VIII juftlari ni ham patologik jarayonga jalb etishi mumkin, og'ir hol-larda IX, X, XI justlar faoliyati ham buziladi, o'sma tez-tez qonab turadi.

Davolashning ilk bosqichlarida o'smani radikal olib tashlash operatsiyasi qo'llaniladi. Kechki og'ir bosqichla-rida xirurgik davo qo'llanilmaydi.

SURDOIOGIYA VA ESHITISHNI PROTEZLASH

Surdologiya — audioligiyaning bir bo'limi bo'lib, karlikka olib keluvchi yoki sabab bo'luvchi bir qator patologik holatlarni davolash va ularning oldini olish chora-tadbirlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi paytda qulog og'irligi deganda eshitishning shunday pasayishi tushuniladiki, bunda kuchli ovozni ham eshitish qiyinlashadi, bunda odam hatto yonida gapirilsa ham eshitmaydi.

Bu ikkala holatni kar-soqovlikdan farqlash kerak. Kar-soqovlik tug'ma (eshituv analizatorining rivojlanmasligi tufayli) yoki orttirilgan bo'lib, odatda, bolalikda boshidan o'tkazilgan o'tkir yallig'lanish kasalligi yoki yuqumli kasalliklar oqibatida paydo bo'ladi. Kar-soqov bolada nutq rivojlanmagan bo'ladi.


Ko'pincha quyidagi sabablar qulog og'irligiga olib keladi: 1. Markaziy nerv sistemasi kasalliklari; 2. O'tkir yuqumli kasalliklar; 3. Mahalliy yiringli jarayonlar va o'rta qulogning shamollashi hamda uning rinit bilan birga kelishi, burun shilliq qavatidagi distrofik jarayonlar, ade-noidlar va yuqori nafas yo'llarining boshqa patologik holatlari bilan qo'shilib kelishi; 4. Ichki qulogdagi distrofik

o'zgarishlarga zo'rayib boruvchi nevritiga aloqador qulog og'irligi, otoskleroz, Men'er kasalligi va boshqalar kiradi. Bular patologik jarayonlari bilan bir-biridan farqlanadi; 5. Travmalar: mexanik (ishlab chiqarish, maishiy, sport travmalari va h.k.), shovqindan, vibratsion, ruhiy, kimyoiy-toksiq nurlanishlar, akustik, barotravma, medikamentlar, tug'ish, yuqumli kasalliklar tufayli yuzaga kelgan shikastlanishlar. Gapirish qobiliyati bo'lgan odam-dagi qulog'i og'irlik va karlik oqibatida nutq asta-sekin monoton, noritmik va boshqa ko'rinishlarda o'zgarib boradi. Bordi-yu, kasallanish bolalikda rivojlansa, ayniqsa, bola gapirishni o'rganmagan paytda yoki hali yaxshi gapira olmaydigan bo'lsa, u holda bunday bolada soqovlik paydo bo'la boshlaydi. Bunday bolalar maxsus kar-soqovlar mактабида o'qитилиб, ular gapni harakatlar orqali tushunadilar va gapiradigan bo'ladilar.

Qulog'i og'irlik va karlikka olib keladigan kasalliklarning diagnostikasi tegishli bo'limlarda keltirilgan. Eshituv analizatori funksiyasini aniqlash topik diagnostikaga asoslanadi. Topik diagnostikadagi asosiy masala tovush o'tkazish sistemasi zararlanishini tovushni qabul qilish sistemasi zararlanishidan ajrata bilishdan iborat.

Eshitish buzilishining oldini olish surdologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. U faqat burun va uning atrofida joylashgan suyak kovaklari, o'rta qulogdagi o'tkir yallig'lanish jarayonlari, bolalarning yuqumli kasalliklari va boshqalarni oldini olibgina qolmasdan, aholini kasbi bilan maishiy sharoitlarini sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Bu jihatdan qulog'i og'irroq bolalar va o'smirlarni dispanserizatsiyadan o'tkazishga katta ahamiyat beriladi.

Eshitishni protezlash deganda qulog'i og'ir bemorlariga tovushni kuchaytirib beruvchi eshituv apparati tanlab berish tushuniladi. Agar qulogni eshitishni o'tkazuvchi qismi buzilgan bo'lsa, eshitish apparatining suyak orqali kuchaytiruvchi turidan foydalanish lozim (23-rasm).



23-rasm. Eshitish apparatlarining turlari.

a) quloq orti turi; b) eshituv yo'liga solinadigan turi.

Quloq og'irligini davolashda dori-darmonlar va fizioterapevtik davolash usullaridan foydalaniladi. «Eshitishni protezlash» degan tushunchani ifodalovechi kompleks tadbirlar kishi diqqatini alohida o'ziga jalb qiladi, bunda konservativ va xirurgik yo'l bilan davolash natija bermagan bemorlarga tovushni kuchaytirib beruvchi apparat tanlab beriladi. Tovushni o'tkazuvchi apparat sistemasi zararlangan bemorlar uchun apparat yordamida eshitish ko'proq foydalidir. Apparatdan foydalanishga quyidagilar ko'rsatma hisoblanadi:

1) mavjud davo usullari bilan bartaraf etib bo'lmaydigan quloq og'isligi;

2) so'zlashuv zonasida tovushni qabul qilish chastotasini 40 db dan kamayishida, ammo kamayish 80 db dan oshmaganda (1 m dan kam masofada so'zlashuv nutqini qabul qilishda).

Ichki quloqda avj olayotgan patologik jarayonga eshituv apparatidan foydalanish zarar qilmaydi va apparat eshitishni yaxshilab bemorga o'z nutqini to'g'rlash imkonini beradi. Eshitish apparatlari bolalarda ham ularning o'z nutqini yaxshilash imkonini beradi.

Eshituv apparati ishlatila boshlaganidan 2 haftadan keyingina uning foydasiga baho berish mumkin. Bu davr ichida bemor apparatdan chiqadigan tovushlarga o'rjanib boradi. Bir tomonlama karlikda bemorlarga eshituv apparatidan foydalanish shart emas.

Bordi-yu, bemor eshituv apparatidan foydalana olmasa, unda uni gapni labdan yoki yuzdan uqishga o'rgatish kerak.

Masalalar

№ 1. Bemor qulog'idagi kuchli qichishish, bitib qolish va shovqindan shikoyat qilmoqda. Ko'zdan kechirilganda tashqi eshituv yo'lida quyuq seroz ajralma, butun eshituv yo'l bo'ylab tarqaqlgan sarg'imtir - oq qatqaloqlar aniqlandi.

1. Sizning dastlabki tashxisingiz?
2. Aniqlash uchun nima qilish kerak?

№ 2. Bemor eshituv qobiliyati pasaygani, qulogdagi shovqin, bosh aylanishi, bosh og'rig'idan shikoyat qilib shifokorga murojaat qildi. Otoskopiyada eshituv yo'li devoriga yopishgan sera ajralmalari aniqlandi.

1. Quyidagi holatda siz qanday yo'l tutasiz?

№ 3. Bemor eshituv qobiliyati pasaygani, qulog'ida shovqin borligi va seroz ajralma chiqayotganidan shikoyat qilib shifokorga murojaat qildi. Uning gapidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, u bir necha kun avval dala hovlida dam olgan va shundan keyin bu belgilarni boshlangan.

Ko'zdan kechirilganda tashqi eshituv yo'lida seroz ajralma bo'lib u qizargani va shishgani aniqlandi. Otoskopiyada tashqi eshituv yo'lida qora rangli yot jism ko'rindi.

1. Sizning dastlabki tashxisingiz?
2. Davolash uchun nima qilish kerak?

№ 4. Bemor qulog'idagi doimiy shovqindan va eshitishining pasayganidan shifokorga shikoyat qildi. Ko'zdan kechirilganda bemor ozib ketgan, behol, ko'zlarini kirtaygan, teri qatlamlari oqorgan. Kasallik tarixiga ko'ra ikki yil avval sil bilan og'rigan va uzoq vaqt davomida antibiotiklar bilan davolangan (streptomitsin, PASK).

1. Sizning dastlabki tashxisingiz?
2. Davolash uchun nima qilish kerak?

№ 5. Bemorning qulog suprasi terisi butunlay qip-qizarib shishgan.

Kasallik et uvishishi, tana haroratining ko'tarilishi bilan kechmoqda. Bemor quloq sohasida lovvullab achishish sezmoqda, teri shishishi va qizarishining quloq tashqarisiga hamda so'rg'ichsimon o'siqqa tarqalishi kuzatilmoxda.

1. Tashxis qo'ying.
2. Sizning chora-tadbiringiz.

№ 6. Bemor qulog'i bitishidan va undagi og'riqdan, eshitishning pasayganidan, qulogdagi shovqindan shikoyat qilmoqda. Otoskopiyyada nog'ora pardasining shilliq pardasi ostiga qon quyilgani, nog'ora bo'shlig'ida qonli serozli ekssudat to'planganligi kuzatiladi.

1. Tashxis qo'ying.
2. Sizning chora-tadbiringiz.

№ 7. Shifokorga 19 yoshlardagi qiz bola murojaat qilib, qulog'i qattiq og'riganidan hamda og'riq ko'z, bo'yinga va tishlarga berilayotganidan shikoyat qiladi. Og'riq gapirganda va ovqat chaynaganda kuchayar ekan. Paypaslaganda: limfa tugunlari kattalashgan, og'riqli va qattiq. Supracha bosilganda — kuchli og'riq seziladi. Otoskopiyyada qizargan terining yumaloq bo'lib ko'tarilganligi, eshitish yo'lining torayganligi ko'rindi.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Davolash yo'l-yo'riqlari.

№ 8. Shifokorga erkak kishi murojaat qilib, qulog'i qattiq qichishayotganligini, u go'yoki to'lib, tiqilib qolganday bo'lib, qulogda og'riq va shang'illash borligini aytdi. Boshi ham og'rib turgan ekan. Qulog'idan ivigan qog'ozni eslatuvchi potologik ajralma chiqmoqda.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Davolash yo'l-yo'riqlari.

№ 9. Poliklinikaga 45 yoshlardagi ayol kishi kelib, qulog suprasining qizarib, shishib ketganligidan shikoyat qildi. Tana harorati 39°C. qulog atrofida qizish seziladi. Ko'rib chiqilganda: qizarish va shish atrosga ham yoyilib ketayotganligi aniqlanadi.

Qon tahlili: leykotsitoz va EChT oshgan.

1. Tashxis?
2. Davolash?

№ 10. 33 yoshlardagi ayol shifokorga murojaat qilib, tana harorati 39°C gacha ko'tarilganligi, ishtahasi yomonligi, yaxshi ugray olmasligi, nimjonligi, o'zini yomon xis qilayotganligi, qulog'i og'rishi va eshitish qobiliyati susayganligidan noliydi. Otoskopiyyada: qulqoq nog'ora pardasining giperemiyasi va uning bo'rganligi aniqlanadi.

163
64

1. Tashxis?

2. Davolash?

№ 11. 38 yoshlardagi erkak kishi shifokorga murojaat qilib, qulog'i og'irligidan, og'rishidan va shang'illashidan, umumiy ahvolining yomonligidan va tana harorati ko'tarilganligidan arz qildi.

Tekshirib ko'rulganda: so'rg'ichsimon o'siq terisining gipere-miyasi va infiltratsiyasi, qulqoq suprasi oldinga egilgani aniqlandi.

Otoskopiyyada: tashqi eshituv yo'li, suyak qismi, orqa yuqori devorlari yumshoq to'qimalarining osilib qolganligi, shuning-dek, qaymoqsimon yiring oqishi kuzatiladi.

1. Tashxis?

2. Davolash?

№ 12. Klinikaga tana harorati ko'tarilgan (39°C), bosh og'rig'i, qayt qilish, qulqoq og'irligi, lohasligidan shikoyat qilgan bemorni olib kelishdi. Tekshirib ko'rulganda: ensa mushaklarining rigidligi va Kernig- Brudzinskiy simptomlari «musbat», ko'z tubida o'zgarish yo'q.

Qonda: leykotsitoz, EChT oshgan.

Orqa miya punksiyasida: likvor bosim bilan oqib chiqadi, loyqa. Anamnezdan — bemor 2 oy oldin otit bilan og'rigan.

1. Tashxis?

2. Davolash?

TEST SAVOLLARI

I. Tashqi qulqoq qanday tuzilgan?

A. Qulqoq suprasidan, tashqi eshituv yo'llaridan.

B. So'rg'ichsimon o'siqlardan, pastki jag' bo'shlig'idan.

- C. Elastik tog'aydan, quloq suprasidan.
- D. Suprachadan, tashqi eshituv yo'lidan.
- G. Suprachadan, quloq suprasidan.

2. Nog'ora bo'shlig'ida qanday muskullar bor?

- A. Ko'ndalang targ'il, mimika muskuli.
- B. Mimika muskuli, tarang muskul.
- C. Taranglab turuvchi muskul, uzangi muskuli.
- D. Silliq muskul, uzangi muskuli.
- G. Hammasi.

3. Ichki quloq nimalardan tashkil topgan?

- A. Suyak kapsulasidan, pardasimon kanaldan.
- B. Suyak labirinti, parda labirintidan.
- C. G'ovakdan, spongiozdan.
- D. Spongiozdan, parda labirintidan.
- G. Hammasi.

4. Tashqi quloq saramasini qaysi mikrob keltirib chiqaradi?

- A. Viruslar.
- B. Ichak tayoqchasi.
- C. Kox tayoqchasi.
- D. Pnevmonokkk.
- G. Streptokokk.

5. Quloq chirki qayerda joylashadi?

- A. Quloq suprasida.
- B. Tashqi eshituv yo'lida.
- C. Nog'ora bo'shlig'ida.
- D. Tog'ay pardali qismida.
- G. Ichki quloqda.

6. Quloq qanday tuzilgan?

- A. Tashqi, o'rtta, ichki quloq.
- B. Tashqi quloq, quloq bo'shlig'i.
- C. Quloqning orqa devori, yumshoq tanglay.
- D. Toq tog'ay, qalqonsimon bez.

7. Quloqni qanday tekshirish usullari bor?

- A. Rentgenologik, faringeskopiya.
- B. Tomografiya, olfaktometriya, termografiya.

- C. Otoskopiya, timpanometriya.
- D. Rentgenologik, tomografiya.

8. Tashqi otit bu —

- A. O'rta qulinqing o'tkir yallig'lanishi.
- B. Eshitish nayi o'tkazuvchanligining buzilishi.
- C. Tashqi eshituv yo'li terisining yallig'lanishi.
- D. Qulinqing o'zida patologik alomatlarga daxli bo'limgan qulq suprasiga yaqin joydag'i kuchli xurujsimon og'riqqa aytildi.

9. Tashqi eshituv yo'lining chipqoni bu —

- A. Soch xaltasining, tashqi eshituv yo'lining pardali tog'ay-simon qismini, teri osti yog' to'qimasining o'tkir yiringli yallig'-lanishi.
- B. Teri yog' xaltachasining, teri osti yog' to'qimasining o'tkir yiringli yallig'lanishi.
- C. Ter bezlarining, tashqi-o'rta va ichki eshituv yo'llarining yalpi o'tkir yiringli yallig'lanishi.
- D. Hammasi to'g'ri.

10. O'tkir mastoiditning asosiy subektiv simptomlari bu —

- A. Og'riq, shovqin, karlik.
- B. Tana haroratining ko'tarilishi, bosh aylanishi, og'riq.
- C. Karlik, tana haroratining ko'tarilishi, bosh og'rig'i.
- D. Tana haroratining ko'tarilishi, og'riq, ko'ngil aynishi.

11. Tashqi qulinqing termik shikastlanishida bemorga qanday yordam beriladi?

- A. Bog'lam qo'yish.
- B. Antigistamin preparatlar: suprastin, 1%li dimedrol.
- C. Antibiotiklar.
- D. Og'riqsizlantirish.

12. Eshituv nervi nevritiga qaysi ikki simptom xos?

- A. Chala karlik, qulqda og'riq.
- B. Yiring oqishi, eshitishni pasayishi.
- C. Qulqda shovqin, eshitishni pasayishi.
- D. Yiring oqishi, eshitishning pasayishi.

13. Eshitish, qabul qilish qobiliyatini yo'qotish bu —

- A. Chala karlik.

- B. Karlik.
- C. Nistagm.
- D. To'g'ri javob yo'q.

14. Eshituv nervi nevritini asosiy ajratadigan belgisi.

- A. Chala karlik yoki bir tomonlama karlik.
- B. Og'riqni sezish hissini yo'qotish.
- C. Quloqda suv aylanishini sezgisi.
- D. Chala karlik yoki ikki tomonlama karlik.

15. Qanday terapeutik muolaja qulodagi shovqin-suronni bartaraf etadi?

- A. UB — nurlanish.
- B. Ignaterapiya.
- C. Isituvchi kompress.
- D. Massaj.

16. Ichki qulogning yallig'lananishi bilan bog'liq bo'lmagan kasallikni ko'rsating.

- A. Men'er kasalligi.
- B. Labirintit.
- C. Otoskleroz.
- D. Mastoidit.

17. Orqa miya bosimi normada:

- A) 300—600 mm.sim.ust.
- B) 200—250 mm.sim.ust.
- C) 150—200 mm.sim.ust.
- D) 100—150 mm.sim.ust.

18. Men'er kasalligining asosiy simptomlari bu —

- A. Eshitishning pasayishi, qulodagi shovqin, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish.
- B. Og'riq, shovqin, chala karlik.
- C. Autofoniya, yiring oqishi, eshituvning pasayishi.
- D. Karlik, ikki tomonlama, og'riq, bosh og'rig'i.

19. Men'er kasalligi xurujida hemorning holati?

- A. Holatini tez-tez o'zgartirish.
- B. Tizzaga tayanib o'tiradi.

- C. Boshini ko'krak qafasiga qo'ygan holda o'tiradi.
- D. Gorizontal holatda ko'zini yumib yotadi.

20. Otoskleroz kasalligi kimlarda ko'proq uchraydi?

- A. Erkaklarda 40 yoshdan keyin.
- B. Keksa odamlarda.
- C. Ayollarda 20 yoshdan 40 yoshgacha.
- D. Yoshlarda.

21. Infeksiya o'rta va ichki qulogidan kalla suyagi ichiga o'tish yo'llari?

- A. Gemotogen, havo tomchi yo'li orqali.
- B. Kontaktli, gemotogen.
- C. Limfogen, gemotogen.
- D. To'g'ri javob yo'q.


22. Miyaning qattiq qatlami va suyaklar orasidagi yiring yig'ilishi qanday absess deb ataladi?

- A. Ekstradural.
- B. Subdural.
- C. Peridural.
- D. Miya ichi.

III bob. BURUN VA UNING YONDOSH BO'SHLIQLARINING KASALLIKLARI

Burun anatomiyasi

Burun bo'shlig'i (*cavum nasi*) — nafas yo'lining boshlang'ich qismi bo'lib, oldinda noksimon teshik orqali havo kirib, orqa tomondan xoana orqali burun-hiqildaq yo'liga ochiladi. Burun bo'shlig'i yuqoridan kalla bo'shlig'i, pastidan og'iz bo'shlig'i ikki yonboshdan ko'z kosalarini va yuqori jag' suyagi sinuslari bilan chegaralanib turadi. Tashqi burun suyak, tog'ay va yumshoq to'qimalardan tuzilgan. Uning yuqori qismi — burun ildizi, pastga yo'nalgan qismi — qirrasi, ana shu qirraning oxiri — burun uchi deyiladi. Yon tomonlardagi bo'rtib chiqqan qismi — burun qanotlari deb ataladi (24-rasm).



24-rasm. Tashqi burun tuzilishi.

- 1 — burun suyaklari; 2 — yuqori jag'ning peshona o'simtasi;
3 — burunning lateral tog'ayi; 4 — burun qanotlarining katta
tog'aylari; 5 — burun tog'aylarining kichik tog'aylari.

Burun bo'shlig'i burun to'sig'i yordamida ikkiga bo'-linadi. Burun bo'shlig'i qon tomiri va bezlarga boy bo'lgan shilliq qavat bilan qoplangan. Burun shilliq qavati kiprikli epiteliy bilan qoplangan. Burun bo'shlig'iga kirgan havo qon tomirlar ta'sirida isib, bezlar suyuqligidan namlanadi, kipriklar yordamida havo tarkibidagi changlardan tozalanadi. Burun bo'shlig'ining yuqori qismidagi shilliq qavatda hid biluv nervi oxirlari joylashgan.

Burun bo'shlig'ida 3 juft chig'anoqlar joylashgan bo'lib, ular 3 juft havo yo'llarini hosil qiladi. Ular yuqorigi, o'rta va pastki burun yo'llari deb ataladi. Pastki chig'anoq ostida ko'z yosh — burun kanali teshigi bor. O'rta burun yo'liga maxsus teshiklar orqali burunning qo'shimcha bo'shliqlari ochiladi.

Burunning qo'shimcha bo'shliqlari

Burunning qo'shimcha bo'shliqlari burunning asosiy bo'shlig'i atrofida joylashgan bo'lib, u bilan qo'shilib turadi. To'rt juft havoli bo'shliqlar bo'ladi: yuqori jag', g'alvirsimon labirint kataklari, peshona va ponasimon bo'shliqlar.

Yuqori jag' bo'shliqlari yuqori jag' tanasida joylashgan, ular eng katta bo'shliq sanaladi. Bo'shliqning oldingi yoki yuz devorining tashqi tomonida chuqurcha bo'lib uni it chuqurchasi deyiladi. Yuqori jag' suyak bo'shlig'ining medial devori yoki burun bo'shlig'ining lateral devorida burunning o'rta chig'anoq sathida 2—3 ta teshik bo'lib, ular orqali bo'shliq burun bo'shlig'iga tutashadi.

Yuqori jag' bo'shlig'ining yuqori devori ayni vaqtda ko'z kosasining pastki devori ham hisoblanadi. Yuqori jag' suyagining alveolyar o'sig'i pastki devor yoki bo'shliqning tubidir. Ko'pincha katta yoshdagi odamlarda yuqori jag' bo'shlig'ining tubi burun bo'shlig'i tubidan pastda joylashgan bo'ladi. Yuqori jag' bo'shlig'i orqa devori qalin bo'lib, u yuqori jag' do'mbog'idan hosil bo'lgan.

G‘alvirsimon bo‘shliqlar peshona bo‘shlig‘i va ponasimon bo‘shliq orasida joylashgan g‘alvirsimon suyakning havoli katakchalaridan iborat. Oldingi, o‘rta va orqa g‘alvirsimon labirint katakchalari tafovut qilinadi (o‘ng va chapda 6—7 tadan). Sog‘lom odamda ular ichida havo bo‘ladi.

Peshona bo‘shliqlari peshona suyagining tangachalarda joylashgan bo‘lib, har biri to‘rttadan devorga ega: oldingi kalla tubining chuqurchasi bilan chegaralangan orqa devori, ko‘p hollarda ko‘z kosasining yuqori devori ham hisoblanadigan va qisqa masofada g‘alvirsimon suyak kataklari va burun bo‘shlig‘i bilan chegaralanib turadigan pastki devori va ichki devori.

Ponasimon bo‘shliqlar ponasimon suyak tanasida joylashgan. Qo‘sishimcha sinuslar orasidagi to‘siq old tomondan burun to‘sig‘igacha davom etadi. Yangi tug‘ilgan bolalarda (chaqaloqlarda) faqat ikkita suyak kavagi — yuqori jag‘ kavagi va g‘alvirsimon labirint bo‘ladi. Lekin bu suyak bo‘shliqlari ham kurtak holatida bo‘lib, ya‘ni taraqqiy qilmagan.

Yangi tug‘ilgan bolalarda peshona hamda ponasimon suyak bo‘shliqlari bo‘lmaydi, ular 3—4 yoshdan shakllana boshlaydi. Burun atrofidagi suyak bo‘shliqlari topografiyasi 12 yoshga kelib, normaga yaqinlashadi.


Qo‘sishimcha bo‘shliqlarni qoplab turgan shilliq parda o‘ziga xos burun bo‘shlig‘i shilliq pardasining davomi bo‘lib, undan o‘zining qalinligi va kavernozi to‘qimalarining yo‘qligi bilan farq qiladi.

Burunning qo‘sishimcha bo‘shliqlari qon bilan tashqi va ichki uyqu arteriyalarining shoxobchalari orqali ta‘minlanadi. Qon o‘zaro anastomoz hosil qiladigan va tashqi burun venalari, yuz sohasi, ko‘z sohasi, miya venalari, vena chigali va kalla sinuslari bilan tutashadigan venalar orqali oqib ketadi. Limfa esa halqum orqasi, jag‘ osti va bo‘yinning chuqur joylashgan tugunlari tomon oqadi. Burun qo‘sishimcha bo‘shliqlari V juft kalla nerv-

larining birinchi va ikkinchi shoxchalari bilan innervatsiya qilinadi. Simpatik innervatsiya qanotsimon tanglay tugunidan yuzaga keladi.

Uyqu arteriyasining shoxobchalari burun bo'shlig'ini qon bilan ta'minlaydi. Venoz qon esa oldingi yuz va ko'z kosasi venalari orqali ketadi. Bundan tashqari kalla suyagi venalari ko'z kosasi venalari bilan anastomoz hosil qiladi. Ular orqali infeksiyalar burun bo'shlig'idan va qo'shimcha bo'shliqlardan kalla suyagi bo'shlig'iga va ko'z kosasiga o'tishi mumkin. Burun bo'shlig'i shilliq pardasi limfa to-mirlar tarmog'iga juda boy. Ular subdural va subaraxnoidal bo'shliq bilan tutashadi (25, 26, 27-rasmlar).

Burunning sezgi innervatsiyasini ko'z kosasi yuqori jag' nervlari amalga oshiradi. Hid bilish analizatorlarining tarmoqlari burun bo'shlig'iga g'alvirsimon suyakning to'rsimon plastinkasi teshiklari orqali o'tadi va hid bilish sezgisi retseptorlari hisoblangan yuksak darajada tuzilgan maxsus epiteliy hujayralariga yetib tugaydi.



25-rasm. Tashqi burun sohasidan limfaning limfatik tugunlarga oqimi:

1 — halqum osti tugunlari; 2 — bo'yin tugunlari; 3 — pastki jag' tugunlari; 4 — engak osti tugunlari.



26-rasm. Burun to'sig'ining qon bilan ta'minlanishi:

- 1 — Kisselbachov zichligining o'rni; 2 — old g'alvirsimon arteriya;
- 3 — orqa g'alvirsimon arteriya; 4 — to'siqning orqa arteriyasi;
- 5 — tanglay-burun arteriyasi.



27-rasm. Burun bo'shilg'i shilliq pardasidan limfaning limfatik tugunlarga oqimi:

- 1 — jag' osti tugunlari; 2 — chuqr bo'yin tugunlari; 3 — halqum osti tugunlari.

Burun fiziologiyasi

Burun nafas olish, hid bilish, rezonans va himoya funksiyalarini bajaradi. Burun orqali o'tayotgan havo chang zarrachalaridan tozalanadi, isiydi va namlanadi. Burun shilliq qavatidagi tuklar mexanik filtr vazifasini bajaradi. Burundan nafas olishning og'iz orqali nafas olishga qaraganda katta afzalliklari bor. Burunga havo bilan kirgan, chang zarrachalari bilan chiqib ketmagan bakteriyalar burun shilimshig'i ta'sirida ma'lum darajada zararsizlanadi va o'ladi. Nafas orqali kirayotgan tutun kimyoviy zararli moddalarni ham birmuncha neytrallaydi. Agar burun orqali nafas olinmasa nafas yo'llarining pastki qismlarida bir qancha kasalliklar paydo bo'lishi mumkin (28-rasm).

Burun bo'shlig'i tovush rezonatori bo'lib xizmat qiladi, u yerda havo tebranishi tovushni kuchaytiradi, tovushga o'ziga xos ohang va jarangdorlik beradi. Burun bitib qolsa tovush bo'g'iq chiqadi va bu manqalik deyiladi.

Og'iz orqali nafas olish jismoniy rivojlanishni izdan chiqarib ko'krak qafasi va yuz skeletining noto'g'ri rivojla-



28-rasm. Yuqori jag' bo'shlig'idan ajralmalarni hilpillovchi epiteliy yordamida burun bo'shlig'iga evakuatsiyasi.

nishi, tishlarning qiyshiqlik joylashishi kabi nuqsonlarga sabab bo‘ladi.

TEKSHIRISH USULLARI

Burun va qo‘sishimcha bo‘sliqlarni tekshirish bemor shikoyatlarini aniqlash, anamnestik ma'lumotlar yig‘ishdan boshlanadi. Shundan keyin maxsus tekshiruv-larga o’tiladi. Ularga: tashqi ko‘zdan kechirish, paypaslab ko‘rish, maxsus asboblar bilan burun bo‘slig‘ini ko‘rish, rentgen tekshirishlari o’tkazish yoki diafanoskopiylar kiradi (29, 30, 31-rasmlar).



29-rasm. Burun bo‘slig‘i dahlizini pesbona reflektori yordamida ko‘zdan kechirish.



30-rasm. Orqa rinoskopiya.



31-rasm. Diafanoskopiya.
yo'nalgan yorug'lik tutamini hosil qiladi.

Burunni tekshirish. Tashqi burun qo'shimcha bo'shilqlarini yuzidagi proyeksiyalari ko'zdan kechiriladi.

Tashqi burun, peshona suyagi kovaklarining oldingi va pastki devorlari, yuqori jag' suyak kovaklari oldingi devori, shuningdek, bo'yin regional limfatik tugunlari paypaslab ko'rildi.

Burunning nafas olish funksiyasi navbatma-navbat aniqlanadi: oldin burunning bir tomoni, so'ngra ikkinchi tomoni. Buning uchun burunning o'ng qanotini chap qo'lning II barmog'i bilan burun to'sig'iga bosiladi. O'ng qo'l bilan esa picha paxta bo'lakchasi burunning chap dahliziga yaqinlashtiriladi va bemordan odatdagidek kuch bilan nafas olish va nafas chiqarish so'raladi. Paxta

Bemorni ko'zdan kechirish uni tayyorlashidan boshlanadi. Buning uchun:

1. Bemor shunday o'tiri-shi kerakki, yorug'lik manbai va ashoblar qo'yilgan stol uning o'ng tomonida bo'lsin.
2. Shifokor — tekshiruvchi bemor ro'parasida o'tiradi. Bunda tekshiriluvchining oyoqlari uning tizzalari orasida turishi lozim.
3. Yorug'lik manbai tekshiriluvchining o'ng quloq suprasi ro'parasidan 10 sm narida turishi kerak.
4. Tekshirish peshona reflektori yordamida o'tkaziladi, u maxsus boylama bilan peshonaga o'rnatilib, tekshirilayotgan a'zodan 25—30 sm (fokus oralig'i) uzoqda bo'lishi lozim. Yorug'lik manbaining to'g'ri turishi burunga

bo'lakchasining u yoq-bu yoqqa og'ishiga qarab havo o'tishining qiyinlik darajasi aniqlanadi. Burunning o'ng tomoni bilan nafas olishni aniqlash uchun o'ng qo'lning II ko'rsatgich barmog'i bilan buruning chap qanotini burun to'sig'iga bosiladi, chap qo'l bilan esa, paxta bo'lakchasini burunning o'ng dahliziga yaqinlashtiriladi, shuningdek bemordan qisqa nafas olish va chiqarishi so'raldi.

Burun orqali nafas olish normal, qiyin bo'lishi yoki butunlay nafas olib bo'lmasligi mumkin. Burunning nafas olishi bemorning shikoyatiga, paxta bo'lakchasi bilan tekshirishdan olingan ma'lumotlarga, rinoskopiya manzarasiga asoslanib baholanadi. Burunning nafas olish faoliyatini L.B. Daynyak, N.A. Melnikova rinopnevrometri yordamida aniqlash mumkin.

Burunning hid bilish funksiyasi olfaktometrik yig'madagi hidli moddalarni burunning har bir katagiga navbatma-navbat hidlatish orqali yoki olfaktometrik asbobi yordamida aniqlanadi. Hid bilishni aniqlash usuli nafas olishni aniqlash usuliga o'xhash. Hid bilish funksiyasini aniqlayotganda bemor shu moddaning hidini aytishi kerak.

Hid bilish normal (normosmiya), past (giposmiya), buzilgan (kokosmiya) yoki butunlay yo'q (anosmiya) bo'lishi mumkin.

Rinoskopiya oldingi, o'rta va orqangi bo'lishi mumkin. Burun dahlizini ko'zdan kechirish uchun o'ng qo'lning I barmog'i bilan burun uchi ko'tariladi. Burun dahlizi normada ochiq, devorlari tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. Oldingi rinoskopiyaada navbatma-navbat avval burunning bir tomoni, so'ngra ikkinchi tomoni ko'zdan kechiriladi. Chap qo'lning ochiq kaftiga tavaqalari pastga qilib burun kengaytirgich olinadi: chap qo'lning I barmog'ini burun kengaytirgichning vintiga, II va III barmoqlarni tashqaridan branshga qo'yiladi. IV va V barmoqlar burun kengaytirgichning branshlari orasida bo'lishi kerak. Barmoqlarning bunday joylashishi burun

kengaytirgichni ochish va yopishga imkon beradi. Chap qo'lning tirsagi tushiriladi, qo'lning barmoqlari burun kengaytirgich bilan birga harakatlana olishi kerak. Oldingi rinoskopiya qilinayotganda boshni kerakli tomonga qarab burish uchun o'ng qo'lning kafti bemorning boshi tepasiga qo'yiladi.

Burun kengaytirgichning tavaqalari yopiq holda bemorning o'ng burun dahliziga 0,5 sm ga kiritiladi. Chap qo'lning II va III barmoqlari bilan burun kengaytirgichning branshlariga bosiladi va o'ng burun dahlizini shunday kengaytirish kerakki, bunda burun kengaytirgich tavaqasining uchi burun bo'shlig'i shilliq pardasiga tegmasin.

Boshning to'g'ri holatida burunning o'ng tomoni ko'zdan kechiriladi: shilliq pardasi pushti rangda, yuzasi tekis, burun to'sig'i o'rta chiziqdicha bo'lishi, burun chig'anoqlari kattalashmagan, umumiy burun yo'li bo'sh va ochiq bo'lishi kerak. Burunning chap tomoni ham shunga o'xhash ko'zdan kechiriladi. Burun kengaytirgichni quyidagicha tartibda chiqarib olinadi: IV va V barmoqlar bilan kengaytirgichni o'ng dastasini orqaga tortib, branshning ishchi qismi butunlay yopilmagan holda burundan chiqarib olinadi (burun kengaytirgichning ishchi qismi branshlari to'la yopilib qolsa, burun dahlizidagi muylarni qisib qolishi mumkin).


Burunning orqa bo'limlarini ko'zdan kechirish uchun rinoskopiya qilinadi (epifaringoskopiya). Buning uchun burun-halqum ko'zgusini dastasiga o'rnatib, ko'zguli oynasi qizdiriladi (ko'zguning isish darajasini barmoqlarning tashqi yuzasiga qo'yib ko'rib tekshiriladi). Ko'zgu dastasi o'ng qo'lda, shpatel chap qo'lda turadi. Bunda shpatelning ostki yuzasida I barmoq, yuqori yuzasida II, III va IV barmoqlar tursin. Shpatelning bemor og'zining o'ng burchagidan kirgizib, tilni shpatelning uchi bilan bosiladi. Shu bilan bir vaqtida bemor og'zini chap burchagidan yuzasini yuqoriga qaratgan holda burun-hal-

qum ko'zgusini kiritib tanglay pardasi orqasiga o'tkaziladi; ko'zguni sekin-asta aylantirib burunning orqa qismlari birin-ketin ko'zdan kechiriladi. Shunda burun chig'anoqlarining orqa qismlari, burun yo'llari, dimog' suyagi ko'rindi. Ushbu usul burun-halqumni ko'zdan kechirishga ham imkon beradi.

Burunning qo'shimcha bo'shliqlarini tekshirish

Burunning qo'shimcha bo'shliqlari holatini tekshirishning diagnostik usullaridan eng muhimi rentgenografiya va elektrografiya hisoblanadi. Suratga olish bir necha proyeksiyalarda o'tkaziladi (32-rasm).

Tekshirishning boshqa usullaridan yana bittasi diafanoskopiyaga (yoritib ko'rish)dir. Bu tekshirish qorong'i xonada o'tkaziladi. Bemorning og'ziga maxsus elektr lampochka (12 V) kiritiladi, keyin og'iz yumiladi, ya'ni yopiq bo'shliq vujudga keladi. Yuqori jag' suyak bo'shliqlarining normal holatida bemor yuziga nur bir tekis tushadi, pushti fonli ko'z kosasining tubi yorqin dog' bo'lib ko'rini turadi, ko'z ostida yarim oysimon yorug'lik paydo bo'ladi. Ikkala qorachiq qizg'ish pushti halqachaga o'xshash yaltirab



32-rasm. Burun yondosh bo'shliqlarining rentgenografiyasida bemor boshini joylashuvi.

1 — peshona bo'shlig'i; 2 — ko'z kosalarini; 3 — g'alvirsimon labirint;
4 — ponasimon bo'shliq; 5 — yuqori jag' bo'shlig'i.

ko'rinadi. Bir tomonlama gaymoritda yuqorida tasvirlangan manzara faqat sog' tomonda ko'rinadi. Shu usul bilan peshona bo'shlig'i bilan g'alvirsimon labirintni ham tekshirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan burun qo'shimcha bo'shliqlari holatini tekshirishning diagnostik usullaridan tashqari punksiya qilish va zond kiritishlardan ham foydalanish mumkin. Ammo ular aynan shifokorlarning muolajalari sanaladi.

TASHQI BURUN KASALLIKLARI

Burun saramasi

Saramas — gemolitik streptokokk qo'zg'atadigan va terida o'tkir yallig'lanishga xos o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan yuqumli kasallik.

Kasallik bemorning umumiy ahvolining og'irlashuvidan boshlanadi, bunda tana harorati ko'tariladi, et uvishadi, yaqin joylashgan limfatik tugunlar kattalashadi.

Zararlangan burun terisi qizarib, pufakchalar bilan qoplanadi, tekshirilganda og'riq bo'ladi.

Burun saramasi bilan og'rigan bemorni darxol statcionarga yotqizish kerak. Kasallik umumiy va mahalliy davolanadi. Yallig'langan joylarga malhamli antiseptik bog'lamlar qo'yiladi. Gemolitik streptokokka ta'sir qiladigan antibiotiklardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Burun furunkuli (chippon)

Bu soch xaltachasi va yondosh to'qimalarning yiringli-nekrotik yallig'lanishi. Asosiy qo'zg'atuvchi — stafilkokklar. Ba'zi hollarda burun furunkuli diabet, avitaminoz, distrofiyadagi umumiy furunkulyozning bir turi sifatida paydo bo'ladi.

Bemorning burun uchi qizarishi, tegilganda qattiq og'riq, burun yon devorining yumshoq qismini shishi bezovta qiladi. Ko'zning medial burchagini bosganda

kuzatiladigan og'riq burchak venasining tromboflebitidan dalolat beradi. Kasallikning 3—4 kunida furunkul yorilib, undan quyuq yiring oqib chiqadi. Yorilgan furunkul o'rnilida chuqurcha hosil bo'ladi. Bu og'ir asoratlar qoldirishi mumkinligi tufayli bemor otorinolaringologiya bo'limiga yotqiziladi.

Asosan konservativ davo qo'llaniladi: antibiotikoterapiya, yumshatish maqsadida malhamlar kiritish. Furunkulni siqib bo'lmaydi, chunki undagi infeksiya venalar orqali bosh miyaga o'tishi mumkin. Uzoq vaqt davom etgan furunkulda fizioterapiya muolajalari, autogemoterapiya, darmondorilar qo'llash yaxshi natija beradi.

Burun sikozi (follikulit)

Burun sikozi — burun dahlididagi soch (tuk) xaltachasining stafilokokklar yoki streptokokklar keltirib chiqaradigan yiringli yallig'lanishidir.

Bemor nafas olishga qiynalishidan, burunda achishish, og'riq, burun kataklari terisining tortishishidan shikoyat qiladi. Burun dahlizi ko'zdan kechirilganda soch xaltachasi shishib, qizarib ketganligi, ba'zi xaltachalar pustulaga aylanganligi aniqlanadi.

Davolanishning asosiy usullaridan biri — epilyatsiya. Maxsus pinset yordamida zararlangan soch (tuk) lar olib tashlanadi, so'ng teri yuzasi dezinfeksiya qilinadi.

Bemorni ambulatoriyada davolasa bo'ladi. Bunda burun dahlizi spirt bilan tozalanib, sintomitsin va gidrokortizonli surtmalari qo'yiladi.

Burun ekzemasi

Kasallik o'tkir va surunkali kechishi mumkin. Uning birinchi belgilari — bu burun kataklari oldidagi terining qizarishi va shishishi. Keyin pufakchalar hosil bo'lishi, ular yorilganda esa, nam yuzali yaralar va terining yorilishi

kuzatiladi. Keyinchalik yaralar qurib, ular o'rniда terining sho'ralashi yuzaga chiqadi.

Bemor burnida kuchli qichima va og'riq paydo bo'lganidan shikoyat qiladi. Ekzema yuz, bosh terisiga tarqalishi mumkin.

Davolashni organizmning surunkali kasalliklarini bartaraf qilish bilan bog'lash kerak. Organizmni umumiy quvvatini oshiradigan va antigistamin preparatlar bilan davolanadi. Mahalliy davolashda terini 2—5%li kumush nitrat eritmasi bilan kuydirib, 5%li sintomitsin emulsiyası, lamizil va o'simlik moyi, gidrokortizon yoki prednizolonli malhamlar qo'yiladi.

Burunni pushtirang husnbuzarları va rinofima

Pushtirang husnbuzarlar — vegetativ innervatsiyaning mahalliy buzilishi natijasida vaqtı-vaqtı bilan teri va teri osti qon tomirlarini kengayishi sababli burun terisining qizarib turishidir. Kasallik tufayli qon tomirlarini kengayishi keyinchalik teleangioektaziyalar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu joylarda biriktiruvchi to'qima o'sib burun kattalashadi. Odamning yuz tuzilishi o'zgarib ketadi. Bu kasallik rinofima deyiladi.

Bu kasallik ko'proq ovqat hazm qilish tizimida kasalligi va qabziyati bo'lgan bemorlarda, shuningdek ko'p spirtli ichimlik ichgan, sovgotgan odamlarda uchraydi.

Davolashni keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf qilishdan boshlash lozim. Mahalliy davodan 10%li rezorsin malhami bilan applikatsiya qilish tavsiya etiladi. Rinofima bo'lgan bemorlar terisining o'sgan qismlari kesib tashlanadi.

BURUN BO'SHLIG'I KASALLIKLARI

Burun bo'shlig'i sinexiyalari va atreziyalari

Sinexiyalar — burun to'sig'i va burun devori orasida -gi biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'lgan yupqa to'siqlar.

Atreziyalar — burun bo'shlig'i devorlari keng bitib, burun yo'llarining bekilib qolishidir.

Sinexiya va atreziyalar tug'ma yoki operatsiyadan keyin paydo bo'lishi mumkin. Yuqumli kasalliklar, shilliq pardani o'yuvchi kimyoviy preparatlar tufayli shikastlanishidan keyin kelib chiqishi mumkin. Xirurgik yo'l bilan davolanadi. Ya'ni bitishmalar va to'siqlar kesib tashlanadi, burun bo'shlig'i devorlari bir-biridan ajratiladi.

Yot jismlar va rinolitlar

Burunga yot jismlar kirib qolishi ko'proq bolalar va ruxiy bemorlar orasida uchraydi. Ko'p hollarda olcha danagi, pista, mayda o'yinchoqlarning qismlari va shunga o'xhash mayda narsalar burun bo'shlig'ida turib qoladi. Bunda bir tomonlama nafas olishning qiyinlashuvi, tumovning uzoq vaqt tuzalmasligi kuzatiladi.

Burunga kirib qolgan yot jismlarni mavjudligini aniqlashda oldingi va orqa rinoskopiya, rentgenografiyadan foydalilaniladi.


Yot jismlar uchi to'mtoq ilgak bilan olib tashlanadi. Agar burunga hasharotlar kirib qolsa burun bo'shlig'ini natriy xlor eritmasi bilan yuvib uni chiqariladi. Agar yot jism burun bo'shlig'ida uzoq vaqt turib qolsa u asta-sekin ohakli va kalsiy fosfatli tuzlar qatlami bilan qoplanib — rinolit — burun toshiga aylanadi. Rinolitlar ham topilgan zahoti olib tashlanadi.

BURUN SHIKASTLARI


Ular mexanik, kimyoviy, termik bo'ladi. Shikastlanishlarni ochiq, yopiq, suyak singan yoki sinmagan, siniqlar

o'midan qo'zg'algan yoki qo'zg'almagan va deformatsiyalanganligiga qarab ajratiladi.

Shikastlanish darajasi uning kuchi va yo'nali shiga bog'liq. Xarakterli belgisi og'riq, burundan qon ketishi, tashqi burun deformatsiyasi, suyak parchalarining aralashuvi yoki yumshoq to'qimalarning shikasti. Yuz sohasida qon quyilishi, paraorbital gematoma rivojlanishi mumkin. Ba'zida burun dahlizida gematoma, nafas olishning buzilishi kuzatiladi (33-rasm).



33-rasm. Burun to'sig'i gematomasini yorish (ochish).




34-rasm. Burun suyaklarining shinish turlari.

a. v. d — siljishsiz shinishlar; e. f. g — suyakning siniqlarini siljib qolishi;

Teri ostida havo krepitatsiyasining borligi g'alvirsimon suyakning sinib, shilliq pardaning yirtilganidan dalolat beradi. Burunni qoqqanda havo burundan jarohatlangan to'qima orqali yuz terisi ostiga kiradi. Burundan likvor kelishi elaksimon plastinka singanidan darak beradi (34-rasm).

Rentgenologik tekshirish odatda yumshoq to'qimalar qattiq shishganda va infiltratlanganda burun va yuz suyaklarining qanchalik singanligini hamda tabiatini aniqlash imkonini beradi. Biroq rentgenologik o'zgarishlarning bo'lmasligi burun asosi singanligini istisno qilishga imkon bermaydi.

Burun suyaklarining shinishini davolash shikastlanishdan so'nggi dastlabki soatlarda va birinchi sutkada amalga oshirilsa yaxshi natija beradi. Shikastlangan to'qimalardan qon ketishini to'xtatishni kechiktirish bemor hayotiga xavf solishi mumkin. Burunni qoplab turuvchi to'qimalar shikastlanganida infeksiya tushish xavfi bo'lganligidan teri




35-rasm. Singan suyak bo'laklarini burunning ichkarisidan to'g'rilash uchun ishlataladigan elevatorlar to'plami
(Y. N. Volkov).

ostiga tegishli sxemada qoqsholga qarshi zardob yuborildi (35, 36-rasm).

Jarohat vodorod peroksid eritmasi bilan yuviladi va quritiladi. Ingichka sintetik iplar (dakron, kapron va boshqalar) bilan orasiga qisqa choklar qo'yiladi, odatda, bog'lab qo'yilmaydi. Jarohatdan keyin birinchi sutkadayoq yuzga birlamchi chok qo'yish mumkin. Biroq noiloj hollarda jarohatni kechroq, hatto 48 soat o'tgandan keyin ham tikishga ruxsat etiladi.

Burun suyagining bo'laklarini ular yonga siljiganida qiyshiqlik o'ng tomonga bo'lsa, chap qo'lning, chap tomonga qiyshagan bo'lsa, o'ng qo'lning I (bosh) bar-mog'i bilan to'g'rilanadi. Bunda burunni barmoq yor-



36-rasm. Burun suyaklarining yopiq sinishlarida suyak bo'laklarini to'g'rilash sxemasi.

damida kuch bilan bosish lozim. Siniq bo'lakchalarni siljitib normal holatga keltirilganda g'ichirlash eshitiladi. To'g'rilash 2—3 sekund davom etishini hisobga olib, aksariyat, og'riqsizlantirilmaydi. Biroq jarohat sohasiga novokain eritmasi yuborish yoki qisqa muddatli narkoz ostida operatsiya o'tkazish ham mumkin. Burun suyagining bo'lakchalar orqaga siljigan bo'lsa, burun elevatorlari yordamida to'g'rilanadi. Aksariyat hollarda to'g'rilingandan so'ng siniq bo'lakchalar siljimasligi uchun burunning bir yoki ikkala tomoni oldingi tamponada qilinadi.

Moneliklar (bosch chayqalishi, tashqi burundan ajralma kelishi) bo'lsa repozitsiyani bir necha kunga orqaga qoldirish mumkin.

BURUN TO'SIG'INING QIYSHAYISHI

Burun to'sig'inining qiyshayishi yuz skeletining rivojlaniishi nuqsoni yoki burunning shikastlanishi oqibatida yuz beradi.

Bunday bemorlar nafas olishlarining qiyinligidan, boshlari og'rishidan, burundan doim suyuqlik ajralib turishidan, hid bilishlari buzilganidan shikoyat qiladilar.

Tashxis rinoskopiya qilinganda to'siqning qiyshaygani va burunning bir tomoni torayib, ikkinchisi kengayganligi aniqlanganda qo'yiladi.

Davolashda xirurgik usuldan foydalanish bemorni normal nafas olishiga yordam beradi. Bunda burun to'sig'ini shilliq osti rezeksiyasi yoki septoplastika qilinadi.

Burun to'sig'i gematomasi va abssessi

Burun to'sig'i gematomasi ko'proq burunning shikastlanishi va virusli yallig'lanishi natijasida hosil bo'ladi. Uning asosiy belgilari — nafas olishni qiyinlashuvi, ovozning o'zgarishi.

Gematoma o'z vaqtida davolanmasa yiringlab, burun to'sig'i abssessiga o'tishi mumkin. Bu vaqtda yuqorida qayd etilgan belgilardan tashqari bosh og'rishi, et uvishishi, tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi. Burun to'sig'i abssessi esa yuqoriga tarqalib, kalla suyagi ichiga asorat berishi mumkin.

Gematoma bo'lganda darhol punksiya qilib qonni so'rib olish va tampon qo'yish kerak, so'ngra antibiotiklar buyuriladi. Burun to'sig'i abssessini xirurgik yo'l bilan davolanadi. Abssessni kesib, yiring chiqarib tashlanadi va infeksiyaga ta'sir qiladigan antibiotik va sulfamilamid preparatlar buyuriladi.

BURUNDAN QON KETISHI

Yuqori nafas yo'llari a'zolariga qaraganda ko'proq kuzatiladi. Unga mahalliy va umumiy kasalliklar sabab bo'lishi mumkin.

BURUNDAN QON KETISHINING SABABLARI

<i>MAHALLIY</i>	<i>UMUMIY</i>
Old quruq riniti	Gi pertoniya kasalligi
Subatrofik rinit	Gripp
Xirurgik jarohat (rinoplastika, elektrokauterizatsiyavabosh-qalar)	Jigar sirrozi
Burun jarohati	Xavfli o'sma
Atrofik rinit	Homiladorlik
Qonab turadigan burun polipi	Angionefroz, ateroskleroz
	Tug'ma yurak porogi
	Gi poxrom anemiya
	Gemofiliya, trombositopenik purpura

Ba'zida qon ketish sababini aniqlab bo'lmaydi. Bemorni tekshirish jarayonida qon ketishning sababi aniqlanadi, qon yo'qotish darajasi, kasallikning umumiy belgisi aniqlanadi. Bu dalillar keyinchalik kechiktirib bo'lmas tadbirlar chorasini, bemorni gospitalizatsiya qilish masalasini va maxsus yordam ko'rsatish kerakligini belgilab beradi.

Ko'pincha burundan qon ketish burun to'sig'inining oldingi quyi qismida sodir bo'ladi. Uni maxsus asboblar-siz ham ko'rsa bo'ladi. Bu sohadan qon yo'qotish bemorni hayotiga xavf solmaydi.

Burun bo'shilig'inining boshqa qismlaridan qon ketishi og'irroq kechib, qon ketayotgan joyini aniqlash qiyinroq bo'ladi.

Qon ketish manbaini aniqlashning qiyinligi shundaki, qon me'da-ichak, o'pkadan ketayotgan bo'lib u burunga tushganda sodir bo'ladi.


Mazkur a'zolardan qon ketishining belgisi qusganda to'q rangli massanening kelishi yoki yo'talganda ko'piklangan qonning ajralishi bilan kuzatiladi.

Yana shuni unutmaslik kerakki, bundagi belgi burunning orqa qismidan kelayotgan qonni yutishdan dalolat berishi ham mumkin.

Qon ketishning davomiyligi turlichcha bo'ladi. Ko'pincha qon halqumning orqa devoridan oqib, yutiladi va quish paydo bo'ladi. Bemorning umumiy ahvoli yomonlashadi, kuchsizlanib rangi oqaradi, taxikardiya kuzatiladi, puls sekinlashadi, gemoglobin miqdori kamayadi, arterial bosim pasayadi, odamni sovuq ter bosadi. Ketgan qon miqdoriga qarab qon ketish quyidagilarga bo'llinadi:

1. Yengil qon ketish— agar qon kam vaqt ichida tomchilab ketsa;
2. O'rtacha og'irlikdagi qon ketish— 200 ml gacha qon yo'qtganda;
3. Og'ir qon ketish— 200 ml.dan ortiq qon yo'qtganda.

Davolash burni qonayotgan bemorga birinchi yordam ko'rsatishda unga tinch sharoit yaratish zarur. Buning uchun ko'pchilik hollarda bemorning boshini baland qilib yotqizib (boshiga 2—3 ta yostiq qo'yib), unga burun qanotini burun to'sig'iga 10—20 daqiqa bosib turish buyurilsa, burun qonashi to'xtaydi. Bunda bemor burnini qoqmasligi kerak. Bu yordam bermasa, adrenalin yoki vodorod peroksidga xo'llangan steril paxta bo'lakchasini burunga kiritiladi. Bemor bu tamponni ma'lum vaqtgacha burun to'sig'iga bosib turishi kerak bo'ladi. Burundan qon kam oqqanda uni shu yo'l bilan osonlikcha to'xtatish mumkin. Burun tez-tez qonasa yaxshisi reflektor va burun kengaytirgich bilan qon oqayotgan joyni topish, unga adrenalin qo'shilgan 5%li kokain eritmasini surtish, so'ngra zondga joylangan kumush nitrat kristali, xrom kislota yoki uch xlor sirka kislota yoki galvanokauter bilan kuydirish kerak.



37-rasm. Burun old tamponadasi.

Burun dahlizini kengaytirib va peshona reflektori bilan burun bo'shlig'ini yoritib turib, maxsus pinset yoki burun kornsangi bilan butun burun bo'shlig'ini old tomondan tamponada qilinadi. Uzun doka tampon bilan burun bo'shlig'ining orqa bo'limlari, pastki va o'rta burun yo'llari hamda burun dahlizi birin-ketin to'ldiriladi (37-rasm).

Bu barcha tadbirlar yordam bermasa, bemorni zudlik bilan statsionarga yotqizish shart. Kamdan-kam hollarda, ayniqsa burun va halqum operatsiyasidan so'ng, shuningdek burun shikastlanganda qon to'xtatish uchun bu usullar yordam bermaydi va burun bo'shlig'ini orqa tomondan tamponadasini qo'llashga to'g'ri keladi.

Pastki burun yo'li orqali halqumga ingichka rezina kateter kiritiladi; uning uchi yumshoq tanglay orqasida ko'ringandan so'ng uni kornsang bilan ushlanadi va og'izdan tashqariga chiqariladi. Oldindan halqumga mos keladigan doka tampon tayyorlab qo'yiladi va uni ikki qavat pishiq ipak ip bilan uzunasiga va ko'ndalangiga bolishchaga o'xshatib bog'lab, ipning uchta uchi bo'sh qoldiriladi. Kateterning og'izdan chiqib turgan uchiga tamponning ikkita ipi bog'lanadi, shundan so'ng kateter-




38-rasm. Burun-halqum
tamponni hajmini aniqlash.

ni tortib burundan chiqariladi. Kateterga bog'langan ikkala ipni esa burun teshidan chiqarib yechib olinadi. Shu ikkala ipni o'ng qo'l bilan qattiq tortib turib, chap qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari yordamida tamponni og'iz orqali halqumga kiritiladi, so'ngra tamponni iplaridan tutib turib, burun bo'shliqlari ham tamponlanadi, og'izdan va burundan chiqarilgan ip uchlarini burun teshigi oldida, paxta bolishcha ustida bog'lanadi (38, 39-rasm).

Qulqasalliklari yuz berishidan saqlanish uchun tamponni halqumdan 1—2 sutkadan keyin chiqariladi. Tamponni, uchinchi (og'izdan chiqqan) ipdan ushlab tortib olinadi.

Burun ko'p qonab bemor ahvolini og'irlashtirib qo'ygan hollarda 10%li kalsiy xlorid eritmasini ichish buyuriladi va qonning ivishini oshirish uchun kalsiy xlorid yoki vitamin «K» preparati — vikasol qo'llaniladi. Bularning



39-rasm. Burun orqa tamponadasi.

nafi bo'limasa kichik dozada (50—100 ml-dan) qon quyiladi. Qansharga sovuq kompress, ensaga esa muzli xalta qo'yish mumkin. Burundan kuchli qon ketganda tashqi uyqu arteriyasini bog'lash — so'nggi chora hisoblanadi.

O'TKIR VA SURUNKALI RINITLAR

O'tkir rinit

O'tkir rinit eng ko'p uchraydigan kasallik hisoblanadi. Etiologik omil jihatdan o'tkir rinit yuqumli va yuqumsiz bo'lishi mumkin.

Yuqumli rinitni keltirib chiqaruvchi mikroblarga streptokokk, stafilokokk, pnevmokokk, Fridlender tayoq-chasi kiradi. Sovqotish natijasida organizmning reaktiv kuchi va immunobiologik xususiyatlari susayadi, natijada mikroblarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Burun shilliq qavatining o'tkir infektion yallig'lanishi shunday yuzaga keladi. O'tkir yuqumsiz rinitlar ko'pincha mexanik va kimyoiy omillar ta'sirida kelib chiqadi. Ko'p hollarda yuqumsiz rinit yuqumli rinitga o'tishi mumkin, chunki jarohatlangan shilliq qavatlarga atrof-muhitdag'i patogen mikroblar ta'sir qilib, uni yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

Klinik manzarasi va morfologiysi bo'yicha o'tkir rinit 3 ta bosqichga yoki fazaga bo'linadi:

1. Boshlang'ich bosqich — burun shilliq pardasini qurishi va nafas olganda va chiqarganda og'riq, et uvishishi kuzatiladi;

2. Sekretsya bosqichi — birinchi fazadan 1—2 soatlar o'tgach yuzaga chiqadi, bunda burun bitishi, bosh og'rishi, juda ko'p surli suyuq sekret ajralishi, aksirish, tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi;

3. Uchinchi bosqich — bir necha kundan so'ng yuzaga chiqadi, bunda burundan quyuq yiringli ajralmalar chiqadi, bosh og'riyi, bemor bo'shashib, o'zida loxaslik sezadi.

O'tkir rinit shilliq qavatning giperemiyasi va shishidan boshlanadi. So'ngra yallig'lanishining barcha belgilari, ya'ni

Sels tetradasi: rubor, tumor, calor, dolor kuzatiladi. Bemor aksirib, burni achishadi, nafas olish qiyinlashib, peshona atrofida og'riq paydo bo'ladi. Organizmning himoya kuchiga qarab tana harorati ko'tarilishi mumkin. Burun shilliq qavatining hajmi kengayib ketganidan burun orqali nafas olib bo'lmaydi. Emizikli bolalarda esa bu emishga halaqt beradi. Burun kataklarining berkilib qolishi bemor ovozini o'zgartirib, u manqalanib gapiradi.

Burundan ko'p miqdorda tiniq suyuqlik ajrala boshlaydi, so'ngra ajralmalar quyuqlashib yiringli tusga kiradi.

Asoratlar. Tumovga yengil kasallik sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki uning oqibatida nafaqat burun, burun oldi bo'shlqlari balki boshqa qo'shni a'zolar (o'rta qulq, miya) kasalliklari kelib chiqishi mumkin. O'tkir kataral rinit butunlay tuzalib ketishi, yoki surunkali tus olishi mumkin.

Davosi:

1. O'tkir rinit endi boshlanganda bemorga virusga qarshi ta'sir qiladigan remantadin, dibazol, interferon, IRS — 19 dorilardan berish kerak.

2. O'tkir tumovda simtomatik davo ham qilinadi, ya'ni bosh og'rig'ini qoldiruvchi va isitmani tushiradigan dorilar, darmon dorilar buyuriladi va ko'p miqdorda suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Mahalliy davolashda burun bo'shlig'iga 2 tomchidan 2%li protargol, kollargol, naftizin, sanorin, tizin, pinosol tomiziladi, 2%li adrenalin eritmasiga namflangan turunda qo'yiladi.

Surunkali rinit

Surunkali rinit cho'zilib ketgan o'tkir rinit, atrof-muhitning salbiy omillarining ta'siri, surunkali sinusitlar, burun bo'shlig'idagi rinolitlar tufayli yuzaga keladi.

Surunkali rinitning quyidagi turlari tafovut qilinadi: kataral; vazomotor (allergik, neyrovegetativ); giprep-

lastik; atrofik; ozena (sassiq tumov). Har bir turning o'ziga xos belgilari mavjud.

Surunkali kataral rinit. Bemor doimiy yoki vaqtiga qarab bilan kuzatiladigan burun bitishdan (ayniqsa chalqancha yoki yon boshlab yotganda) shikoyat qiladi. Burundan ko'p shilimshiqli ajralma chiqadi, hid bilish susayadi, loxaslik, bosh og'rishi, og'iz qurishi kuzatiladi.

Kasallik ko'pincha o'tkir kataral tumovdan keyin yuzaga chiqib, bir necha oydan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Asorati sisatida o'rtta qulqoqning yallig'lanishi, sinusitlar paydo bo'lishi mumkin.

Surunkali kataral rinitda burundan nafas olishning buzilishi, tish kasalliklarini (kariyes, gingivit) kelib chiqishi sabab bo'ladi.

Davolash: faqat mahalliy davo qilinadi. Sekretsiyani kamaytiruvchi, shilliq pardanining qurishiga olib keluvchi malhammlar, tomchi dorilar (protargol, kollargol) qo'llaniladi.

Surunkali vazomotor rinit. Hozirgi vaqtida vazomotor rinitning 2 turi tafovut qilinmoqda: allergik va neyrovegetativ. Ikkalasi ham bir-biriga o'xhash klinik manzaraga ega.

Allergik turi yuqori nafas yo'llari orqali organizmga turli allergenlarni (chang, kimyoviy modda, jun, qush pati) kirishiga bog'liq. Bunday allergenlarga sezgirlik tug'ma va ortirilgan bo'lishi mumkin.

Allergik rinit belgilari — aksirish, transsudatsiya, vazo-motor va sekretor buzilishlar.

Neyrovegetativ tur sovqotishga o'ta sezgir odamlarda uchraydi. Uni allergik rinitdan farqlash uchun allergologik analiz yig'ish, burun shilimshig'ini eozinofillarga tekshirish, turli allergenlarga sinamalar o'tkazish kerak.

Davolash: davo umumiy va mahalliy tadbirlardan iborat. Tomirlar o'tkazuvchanligini kamaytiruvchi nospetsifik giposensibilatsiyaga olib keladigan dori moddalar (klaritin, pipolfen, suprastin, dimedrol, kalsiy xlorid) qo'llash lozim.

Burun bo'shlig'i shilliq pardasining refleksogen zonalaring faoliyatini susaytirish uchun 10 % li kumush nitrat eritmasi qo'llaniladi.

Surunkali giperplastik rinit. Kasallik burun yo'llari ning torayishi bilan kechadi. Bu nafas olish va chiqarishni qiyinlashtiradi. Shilliq pardaning gipertrofisiyalangan bezlarning faoliyati kuchayib burundan ko'p yiringli shilimshiq ajraladi.

Davolash: yengil hollarda — kollargol, protargol ishlatiladi. Og'ir hollarda xirurgik usul qo'llaniladi (40, 41-rasm).


Atrofik rinit. Atrofik rinit avitaminoz, gormonal o'zgarishlar, yuqumli kasalliklar bilan og'riganda, tarkibida chang, gaz bo'lgan havo bilan muntazam nafas olinganda paydo bo'ladi.

Bemorlar burnining qichishishidan, bitib qolishidan, xid sezishning buzilganidan, tez-tez qatqaloq paydo bo'lishidan va u ko'chganda qonashidan shikoyat qiladilar.


Rinoskopiyada burun yo'llari kengaygani, shilliq parda oqarib yupqalashgani aniqlanadi.

Davolash: bemorga biogen stimulyatorlar va tarkibida A vitamin bo'lgan preparatlar buyuriladi. Mahalliy davolash uchun qatqaloqlarni ishqorli eritma bilan yuvilib burunga o'simlik moyi tomiziladi, yumshaganidan so'ng tozalanib, 0,25% li Lyugol eritmasi surtiladi.

Ozena (sassiq tumov). Ozena — burun bo'shlig'inining surunkali kasalligi bo'lib, uni



40-rasm. Diatermokoagulyator.



41-rasm. Lazer apparatlari.

klebsiyellalar keltirib chiqaradi. Bu kasallikda shilliq parday yupqalashib, tomirlar soni kamayadi, bezlar juda kam shilliq ajratadi, u badbo'y hidli bo'ladi, chunki uning tarkibida indol, fenol, oltingugurt, ammiak va yog' kislotalari bo'ladi.

Bemor asosan qiynalib nafas olishidan, hid sezmaslidan, burun ichi juda quruqligidan va qatqaloqlar ko'p yig'ilishidan shikoyat qiladi.

Rinoskopiyyada burun devorlarida ko'p miqdorda qatqaloqlar borligi, ular atrofiyaga uchraganligi ko'rindi.

Davosi: burundagi qatqaloqlarni olib tashlb, burun bo'shlig'ini eritmalar bilan yuviladi, namlanadi. Tozalangan shilliq pardaga borat kislota kukuni aralashmasi purkaladi. Umumiy davolashda vitaminlar (A, D, B guruhi), antibiotiklar, autogemoterapiya yaxshi natija beradi.

Burunning yondosh sinuslari yallig'lanish kasalliklari (kataral va yiringli sinusitlar)

Burun yondosh sinuslarining yallig'lanishi ko'pincha burun bo'shlig'idagi tabiiy teshiklar orqali ularga mikroorganizmlar tushishi natijasida kelib chiqadi. Bular gripp virusi, streptokokk, stafilokokk, diplokokk, difteriya tayoqchasi bo'lishi mumkin.

Xronik sinusitlar turli xil umumiy va mahalliy noqulay omillar ta'sirida, ya'ni organizm reaktivligining pasayishi va organizmning quvvatsizlanganida, burun bo'shlig'i shilliq pardasining gipertrofiyasida, burun to'sig'inining qiyshayishi, surunkali tish kasalliklari natijasida kelib chiqadi. Bir vaqtning o'zida bir necha sinuslarning yallig'lanishi pansinusit yoki gemisinusit deb ataladi.

Yuqori jag' bo'shlig'inining o'tkir yallig'lanishi (gaymorit)

Suyak kavaklarining o'tkir yallig'lanishiga o'tkir respirator kasallik, gripp, sovqotish, umumiy o'tkir mikroblı infeksiyalar, jarohatlar sabab bo'lishi mumkin.

Gaymorit yengil kechganda bemor yuqori jag' va peshona sohasidagi biroz og'riqdan, terining taranglashuvi hamda burunni bir tomonlama bitib qolishidan shikoyat qiladi. Og'ir kechganda esa og'riq zo'rayib, bunga tish og'rig'i ham qo'shiladi. Bemorning lunji shishib, tana harorati ko'tariladi.

Burundan avvaliga suyuq, serozli so'ngra yopishqoq va yiringli ajralmalar ajraladi. Burundan nafas olish qiyinlashib, bemor og'zidan nafas olishga majbur bo'ladi.

Rinoskopiyada burun shilliq pardasi qizarib, biroz shishganligi, o'rta chig'anoq ostidan yiring oqishi kuzatiladi. Bemorni rentgenoskopiya qilib qaysi bushliqlar zararlanganini tekshirib ko'rgandan so'ng, punksiya qilib,

shprits yordamida sinus ichidagi suyuqlik so'rib olinadi va dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuviladi. Yuvishta bosh oldinga yoki pastga egib turiladi, eritmalar burunning tabiiy teshigidan tashqariga chiqib ketadi. So'ngra bo'shliqqa igna orqali antibiotiklar yuboriladi.

Bemorni umumiy davolashda isitma tushiradigan preparatlar beriladi. Burun bo'shlig'i shilliq qavatining shishini qaytarishi uchun 0,1% li adrenalin eritmasida namlangan turunda qo'yish lozim.

Fizioterapeutik omillardan, ko'k lampa bilan isitish, sollyuks lampasida yoritish, ultrabinafsha, lazer nurlari bilan nurlantirish yaxshi natijalar beradi.

Surunkali gaymorit


Surunkali gaymorit odatda to'la tuzalmagan o'tkir yallig'lanishdan so'ng kuzatiladi. Ba'zida yuqori jag' tish ildizining yallig'lanishi, chirishi ham surunkali gaymoritga sabab bo'lishi mumkin.

O'tkir gaymoritning surunkaliga o'tishiga o'tkir jarayonning retsidivlari, burun to'sig'inining qiyshayishi, gipertrofik rinit, adenoidlar mavjudligi, immun tizimning buzilishi, burun bo'shlig'i mikroflorasining yuqori patogenligi, yashash va mehnat qilish sharoitlarining qoniqarsizligi sabab bo'lishi mumkin.

Bunda bemor burnining bir tomoni bitib qolishidan, yiring aralash suyuqlik oqishi, bosh og'rig'idan va hid sezish qobiliyati pasayganligidan shikoyat qiladi. Bosh og'rig'i engashganda va kunning ikkinchi yarmida ayniqsa kuchayadi.

Rinoskopiyada o'rta burun yo'llarida yiringli ajralmalar, o'rta va umumiy burun yo'llarini to'ldirib turgan poliplar borligini aniqlash mumkin.

Shilliq parda rangi patologik jarayon xarakteriga bog'liq bo'lib, yiringli turlarda giperemiya, allergik turlarda esa — sianoz aniqlanadi.



42-rasm. Yuqori jag' bo'shlig'ini punksiya qilishda ishlataladigan asbob-anjomlar yig'masi:

- 1 — burun zondi; 2 — burun ko'zgusi; 3 — Kulikovskiy ignasi;
- 4 — 10 ml hajmdagi shprits;
- 5 — anestetik eritmasi (10 % li lidokain eritmasi);
- 6 — antispektik eritma uchun idish;
- 7 — paxta hamda doka sharchalar.

Poliplar xafsiz hosilalar bo'lib, zond bilan palpatsiya qilinganda siljiydi. Ular patologoanatomik jihatdan turli-

cha tuzilgan. Jag' bo'shlig'ini punksiyasi yallig'lanish xarakterini aniqlashga, bakteriologik tekshiruvga material olishga, turib qolgan yiringli sekretni olib tashlashga, dori moddalarni yuborishga yordam beradi.



43-rasm. Pastki burun yo'li orqali yuqori jag' sinusini punksiya qilish sxemasi.



44-rasm. Yuqori jag' bo'shlig'idagi operatsiya bosqichlari:

- lab osti burma bo'ylab yumshoq to'qimalarni kesish;
- yumshoq to'qimalarni ajratish va bo'shliqni ochish;
- yuqori jag' bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining pastki burun yo'li o'tasiga te shik ochish.

Davolash: konservativ va jarrohlik usulida olib boriladi. Ko'p hollarda xirurgik davo, punksion usul, uzoq muddatli drenaj, burun bo'shlig'idan poliplarni olib tashlash qo'llaniladi. Agar punksion usul ikki hafta mobaynida natija bermasa, yuqori jag' bo'shlig'ida radikal operatsiya o'tkaziladi (42, 43, 44-rasm).

G'alvirsimon labirintning yallig'lanishi (etmoidit)


Etmoidit ko'pincha burun oldi bo'shliqlarining zararlanishi bilan kechadi. Bemor qanshar va ko'z kosasi sohasidagi og'riqdan, burun orqali nafas olishi qiyinlashganidan, burundan shilliqli va yiringli ajralmalar oqishidan, bosh og'rigidan, tana haroratining ko'tarilishidan shikoyat qiladi.

Rinoskopiyada: o'rta burun yo'lidagi shilliq pardaning shishganini va shilliq - yiringli ajralmalarni ko'rish mumkin. O'rta chig'anoqlar hajmi kattalashib, burun to'sig'iga yopishib turadi. Shilliq qavatdagagi o'zgarishiga qarab poliplarni aniqlash mumkin.

Davolash: g'alvirsimon bo'shliqni igna bilan teshib, uning kataklarini yuvishdan iborat. Poliplar olib tashlangach, g'alvirsimon labirint bo'lmachalari ochiladi. Konservativ yallig'lanishga qarshi davo olib boriladi.

Peshona bo'shlig'ining yallig'lanishi (frontit)

Kasallik o'tkir respirator infeksiya va rinit, etmoidit zamirida kelib chiqadi, uning rivojlanishiga burun bo'shlig'idagi patologik o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin. Be-mor bosh og'rigidan, ayniqsa peshona sohasidagi og'riqdan, burun bitishidan, hid sezishning buzilganidan shikoyat qiladi. Peshona bo'shlig'ining oldingi va pastki devorlari paypaslab ko'rildganda og'riq seziladi. Rentgeno-



45-rasm. O'ng tomondagi peshona sinusi operatsiyasi.

grammada peshona bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilganini ko'rish mumkin. Rinoskopiada o'rta burun yo'llarida yirrigli yoki shilimshiqli ajralmalar aniqlanadi.

Davolash: agar ekssudat bo'shliqda to'xtab qolib, natijada kasallik zo'raysa peshona bo'shlig'ini trepanopunksiya qilinadi. Buning uchun maxsus asbob yordamida peshona bo'shlig'ining oldingi devori teshiladi va bo'shliqqa metall kanyulya kiritiladi. Kanyulya

orgali bo'shliqni har kuni dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuviladi (45-rasm).

O'tkir yallig'lanish vaqtida konservativ usullar bilan peshona-burun yo'lining o'tkazuvchanligini tiklanishiga erishish kerak: burunga tomirlarni toraytiruvchi tomchilar yuborish, shishga qarshi, isitma tushuruvchi, sulfanilamid vositalar, antibiotiklar buyuriladi.

Ponasimon bo'shliqning yallig'lanishi (sfenoidit)

Kasallik ko'pincha o'tkir etmoidit, frontit, gaymorit bilan birga kechadi.

Bemor burnidan yiringli yoki shilimshiqli ajralma kelishidan, burun bitishidan, ensa va peshonaga beradi-gan bosh og'rig'idan, toliqishdan, hid sezishning yo'-qolganidan shikoyat qiladi.

O'tkir sfenoidit shilliq pardalarda kuchli shish paydo bo'lishi bilan kechadi. Patologik jarayon bir yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Rinoskopiada yuqori va o'rta burun yo'lida shish va yiringli sekret borligi aniqlanadi. Rentgenogrammada asosiy bo'shliqning g'alvirsimon labirint bo'l machalarida qorong'ilashuv(soya) ko'rindi.

Davolash: yuqori burun yo'lini muntazam ravishda adrenalizatsiya qilib, antibiotik va sulfamilamid preparatlar, fizioterapiya muolajalari buyuriladi. Ko'rish o'tkirligining pasayishi, sepsis simptomlarning rivojlanishi ko'rinishidagi asoratlarda asosiy bo'shliq operativ usul bilan ochib qo'yiladi.

Rinogen asoratlar

Bu yallig'lanish jarayonining ko'z kosasi va kalla suyagi ichiga o'tishi natijasida yuzaga keladi. Bu bevosita yallig'-langan joydan, qon yoki limfa yo'llari orqali o'tadi. Chunki burun va uning yondosh bo'shliqlari bevosita ko'z kosasi va kalla suyagi bilan chegaradoshdir.

Ko'z kosasi asoratlari. G'alvirsimon bo'shliqning yiringli yallig'lanishi va yuqori suyakning chirishidan kelib chiqishi mumkin. Infeksiyaning sinusdan ko'z kosasi sohasiga o'tishiga ko'z kosasining anatomik joylashishi, shuningdek, qon tomirlar va nervlar o'tadigan qator anatomik tutash yo'llar sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda yallig'lanish tug'ma to'liq bitmay qolgan yoriqlar (degissen-siyalar) orqali tarqaladi.

O'tkir frontitning ko'z kosasidagi asoratlarining asosiy belgilariga ko'z soqqasi harakatlanishining cheklanishi va pastga siljishi hamda og'riq kiradi. Kasallikning boshlanishida ko'z kosasining yuqori medial devorida sub-

periostal abscess paydo bo'ladi. Yuqori qovoqning harakati odatda chegaralangan, u qizargan va shishgan bo'ladi.

G'alvirsimon labirint yallig'langanda ko'z kosasida va ko'zda juda og'ir asoratlar kuzatiladi.

G'alvirsimon labirint orqa katakchalarining va ponasi-mon sinus yallig'lanishining ko'z kosasiga tarqalishi ko'rish o'tkirligining pasayishiga va ko'ruv maydonining tora-yishiga, skotomaning kattalashuviga va boshqalarga sabab bo'ladi. Yuqori jag' suyagi sinusining yallig'lanishi kamdan-kam hollarda ko'z asoratlariga sabab bo'ladi, faqat sinus yuqori devorining suyak ustki pardasi ostida abscess rivoj-lanishi retrobulbar flegmonaga sabab bo'lishi mumkin.

Yallig'lanishga qarshi umumiy davo bilan birga xirurgik davo qo'llanadi. Burunning qo'shimcha sinuslarini, ayniqsa, bolalarda g'alvirsimon labirint katakchalarini, tashqi tomondan xirurgik yo'l bilan ochish lozim.

Quyidagi asoratlar ko'proq uchraydi: suyak va suyak usti pardasining yallig'lanishi (osteoperiostit), subperiostit, xo'ppoz, ko'z kosasining tarqoq yiringli yallig'lanishi (flegmona).

Kalla suyagi ichi asoratlariga serozli va yiringli meningit, miya abssessi, kavernozi sinusning trombozi va boshqalar kiradi.

Sinus trombozi. Kavernozi (g'orsimon) sinus trombozi septik xarakterga ega bo'ladi. Bemorning ahvoli og'irlashib, eti uvishadi, terlaydi, isitmasi ko'tariladi. Ekzoftalm, qovoqlar va kon'yunktivaning shishishi, ko'z to'rt pardasiga qon quyilishi mumkin.

G'orsimon sinusga tromb tarqalganda mahalliy simptomlar 2 tomonlama bo'ladi. Jarayon sinusdan miya pardalariga va miya muddasiga o'tishi mumkin. Tromb bo'laklari ichki a'zolarga qon tomirlari orqali tarqalganda ularni zararlashi mumkin.

Serozli meningit. Klinik jihatdan kasallik miya pardalarining yallig'lanishi va kalla miya ichi bosimining oshishi simptomlari bilan namoyon bo'ladi.

Yiringli meningitda yallig‘lanish jarayoni bosh miyaga va kalla miya nervlariga tarqaladi. Kasallik og‘ir kechadi. Bemorning harorati ko‘tarilib, meningeal simptomlar paydo bo‘ladi.

Bemor kuchli bosh og‘rig‘idan, ko‘ruv va eshituv ta’sirlarga sezgirlingini ortganidan shikoyat qiladi. Jarayonning miya asosiga tarqalishi natijasida kalla-miya nervlarining parezlari kuzatiladi.

Miya abssessi. Miyaning peshona bo‘lagi abssessi ko‘proq uchrab, miya pardalarining yallig‘lanishi bilan bog‘liq simptomlar kuzatiladi. Keyinchalik abssessning kuchayishi yuzaga chiqib, yiringlash jarayoniga xos bo‘lgan simptomlar paydo bo‘ladi. Bu davrda kalla ichi bosimining oshishi va miyaning peshona bo‘lagi moddasining yallig‘lanishi kuzatiladi. Peshona abssessiga uchragan bemorlarda sensor va asabiy, ruhiy o‘zgarishlar kuzatiladi.

Davosi: shoshilinch hollarda yallig‘langan bo‘shliqni radikal operatsiya qilinadi. Yiringli meningitda kalla bo‘shlig‘i trepanatsiya qilinib miya pardasini ochib drenaj qilinadi. Kuchli antibiotiklar, dezintoksikatsion terapiya buyuriladi.

BURUN BO‘SHLIG‘I O‘SMALARI

Xavfsiz o‘smalar. Burun bo‘shlig‘ida ko‘pincha tomirli hosilalar paydo bo‘ladi. Ular burun shilliq pardasida paydo bo‘ladi yoki qo‘shti sohalardan tarqab burun bo‘shlig‘iga chiqadi — burun to‘sig‘i osteomasi, kalla asosi angiosfibromasi. Ularning asosiy belgilari — og‘riq (bosh va yuz sohalarida), nafas olishning buzilishi. Nafas olish qiyinlashidan tashqari bemorlar burnidan qon kelishidan, ayrim hollarda yiring ajralishidan shikoyat qiladi. O’smaling o‘lchamlarini rinoskopiya vaqtida aniqlash mumkin.

Davolash: asosan xirurgik usulda amalga oshiriladi (46, 47-rasm). O‘smalar olib tashlangandan keyin ularni o‘rnini elektrkauter yoki lazer nuri yordamida kuydiriladi.



46-rasm. Pastki burun chig'anog'ini kesish sxemasi.

Xavfli o'smalar burun bo'shlig'ida kam uchraydi, bu asosan 60—70 yoshlardagi erkaklarda kuzatiladi. Xavfli o'smalardan rak yoki sarkomaning tashqi ko'rinishi ularning histologik tuzilishlariga bog'liq. Ko'pincha ular g'adir-budur, yaralangan, konsistensiyaga ega bo'lib, to'qimalar rangi kulrang bo'ladi.

Klinik manzarasi. Asta-sekin kuchayib borayotgan nafas olishning qiyinlashuvi bilan birga, bemor yiringli, sel



47-rasm. Ilmoq yordamida burun bo'shlig'idan poliplarni olib tashlash:
1 — xoanal polip; 2 — g'alvirsimon labirintdagi poliplar.

aralash ajralmalar, bosh og'rig'i, yuz sohasidagi nevralgik og'riqlardan shikoyat qiladilar. Regionar limfatik bezlarda metastazlar hosil bo'ladi. Diagnoz qo'yishda biopsiyaning o'rni kattadir.

Davolash: xirurgik kimyo va nur terapiya usulidan iborat. Davolashdan oldin og'iz bo'shlig'i sanatsiya qilinishi shart.

Burun oldi bo'shliqlarining (sinuslarning) o'smalari

Xavfsiz o'smalar. Ular o'sish vaqtida sinuslar devorlari chegarasidan tarqab, devorlar destruksiyasiga olib kelishi mumkin. Buni bemorlar tekshirilganda va rentgenologik tekshiruvlarda aniqlash mumkin.

Osteoma — suyak to'qimalarining xavfsiz o'smasi. Barcha burun oldi bo'shliqlarda ko'proq g'alvirsimon va peshona sinuslarida aniqlanadi. Oldiniga osteoma sinus ichida o'sadi va qarshilikka duch kelmaydi, lekin kattalashish mobaynida sinus devorlariga tegib ularning buzilishiga olib keladi. O'sma sinus chegarasidan chiqib ketganda turli asoratlar yuzaga chiqadi. Kasallikning ilk belgisi — bosh og'rig'i.

Davolash: asosan xirurgik usulda amalga oshiriladi.

Xavli o'smalar boshqa sinuslarga nisbatan yuqori jag' sinusida besh marotaba ko'proq uchraydi. Aksariyat hollarda bu o'smalar birlamchi bo'lib bu asosan rak va sarkomalardir. Bunda metastazlar kech paydo bo'ladi. Ularning kechishida ham barcha boshqa lokalizatsiyali o'smalarga o'xshash to'rt bosqichda tafovut qilinadi.

I bosqich — o'sma faqat yuqori jag' bo'shlig'ida, metastazlar yo'q.

II bosqich — o'sma sinusning suyakli devorlariga o'tib, ularni buzishi mumkin, lekin sinus chegarasidan chiqmaydi. Regionar limfatik bezlarda metastazlar kuzatiladi.

III bosqich — o'sma sinus chegarasidan chiqib, ko'z kosasi, burun bo'shlig'i, tanglayga tarqaydi, barcha regionar limfatik bezlarda metastazlar mavjud.

IV bosqich — o'sma yuzning yumshoq to'qimalariga tarqab, regionar va uzoqda joylashgan limfatik bezlarga metastazlar beradi.

Klinik manzarasi. Patologik jarayon uzoq muddat simptomsiz kechadi. Kasallik simptomatikasi o'smaning joylashishiga bog'liq. Yuqori jag' o'smasini gumon qilishga sabab bo'luvchi belgilardan biri — bu ko'z kosasidagi og'riq bo'lib, mazkur og'riq tunda zo'rayadi. Bemorning nafas olishi qiyinlashadi. Burundan qon ketishi, burun shilliq pardasi yallig'lanishi mumkin.

Yuqori jag' o'smalarini aniqlashda va ularga to'g'ri baho berishda kompyuter tomografiyasi katta ahamiyatga ega. O'smaning gistologik tekshiruvi diagnostiki tasdiqlashga yordam beradi.

Davolash: mujassamlangan — xirurgik davo, kimyo-terapiya, nurlash.

Burun sohasidagi operatsiyalarga bemorlarni tayyorlash

Operatsiyadan oldin ya'ni kechqurun bemor gigiyenik vanna qabul qilishi lozim (erkaklar soqollarini olishlari kerak, chunki yuzdagagi tuklar teriga to'g'ri ishlov berishga xalaqit beradi va operatsiyadan so'ng jarohatning yaxshi bitmasligiga sabab bo'lishi mumkin). Burun bo'shlig'i va burunning qo'shimcha bo'shliqlaridagi operatsiyalarda operatsiya maydoni dezinfeksiyasi umumiy xirurgiyadidan farq qiladi. Burun bo'shlig'ini shilliqlardan yoki patologik ajralmalardan kesigi bor burun zondiga o'ralgan paxta tampon yordamida ehtiyyotlik bilan tozalash lozim, so'ngra ikki marta yuz terisi 76% li spirt bilan artiladi.

Poliklinika yoki statsionar sharoitida operatsiya qilish mumkinligiga ruxsat beradigan hujjatlarni nazorat qilib borish meditsina hamshirasi vazifasiga (ayniqsa operatsiya xonasida ishlaydigan) kiradi. Lor a'zolari patologiyasi bo'lgan bemorlarda ayrim operatsiyalar poliklinikaning operatsiya xonalarida qilinishi mumkin. Bularga: burun

to'sig'ini shilliq parda ostidan kəşish, har xil hajmdagi konxotomiyalar, polipotomiyalar, g'alvirsimon labirintlar katakchalarini ochish, yuqori jag' suyak sinusini endonazal ochish, peshona sinusini trepanopunksiyalari, har xil o'ziga xos biopsiyalar kiradi. Bu operatsiyalar odatda 0,5—1 % li novokain eritmasi bilan mahalliy infiltratsion anestesiya qilib yoki 1—3 % li dikain yoki ksikain eritmasiga adrenalin gidroxlorid eritmasini 1:1000 nisbatdagi konsentratsiyasidan tomchilab qo'shib yoki 5—10% li kokain eritmasi bilan qilingan anestesiya ostida o'tkaziladi.

Ko'pincha poliklinikalarda 55 yoshgacha bo'lgan kishilar operatsiya qilinadi. Bu operatsiya davrida boshqa a'zolar va sistemalarda asoratlar qolishi va bunday hollarda intensiv terapiya yordami ko'rsatish zarur bo'ladi. Poliklinika sharoitida operatsiya qilish uchun bemorlarda qonning umumiylahili, qonning oqish vaqtini, ivishini, siydkining umumiylahili; ko'krak qafasi a'zolari rentgenoskopiyasining ma'lumoti, burun va qo'shimcha sinuslar rentgenogrammasi (patologik jarayonga bog'liq holda bir yoki bir necha proyeksiyada), qonning Vasserman reaksiysi, qon guruhi, rezus-faktori, boshqa ichki a'zolarda monelik ko'rsatadigan belgililar yo'qligi to'g'risida terapevtning xulosasi, tish-jag' tizimi holati va tishlarni sog'lomlashtirilganligi to'g'risida stomatolog xulosasi bo'lishi kerak. 40 yoshdan oshgan odamlarda operatsiyadan oldin EKG qilinadi.

Shuni qayd qilish kerakki, poliklinikaning operatsiya xonasiga bo'lgan gigiyenik talablar har qanday boshqa xirurgik bloklarga qo'yilgan gigiyenik talablar kabitidir.

Mreditsina hamshirasi tibbiy asboblar va bog'lov materiallarini o'z vaqtida sterilizatsiyalanganligini, anestetiklarning sterillanganligini, ularning yaroqlilik muddatlarini nazorat qilib borishga majbur. Hamshira operatsiyadan oldin xirurgga anestesiya qiluvchi eritmalar tayyorlangan vaqtini ko'rsatishi shart.

Statsionar sharoitida operatsiyaga tayyorlash uchun qo'yiladigan talablar yuqorida sanab o'tilganlarga o'xshash. Xirurg operatsiya xonasida baxillada va operatsion maxsus kiyimda bo'lishi kerak, meditsina hamshirasi esa shifokorning kerakli narsalar bilan ta'minlanishiga ogoh bo'lib turishi kerak.

Bemorni burunning qo'shimcha sinuslardagi operatsiyalarga tayyorlash va operatsiyadan keyingi davrdagi parvarish

Statsionarda bemorni operatsiyaga tayyorlashda bevosita qatnashadigan meditsina hamshirasi doimo uning yonida bo'lishi lozim. Xirurg — shifokor yoki anestezio-logning ko'rsatmasi bo'yicha u bemorlarga uxlaturvchi, sedativ va antiallergik dorilarni beradi va ularni qabul qilishini nazorat qiladi, termometriya o'tkazadi, fiziologik ehtiyojlarini tekshiradi, ularning ahvolini kuzatib boradi.

Poliklinika sharoitida bemorni, operatsiyadan oldin tayyorlash uchun xodimlar uni aravachaga yotqizgan holda operatsiya xonasiga olib boradilar. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni kuzatish va parvarish qilishni bemorni xonaga olib kelinishi bilanoq boshlash kerak. Bunda oldin hamshira bemorga o'rin tayyorlaydi, choyshab va bolishlar kamroq ifloslanishi uchun ustidan nam o'tkazmaydigan pelyonkalar to'shaladi va bemorning boshini balandroq qilib yotqiziladi. Operatsiya qilingan sohaga sochiq yoki pelyonkaga o'ralgan muzli xaltacha qo'yiladi, xaltacha 6—8 soat turadi, har 30—40 daqiqada 10—15 daqiqaga olib qo'yiladi.

Hamshira qo'shimcha sinuslarda qilingan operatsiyadan keyin birinchi kun burundan qon ketishi mumkinligini hisobga olib nazorat qiladi va qon paydo bo'lishi bilanoq bu haqida zudlik bilan shifokorga xabar beradi. Operatsiyadan keyin 4—5 kun davomida bemor iliq va suyuq ovqat iste'mol qilishi lozim. Hamshira har kuni bemorning axlati va siydigini tekshirib turadi. U yuqorida

sanab o'tilgan tadbirlar bilan bir qatorda umumiy xirurgiyada operatsiyadan keyingi davr tadbirlarini ham bekamu ko'st bajaradi.

MASALALAR

№1. Burunning o'ng tomonidan qon oqayotgan bemor shifokorga murojaat qildi. U ko'zdan kechirilganda burun to'sig'i-ning oldingi uchdan bir qismida qonab turgan soha aniqlandi. A/B - 180/110 mm simob ustuniga teng, tomiri minutiga 98 marta urib turibdi, pulsi tarang.

1. Qon ketishini to'xtatish va qaytaланmasligining oldini olish uchun ko'rila digan zarur tadbirlarni aytib o'ting.

№2. Burun sohasiga musht bilan jarohat olgan 13 yoshli o'spirin burun sohasida og'riq, burundan nafas olishi qiyinlashganidan shikoyat qilmoqda. Burundan ketayotgan qon o'z-o'zidan to'xtadi.

1. Tashxisni aniqlash uchun nima qilish kerak?

2. Birinchi yordam chora-tadbirlari.

№3. Bemor peshona sohasida bosh og'rig'idan shikoyat bilan shifokorga murojaat qildi. Og'riq kechqurun, boshni pastga engashtiргanda kuchayadi. Burunning bir tomoni yopilib qolgan.

Rinoskopiya da o'rta burun yo'llarida sarg'imtir ajralma aniqlandi.

1. Tashxisni aniqlash uchun nima qilish kerak?

№4. Bemor burunga kirish qismida paydo bo'lган furunkulni siqib tashlagan. Ma'lum muddat o'tgach uning eti uvishib, tana harorati keskin ko'tarilgan. 3 soatdan so'ng tana harorati tushgan, bunda ko'p miqdorda terlash kuzatilgan.

1. Qanday asorat haqida gumon qilish mumkin?

2. Infeksiya tarqash yo'li qanday?

№5. 60 yoshli bemorda gipertonik kriz vaqtida burundan qon ketishi kuzatilmoxda.

1. Uy va shifoxona sharoitida qanday yordam ko'rsatish turlaridan foydalanish mumkin?

TEST SAVOLLARI

1. Chegaralangan yiringli yallig'lanish, labning tepe qismi va burunning kirish qismi soch xaltasining chegaralangan yiringli yallig'lanishi.

- A. Saramas.
- B. Sikoz.
- C. Rinofima.
- D. Ekzema.

2. Qizargan, shishgan, ustki epidermisning shilinishi, ayrim joylarda pufaklar, burunning kirish qismidagi qatqaloqlar, terining yorilishi — bu klinik ko'rinishlar qaysi kasallikka xos?

- A. Ekzema.
- B. Sikoz.
- C. Burunning kirish qismida furunkul.
- D. Saramas.

3. Sikoz qo'zg'atuvchisi?

- A. Streptokokk.
- B. Pnevmonokokk.
- C. Yaltiroq stafilokokk.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

4. Tekshirish natijasida sochning yuqori chiqish qismida qizil rangdagi tugunlar kuzatiladi:

- A. Burun kuyishi.
- B. Burun muzlashi.
- C. Saramas.
- D. Sikoz.

5. Qanday kasallikda chegaralangan yallig'lanish joyida qattiq og'riq, terida konussimon infiltrat kuzatiladi?

- A. Sikoz.
- B. Pushti rang husnbuzar.
- C. Oddiy husnbuzar.
- D. Burunning kirish qismida furunkul.

6. Quyidagi simptomlar qaysi kasallikka xos?

Har doim nafas olishning qiyinlashuvi, ko‘p miqdorda shilimshiq yiringli ajralma.

- A. Surunkali kataral rinit.
- B. Surunkali gipertrofik rinit.
- C. Surunkali atrofik rinit.
- D. Badbo‘y tumov.

7. Ozena ko‘proq kimlarda uchraydi?

- A. Ayollarda.
- B. Erkaklarda.
- C. Bolalarda.
- D. Qarilik davrida.

8. Qaysi simptom ozenaga xos emas?

- A. Burun qichishishi.
- B. Qatqaloqlarning kam bo‘lishi.
- C. Og‘ir, yoqimsiz hid.
- D. Ko‘p miqdorda shilimshiq yiringli ajralma.

9. O‘tkir rinitning davom etishi:

- A. 6—8 kun.
- B. 8—10 kun.
- C. 8—14 kun.
- D. 10—15 kun.

10. Burun to‘sig‘ining deformatsiyasida bemorning asosiy shikoyatlari?

- A. Kokosmiya.
- B. Nafas olishning buzilishi.
- C. Oz miqdorda qon oqishi.
- D. Hamma javoblar to‘g‘ri.

11. Qaysi belgilar surunkali rinitga xos emas?

- A. Shilliq parda och qizil rangda.
- B. Shilliq parda to‘q ko‘k rangda.
- C. Shilliq parda och ko‘k rangda.
- D. Shilliq parda och pushti rangda.

IV bob. HALQUM KASALLIKLARI


Halqum anatomiyasi

Halqum (pharynx) — ovqat xazm qilish yo'lining boshlang'ich qismi. Shu bilan birga u yuqori nafas yo'llarining bir qismi, burun bo'shlig'ini hiqildoq bilan bog'lab turadi. Halqum mushak nayi bo'lib, kalla asosidan boshlanib I—II bo'yin umurtqasigacha davom etadi. Past qismida halqum qizilo'ngachga o'tadi.

Halqum 3 qismdan iborat: yuqori — burun qismi, yoki burun-halqum; o'rta—og'iz qismi yoki og'iz-halqum; pastki — hiqildoq qismi yoki hiqildoq-halqum.

Halqumning burun qismi — xoanalar yordamida burun bo'shlig'i bilan bog'lanadi. Uning yon devorlarida eshitish (Evstaxiy) naylarining halqum teshiklari ochiladi. Bu teshiklar burun-halqumni chap va o'ng nog'ora bo'shliqlari bilan bog'lab turadi. Halqumning yuqori va yon devorlarida limloid to'qimasining yig'indisi joy olgan. Ular halqum (III., retronazal bodomcha bez, Lyushke bezi) va paylarning (V va VI) bodomcha bezlarini hosil qiladi.

Halqumning og'iz qismi oldidan og'iz bo'shlig'iga ochiladi, orqa devori III bo'yin umurtqasi bilan chegaradosh, pastda esa halqumning hiqildoq qismiga o'tib ketadi. Og'iz bo'shlig'i yuqorida yumshoq tanglay va tilcha, pastda — til ildizi, yonlarida — old va orqa tanglay yoylari bilan chegaralangan. Tanglay yoylari orasidagi chuqurchada ikki tomondan I va II tanglay bodomcha bezlari joylashgan (27-rasm). Ularda 16—18 ta chuqur egilgan va shoxlangan lakunalar tavofut qilinadi (kriptalar). Halqumning hiqildoq



48-rasm. Og'iz-halqum.

1 — til ildizi; 2 — oldingi tanglay yoychasi; 3 — lakuna teshikchasi;
4 — orqa tanglay yoychasi; 5 — yumshoq tanglay; 6 — og'iz-halqumning orqa devori; 7 — og'iz-halqumning orqa devorlari da limfold to'qima granulalari.

qismi bo'yining IV, V va VI umurtqalari sohasida joylashgan. Halqumning old devorining til ildizi bilan hosil bo'lgan past qismida til (IV) bodomcha bezi joylashgan. Halqumning limfold to'qimasi — tanglay, nay, halqum, til, bodomcha bezlari va mayda limfadenoid to'qimaning yig'indilari halqumning limfatik halqasini hosil qiladi (Pirogov — Valdeyer halqasi). Bodomcha bezlarining asosiy vazifasi organizmni infeksiyalardan himoya qilishdir (48-rasm).

Halqum devori 4 qavat pardadan iborat: shilliq, fibroz, mushakli va biriktiruvchi.


Halqumning qon bilan ta'minlanishi tashqi uyqu arteriyasidan amalgaliga oshiriladi, pastki qismi esa qon bilan yuqori qalqonsimon arteriyadan ta'minlanadi. Innervasiya til-halqum va adashgan nerv tomonidan amalgaliga oshiriladi. Shuningdek halqumning innervaciyasida simpatik poyanining yuqori bo'yin tugunlarining shoxchalari ham qatnashadi. Ular halqum nerv o'ramlari bilan birgalikda harakat va sezgirlik innervasiyясini ta'minlaydi.

Halqum fiziologiyasi

Halqum nafas yo'lining bir qismi sifatida havoni o'pkaga kiritish va undan chiqarish faoliyatini bajaradi. Shu bilan birga u yutunishda va ovqatni og'izdan qizilo'ngachga surilishida qatnashadi. Halqum bo'shlig'i burun va burunning yondosh bo'shliqlari bilan birgalikda tovush rezonatori sifatida tovush tembrini hosil qilishda qatnashadi. Halqumga ta'sirlovchi moddalar yoki yot jismlar tushganda paydo bo'ladigan halqum mushaklarini reflektor qisqarishi, yo'tal va quşish nafas yo'llari va qizilo'n-gachni ulardan himoya qiladi.

Halqumni tekshirish usullari

Halqumni maxsus ko'zgu yordamida ko'zdan kechirishdan tashqari, burun qismini paypaslab tekshirish mumkin. Bunda o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini yumshoq tanglay ortiga o'tkazilib burun-halqumni adenoidlar va turli hosilalar bilan to'lganlik darajasi, to'qimalarning konsistensiyasi aniqlanadi. Ayrim hollarda halqumning burun qismi yon proksiyasida rentgenografiya qilinadi. Halqumning o'rta qismini ko'zdan kechirish — faringeskopiya shpatel yordamida o'tkaziladi. Shpateli chap qo'lda



49-rasm. Tanglay bodomcha bezlari lakunalaridan ajralmalarni siqib chiqarish.

ushlanib til pastga bosiladi. Bunda og 'iz-halqum shilliq pardasining tanglay yoylari va til holatlariga e'tibor beriladi. Tekshiruvchining o'ng qo'li bemor boshini tepa qismini ushlab turadi. Agar bodomcha bez kripta va lakunalarining ichidagi ajralmalarning xarakterini tekshirish kerak bo'lsa, boshqa shpatel bilan oldingi yoy sohasiga bosiladi (49-rasm).



50-rasm. Bilvositalaringo va gipofaringoskopiya.

a — hiqildoq-halqumning umumiyo ko'rinishi; b — hiqildoq oy-nasining holati; d — ko'zguda aks etilishining sxemasi.

Bunda bez eziladi va natijada lakunalardagi yiringli ajralmalar yoki yiringli detrit ko'zga ko'rindi. Zarurat bo'lsa tibbiyot hamshirasi bezlarning shilliq pardalari yuzasidan, halqum orqa devoridan surtma oladi. Surtma olish uchun steril tampon ishlataladi. U bilan kerakli yuzalarga teginib, keyin tampon probirkaga solinadi va yo'llanma bilan laboratoriya yuboriladi.

Halqumning pastki qismini tekshirish hiqildoqni ko'zdan kechirilganda amalga oshiriladi. Keyingi vaqlarda halqum va hiqildoqni ko'zdan kechirishda maxsus asboblar — fibroskop va laringofaringoskoplardan keng foydalaniylmoqda. Halqumning quşish refleksi yuqori bo'lsa, uning shilliq pardasiga tarkibida mahalliy anesteziya uchun ishlataladigan dori moddalari bo'lgan aerozollardan purkash kerak (50-rasm).

Qizilo'ngachning klinik anatomiysi va uni tekshirish usullari

Qizilo'ngach fibroz-mushak nay bo'lib, ichidan shilliq parda bilan qoplangan. Katta yoshli odamlarda uning uzunligi 25 sm bo'ladi.

Asosiy fiziologik vazifasi ovqatni me'daga o'tkazish.

Qizilo'ngach umurtqa pog'onasi oldida, traxeyaning orqasida joylashgan. Qizilo'ngach va umurtqa pog'onasi orasida yog' kletchatkasi joylashgan. U halqumosti kletchatkasining davomidir.

Qizilo'ngach bo'yin, ko'krak va qorin qismiga bo'linadi. Uzunasi davomida uning diametri turlichadir. Qizilo'ngachda 3 ta fiziologik torliklar mavjud: qizilo'ngachga kirishda, aortaga tegib turgan joyda va me'daga kirishda.

Qizilo'ngachning yuqori qismida mushak devori ko'ndalang mushak tolalaridan iborat. Ular tez va kuchli qisqarish qobiliyatiga ega, bu o'z navbatida oziq-ovqat qismlarini me'da tomon yo'naltiradi.

Qizilo'ngachni o'rta qismi ko'ndalang va silliq mushak tolalaridan iborat, pastki qismida esa faqat silliq mushak tolalari mavjud.

HALQUM KASALLIKLARI

Halqum shikastlari

Halqum tashqi va ichki tomondan ochiq hamda yopiq holda shikastlanishi mumkin. Bunda teri va yumshoq to'qimalar jarohatlanadi. Bo'yin jarohatlari ko'pincha halqumning o'rta va pastki qismlarining shikastlari bilan birga kechadi.

Halqum tashqi tomondan kesilgan, ezilgan, sanchilgan holatda shikastlanishi mumkin.

Ichki tomondan shikastlanish — turli suyaklar ta'sirida, og'iz bo'shlig'idan o'tkir uchli tayeq va boshqa narsalar sanchilishi yoki tibbiyat xodimlari tomonidan halqumni biror asbob bilan shikastlanishi natijasida kuzatladi.

Halqumi shikastlangan bemorga quyidagicha yordam ko'rsatiladi: qon ketishini to'xtatish, nafas yo'llarini o'tkazuvchanligini tiklash, karaxtlikka qarshi kurashish, yo'qotilgan qon o'rmini to'ldirish, yot jismlarni olib tashlash, gematomani bartaraf etish kerak. Yiringli asoratlarni oldini olish maqsadida antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar tayinlanadi. Bemor parenteral yoki burun — qizilo'nngach zondi orqali ovqatlantiriladi. Ba'zan traxeostomiya qilishga to'g'ri keladi. Shundan so'ng jarohatlangan to'qimalarни tozalab, choklash lozim bo'lsa, jarohat choklanadi va bemor doimo nazorat ostida bo'ladi.

Halqum yaralanishida halqum nerv tutamlari va adashgan nervningyuqori bo'limi shikastlanishi mumkin, bu — yumshoq tanglayning ana shu shikastlangan tomoni parezga uchrashi va falajlanishi bilan kechadi. Til osti nervning zararlanishi tilni chiqargan paytda jarohatlangan tomonga og'ib ketishi bilan xarakterlanadi. Qaytuvchi nerv yoki adashgan nervning shikastlanishi har doim shikastlangan tomonda hiqildoqni falaj bo'lishi va tovush bo'g'ilib qolishi bilan kechadi.

Halqum shikastlanishining hamma ko'rinishida qoqsholga qarshi zardob yuborish va antibakterial preparatlar tayinlash shart.

Halqum tasodifan kuyib qolishi ham mumkin. Bu holat kislotaclar, ishqoriy moddalar va issiq (qaynoq) suyuqliklarni ichib yuborganda kuzatiladi.

Kuyishdan keyin bemorni yutinganda kuchli og'riq bezovta qiladi.

Kuyishning I darajasida halqumning barcha bo'limlarida giperemiya — qizarish kuzatiladi; II darajasida — shish yuzasi oq-kulrang karash bilan qoplanadi. III darajali kuyishda shilliq parda, shilliq osti va mushak to'qimasi nekrozi kuzatiladi.

Davolash statsionarda amalga oshiriladi. Nafas olish qiyinlashsa traxeostomiya qilish kerak bo'ladi. Birinchi yordam sifatida jarohatlanganga neytrallashtiruvchi suyuqliklarni qo'llash kerak. Halqumda chandiq hosil bo'lishini oldini olish uchun davolashning boshidan antibiotiklar va gormonoteropiya (gidrokortizon, AKTG) buyuriladi.

Halqumga yet jismlar tushib qolishi

Halqumga yet jismlar tushib qolishi ko'proq bolalar orasida uchraydi, chunki ular bilmasdan turli mayda-chuyda narsalarni og'izlariga solishadi.

Ba'zida yet jismlar ovqat bilan yutib yuborilishi mumkin. Yet jismlar tabiatи va shakli jihatidan har xil bo'lishi mumkin: baliq qiltanog'i, mayda suyaklar, igna, mayda mix, cho'plar, don-dunlar qobig'i, mevalar danagi, mayda o'ynchoqlar, tish protezlari, zuluk, gijja va boshqalar.

O'tkir uchli yet jismlar ko'proq murtakka, murtak oldi va orqa ravoqlariga, til ildiziga taqalib qoladi. Bunda bemor sanchiqli og'riqdan shikoyat qiladi, bu og'riq ayniqsa yutinish paytida zo'rayadi.

Halqumga yet jism tushganda bemorlar uni borligini sezadi, yo'talganda, yutinganda og'riqning kuchayishi,

hiqildoq-yutqin sohasida katta yot narsa bo'lganda nafas olishning qiyinlashuvidan shikoyat qiladi.

Tashxis faringoskopiya, nazofaringoskopiya, fibroskopiya, rentgenologik tekshiruv usullariga suyangan holda qo'yiladi.

Davosi: yot jismlarni halqumdan maxsus qisqichlar yordamida olib tashlanadi. Agar yot jism pastki bo'limlarda bo'lsa, laringoskopiya, fibroskopiya yo'li bilan olib tashlanadi.

Yot jismni olib tashlangandan so'ng, agar yuzasi jarohatlangan bo'lsa, unga 5% li yodning spirtli eritmasi surtib, 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yoki kaliy permanganatning kuchsiz eritmasi bilan chayiladi. 5—7 kun davomida dag'al, ta'sirlovchi ovqatlarni yeish man qilinadi.

Qizilo'ngachga yot jismlarni tushib qolishi

Qizilo'ngachga yot jismlar ko'pincha ovqatni yutayotganda tushadi. Bular baliq va go'sht suyaklari, tish protezlari, shisha bo'lakchalari, tangalar va shunga o'xshashlar bo'lishi mumkin. Ko'pincha qizilo'ngach yot jismlari kattalarda uchraydi. Yot jism qizilo'ngach shilliq pardasiga kirganda yoki uni jarohatlaganda ikkilamchi infeksiyaning qo'shilishi hisobiga yallig'lanish kelib chiqadi — ezofagit yoki periezofit. Ayrim hollarda yot jism (ko'pincha, suyak) faqatgina qizilo'ngach shilliq pardasini jarohatlamasdan, hatto muskul qavatini ham, binobarin, qizilo'ngach devorini ham teshadi. Bunday hollarda og'ir asoratlar — mediastenit rivojlanadi. Agar yot jism chetlari silliq bo'lsa, u ovqat hazm qilish yo'llarining pastiga, qizilo'ngachni jarohatlamasdan o'tishi yoki ko'pincha qizilo'ngach siqilgan joylarida to'xtab qolishi mumkin.

Simptomlari yot jismning va jarohatning harakteriga, kasallikning qancha davom etganligiga va qizilo'ngachning shikastlangan joyiga bog'liq. Ko'pincha yot jism bo'lganda boshni va bo'yinni harakat qildirganda ko'krak orqasida og'riq

va achishish paydo bo'ladi, ovqatni va so'lakni yutganda og'riqning orqaga berilishi va boshqa shunga o'xshash bel-gilar paydo bo'ladi. Organizmning umumiy reaksiyasi (harorat ko'tarilishi, qon hamda siydikda o'zgarishlar va boshqalar) kasallikning dastlabki davrida odatda aytarli yuzaga chiqmaydi.

Tashxis anamnestik ma'lumotlar, pastki bilvosita faringoskopiya va qizilo'ngach rentgenografiyası, kontrastli rentgenografiya ma'lumotlariga asoslanib qo'yiladi. Shu bilan birga agar yot jism aniqlanmasa, klinik dalillar esa uning borligini ko'rsatib tursa, u holda patologiyaning xarakteri haqidagi yoki uning yo'qligi to'g'risidagi masalani ezofaringoskopiya hal qiladi; uning yordamida qizilo'ngachda davolash muolajalari o'tkaziladi.

Davolash: qizilo'ngachdagı yot jismlar oldin va keyin rentgen nazorati ostida ezofagoskopiya yordamida olib tashlanadi. Bolalarda ezofagoskopiya intubatsiyali endotraxeal narkoz ostida qilinadi. Kattalarda uni Bryunings yoki Mezrin bronxoezofagoskopiysi yordamida mahalliy og'riqsizlantirish bilan amalga oshirish mumkin. Ezofagoskopiya mahalliy og'riqsizlantirish ostida, agar bu qiyinchilik tug'dirsə unda endotraxeal narkoz ostida o'tkazilishi kerak. Qizilo'ngachdagı yot jismni me'daga itarish man qilinadi; bu yot jismni itarib, surib yuborish uchun qattiq non yeyishga ham taaluqlidir.

Yot jism olib tashlangandan keyin shilliq pardada jarohat bo'lsa, suyuq ovqatlar tavsiya etiladi hamda yallig'-lanishga qarshi va desensibilizatsiyalovchi terapiya o'tkaziladi. Agar qizilo'ngachda teshik paydo bo'lsa yoki u borligiga shubha tug'ilsa og'iz orqali ovqatlanish butunlay man qilinadi, bakteriyalarga va umumiy yallig'lanishga qarshi davolash tavsiya etiladi, kasalni rektal va parenteral yo'l bilan ovqatlantiriladi. Bunday bemorlar ko'krak jarrohligi bo'limida davolanishlari lozim.

Agar asoratlar bo'lmasa bemor tezda tuzalib ketadi.

Adenoidlar

Adenoidlar — burun-halqum bodomcha bezining gipertrofiyasi bo'lib, ko'pincha 3—8 yoshgacha bo'lган bolalar orasida uchraydi. Adenovirus infeksiyasi, gripp, qizamiq, skarlatina, bo'g'ma (difteriya), rinitlar, sinusitlar, allergiya, sun'iy va aralash ovqatlantirish burun-halqum bodomcha bezining o'sib ketishiga sabab bo'ladi. Bunda burundan nafas olish qiyinlashib, adenoidlar yuz skeleti va ko'krak qafasining qiyshayishiga, kalla ichi bosimining oshishiga, rivojlanayotgan bola organizmining funksional o'zgarishlariga sabab bo'ladi.

Adenoidlar burun-halqum gumbazini butunlay egallab, burun-halqumni qisman yoki tamomila to'ldirib turadi. Katta kichikligiga ko'ra, adenoidlarning 3 ta darajasi farqlanadi.

1-daraja — adenoid o'simtalari dimog' suyagining yuqori uchidan bir qismini yopib turadi.

2 - daraja — adenoidlar burun-halqumning katta qismini egallab, xoanalarning uchdan ikki qismini yopib turadi.

3 - daraja — xoanalarini butunlay yopib turadi. Kasallik burundan nafas olishning qiyinlashuvi, shilliq ajralmaning oqib turishi, burunga kirish joyida teri ta'sirlanishi bilan xarakterlanadi. Bunda bola og'zini ochib uxlaydi, uyqusi notinch bo'ladi. Tunda siydikni tuta olmaslik, laringospazm kuzatiladi. Bundan tashqari bola tez-tez shamollab turadi. Yuzi shishinqirab, o'ziga xos ifodasi bo'ladi: og'zi ochiq turadi, burun-yutqun burmasi silliqlashib, tishlari qiyshiyib o'sadi. Oldingi rinoskopiyada burun chig'anoqlari ko'karib, shishib chiqqani ko'rinish turadi, umumiy burun yo'lidan shilliq ajraladi.

Karioz tishlar ko'p bo'ladi, qattiq tanglay baland turadi. Nog'ora pardalari pushti rangda, bildiruv nuqtalari aniq ifodalangan bo'ladi.

Kasallik burundan nafas olishning qiyinlashuviga, o'ziga xos tashqi ifoda (yuzning «adenoid» tipi), oldingi va orqa




51-rasm. Burun-halqumni barmoq bilan tekshirib ko'rish.

rinoskopiyaiga, burun-halqumni barmoq bilan tekshirish ma'lumotlariga, burun-halqumni optik asboblar yordamida tekshirishga, yutqunni rentgenografiyasiga asoslanib aniqlanadi (51—52-rasm).

Davolash: adenoidlarning 1-darajasida konservativ davo choralari buyuriladi. Keyingi darajalarida esa xirurgik davo qilinadi. Adenoidlar borligi va ular tufayli organizmda paydo



52-rasm. Adenoid vegetatsiyasidagi yuz ko'rinishi.



53-rasm. Adenomiya uchun asboblar yig'masi.

1 — shpatel; 2 — adenotom; 3 — darchali qisqich; 4 — lotok;
5 — choyshab; 6 — operatsion oqliklar uchun qisqich.

bo'lgan patologik o'zgarishlar operatsiya qilishni talab qiladi. Adenotomiya (adenoidlarni olib tashlash) mahalliy og'riqsizlantirish ostida o'tkaziladi. Uni o'tkazish uchun kerak bo'ladigan asbob-anjomlar rasmida keltirilgan (53-rasm). Adenotomiya operatsiyasi maxsus halqasimon pichoq — adenotom yordamida amalga oshiriladi. Operatsiya bemor o'tirgan holatida bajariladi, uning boshi va tanasiga steril oqliq yopib qo'yiladi. Hamshira bemor boshini ushlab turadi. Operatsiyadan keyin bemorni yonboshlatib, boshi bir oz ko'tarilgan holda yotqiziladi. Bemor so'lagini yutmasdan sochiq yoki lotokka tuflab turishi kerak. Hamshira uning umumiy ahvolini kuzatib, tufukning tarkibini nazorat qilib turishi lozim.

To'qima chala olib tashlangan bo'lsa qon ketishi mumkin. Bu operatsiyadan keyingi asorat hisoblanadi. Bu holda adenotomiyanı takror bajarish kerak bo'ladi. Qon to'xtamasa, burunning orqa tamponadasi bajariladi. Operatsiyadan keyin 2—3 kungacha bemorga o'rnidan turishga ruxsat berilmaydi. 5—7 kun mobaynida issiq, dag'al,

achchiq, sho'r ovqatlar, shokolad yeyish man etiladi. Qattiq harakatlar tavsiya qilinmaydi. Vaqtida o'tkazilgan davo choralari yaxshi natija beradi.

ANGINAIAR

Angina (lot. *Angene* — ezmoq, siqmoq) — ko'p uchraydigan kasallik. Anginaning qo'zg'atuvchilar — bu «A» guruhiga mansub b- gemolitik streptokokk yoki oltin tusli stafilokokk. Bundan tashqari pnevmokokklar, viruslar, anaerob qo'zg'atuvchilar, og'iz bo'shlig'i spiroxetalari, *Candida* — zamburug'lari ham qo'zg'atuvchi bo'lishi mumkin.

Anginaning rivojlanishiga umumiy va mahalliy sovqotish, atmosferaning changlanishi, organizmning umumiy va mahalliy immunitetining pasayishi, bodomcha bezlarining termik, kimyoviy va mexanik ta'siri natijasida shikastlanishi sabab bo'lishi mumkin. Infeksiya **ekzogen** (ko'proq) va **endogen** (autoinfeksiya) yo'l orqali tushishi mumkin. Ekzogen yo'lning 2 ta turi mavjud: havo-tomchi va alimentar.

Infeksiya endogen yo'l bilan og'iz bo'shlig'i yoki halqumdan, burun va burunning yondosh sinuslaridan tarqalishi mumkin.

Kasallikning klinik kechishiga, bodomcha bezlarni morfologik o'zgarishlariga ko'ra quyidagi anginalar tafovut qilinadi:

1. birlamchi (oddiy, banal) — kataral, lakunar, folliculyar va flegmonoz anginalar;

2. ikkilamchi (simptomatik) — o'tkir infekcion kasalliklar: qizamiq, skarlatina, difteriya, qon kasalliklarida (o'tkir leykoz, infektsion mononukleoz, agranulositoz) yuzaga chiquvchi anginalar, hamda spetsifik infeksiya natijasida paydo bo'lgan anginalar (Simanovskiy — Plaut-Vensan anginasi, zamburug'li angina).

Birlamchi angina

Kasallikning eng yengil formasi — bu kataral angina. To'satdan halqumda qurish va qichishishdan boshlanadi,

yutinganda og'riq paydo bo'ladi. Tana harorati 38°C gacha ko'tariladi. Bemor loxaslikdan, bosh orig'idan, bo'g'inlar-dagi og'riqdan shikoyat qiladi.

Faringoskopiya qilinganda shilliq pardalarning shishgani va qizargani aniqlanadi. Bodomcha bezlarning yuzasi shishib silliqlanadi. Tanglay va halqumning orqa devori o'zgarmaydi. Paypaslaganda regionar limfatik bezlarning biroz kattala-shuvi va og'riqliligi aniqlanadi.

Qondagi o'zgarishlar: biroz leykotsitoz, ECHT ning oshishi kuzatiladi.

Kasallik 3—4 kun davom etadi.

Lakunar angina. Yorqin klinik manzara bilan kechadi. Yallig'lanish jarayoni bezlarning chuqur qismlariga tarqaydi. Lakunalarda epitelial shish, keyinchalik esa bodomcha bezlar yuzasida va lakunalarda epiteliy nekrozi yuzaga chiqadi. Epiteliy ko'chib shilliq pardada yaralar paydo bo'ladi va bezlarning bo'sh yuzasi fibroz pardali ajralmalar bilan qoplanadi. Odatda kasallik o'tkir boshlanadi, bemorning eti uvishadi. Tana harorati — febril bo'ladi, bemor yutingandagi og'riqdan shikoyat qiladi. Intoksikatsiya belgilari yuzaga chiqadi — bo'shashish, terlash, bosh og'-rishi, belda va bo'g'inlarda og'riq bo'lishi, ishtaha yo'qolishi. Faringoskopiada bemorning tanglay bezlari qizargani va shishgani, yuzalari sarg'imtir ajralmalar bilan qoplan-gani hamda regionar limfatik bezlari kattalashgan, pay-paslaganda og'riq kuzatiladi. Qonda — leykotsitoz, ECHT 40—45 mm/soatgacha oshgan. Kasallik 5—7 kun davom etadi.

Follikulyar angina — birlamchi anginaning eng og'ir turi. Yallig'lanish jarayoni faqat shilliq parda yuzasini emas, balki folikulalarni ham qamrab oladi. Bemorning umumiylahvoli va kasallik belgilari lakunar anginaga o'xhash bo'lib, faqat klinik ko'rinishi yaqqolroq kechib tana harorati $40-41^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilishi mumkin.

Faringoskopiada bezlarning yuzasi shishib, qizargani-dan tashqari yiringlagan follikullar ko'rindi. Ular mayda

sarg'imitir rangli pufakchalar bilan qoplangan bo'ladi. Ko'pincha bemorda bir vaqtning o'zida follikulyar hamda lakunar angina alomatlari aniqlanadi. Kasallik 5—7 kun davom etadi.

Birlamchi anginalarga tashxis anamnestik ma'lumotlar, kasallikning klinik manzarasi, faringeskopiya natijalari, laboratoriya tahlillari natijalariga asosan qo'yiladi.

Birlamchi anginalarga quyidagi belgilar xos. Tez-tez anginalar kuzatilishi, yutinganda tomoqda ikki tomonlama og'riq, ikki tomonlama limfadenit, tana haroratini 38°C va yuqori ko'rsatgichlargacha ko'tarilishi, qon tahlilida o'zgarishlar — leykotsitoz, leykotsitar formulasining chapga siljishi, EChT ning oshishi; siydkda — albuminuriya, mikrogematuriya; kasallik kechishini siklik ravishda o'tishi (har safar kasallik qisqa muddat 3—7 kungacha davom etadi).

Davolashni konservativ usulda uy sharoitida olib borish mumkin.

Angina bilan og'rigan bemorlarni parvarishlash. Angina — o'tkir infekcion kasallik bo'lib, shuning uchun bemorni alohida xonaga izolyaciya qilish zarur. Oilaning sog'lom a'zolari to'rt qavatli doka niqob yoki maxsus tibbiy niqob taqishlari kerak. Bemorga alohida idish-tovoq ishlatish maqsadga muvofiq. Xonani muntazam shamollatib turish zarur. Bemor 8—10 kungacha o'rnidan turmasdan yotishi kerak. Bu tavsiyalarga qat'iy rioxal qilinsa kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarning (yurak, bo'g'in, buyrak kasalliklarini) oldi olinadi. Intoksiatsiya holatlarini inobatga olgan holda, bemorga ko'p suyuqlik, suyuq, kaloriyaga va vitaminlarga boy oziq-ovqatlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi. Tomog'ini chayishga qiynalayotgan yosh bolalarga har 1—1,5 soatda issiq limonli choy yoki mevali sharbat berish lozim.

Tomoqni chayish uchun turli dezinfeksiyalovchi vositalardan foydalaniladi. Bu muolaja halqumning yallig'lanish

kasalliklarida keng qo'llaniladi (faringit, angina, paraton-zillyar abscess, surunkali tonsillit).

Tomoqni chayish uchun qo'llaniladigan (200—250 ml) suyuqlikni 40—42°C gacha isitish kerak bo'ladi. Be-mor og'ziga bir qultum suyuqlikni olib, boshini orqaga engashtirib 30 soniya davomida tomog'ini chayib turadi. Muolaja bir sutkada 6—8 mahal qaytariladi.

Isituvchi kompress qo'yish texnikasi: 6—8 qavat taxlangan doka salfetkani suv bilan aralashtirilgan 70°li etil spiritida ho'llab, siqib bo'yining oldingi va yon yuzalariga qo'yiladi. Uning ustidan salfetkadan kattaroq polietilen plyonka uning ustidan bir qavat paxta yopiladi va bint bilan bo'yinga o'rab bog'lanadi. Kompress 6—8 soatga qoldiriladi. U olingandan keyin teri quritib artiladi va bo'yinga quruq dokadan yoki yupqa paxtali matodan bo'lgan bog'lam qo'yiladi.

Lakunar va follikulyar anginada antibiotiklar (keng qamrovli antibiotiklar yoki makrolidlar) buyuriladi. Shu bilan bir qatorda asetilsalisil kislotasi, antigistamin vositalar, askorbin kislotasi tavsiya etiladi.

Anginani oldini olish maqsadida surunkali infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish, burundan nafas olishga halaqit beruvchi omillarni bartaraf etish zarur. Organizmni chiniqtirish, mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil etish, chang, tutun, juda quruq havo, alkogol kabi zaharli ta'sirlarni bartaraf etish katta ahamiyatga ega. Tez-tez angina bilan og'riydigan odamlar dispanser kuzatuvida bo'lishi lozim.

Ikkilamchi (simptomatik) anginalar

Qon kasalliklaridagi anginalar.

Og'iz, halqum shilliq pardalarining kasallanishi **o'tkir leykoz** kasalligining ilk belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek bemorda milklarning qonashi, yutunganda og'riq kuzatiladi.

Tanglay bezlarini o'tkir leykozidagi zararlanishi ularning yuzalarida parda bilan qoplangan yaralar paydo

bo'lishi bilan kechadi; yaralarni pardalardan tozalanganda qonab turuvchi yuzalar hosil bo'ladi. Bunda bemorning umumiy ahvoli juda og'irlashadi, bo'yin, qo'lliq osti va chov sohasidagi limfatik bezlar keskin kattalashadi.

Klinik tajribaga ko'ra: tanglay bodomcha bezlarining yuzalarida bunday ko'rinishlar paydo bo'lsa albatta qonning to'liq klinik tahlilini o'tkazish shart. Bu o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Davolash gematologik statsionarda olib boriladi. Antibiotiklar, tomoqni chayish buyuriladi.

Agranulositoz periferik qonda urug'li leykotsitlar (neytrophil, eozinofil, bazofil, ya'ni granulositlar) sonining kamayishi bilan kechadigan kasallik.

Bu kasallikka bir qator dori moddalarining suyak iligiga toksik ta'siri sabab bo'ladi (amidopirin, norsulfazol, streptosid, asetilsalisil kislota, butadion, analgin, shishga qarshi vositalar va boshqalar). Kasallik o'tkir boshlanadi. Bemorning tana harorati keskin ko'tarilib, eti uvishadi. Tomog'i og'riydi. Yutinganda og'riq juda kuchli bo'lganidan bemor ovqat yeyishdan bosh tortadi.

Tanglay bezlaridagi chuqur yaralar, bezlar chegarasidan chiqib ketadi. Bemor og'zidan badbo'y hid keladi. Tashxis qo'yish uchun zudlik bilan qon tahlilini o'tkazish kerak. Agranulositar angina 4—5 kundan bir necha hafta-gacha davom etadi.

Davolash: umumiy kasallikni to'g'ri aniqlab, uni davolash yo'li bilan amalga oshiriladi. Septik belgilarni bartaraf etish uchun antibiotiklar buyuriladi, mahalliy davo sifatida tomoqni chayish buyuriladi.

Infektsion mononukleoz sporadic hollarda uchraydi, juda kam oilaviy kichik epidemiya sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Kasallik qo'zg'atuvchisi — virusli infektsiya.

Ko'proq bolalar va 10 dan 30 yoshgacha bo'lgan odamlar kasallanadi. Bu kasallikka quyidagilar xos: bemorning eti uvishadi, tomog'i og'riydi, harorati 39—40°C gacha ko'tariladi, barcha guruh limfatik bezlari, jigar, taloq

kattalashadi. Angina kasallikning 3—4 kunida yuzaga chiqadi va kataral, lakunar anginaga o'xshash kechadi. U 2—3 hafta davom etadi. Tashxis qon tahliliga ko'ra qo'yiladi, qonda mononuklearlar soni ortadi (leykositlarning umumiy sonidan 50—90%).

O'tkir infekcion kasalliklardagi angina

Qizamiq infekcion kasalliklarning keng tarqalgan turi bo'lib, u bilan barcha yoshdagi odamlar og'rishi mumkin. Ko'proq qizamiq bilan 4—5 yoshdagi bolalar og'riydi. Faringoskopiyada kataral anginaga o'xshash o'zgarishlar aniqlanadi. Qizamiqdagi ikkilamchi anginaga tashxis qo'yishda og'iz bo'shlig'i shilliq pardasini ko'zdan kechirib (Belskiy — Filatov — Koplik dog'lari mavjudligi), teri qoplamlarida polimorf toshmalar, burun bo'shlig'i shilliq pardasida va konyunktivada kataral o'zgarishlarga asoslangan holda qo'yiladi.

Davolash: asosan uy sharoitda amalga oshiriladi. Og'ir hollarda bemorni infekcion stasionarga yotqizib davolash kerak.

Skarlatina A guruhlik β — gemolitik streptokokk tomonidan chaqirilgan kasallikdir. U intoksikasiya va teriga mayda nuqtali toshma toshishi bilan kechadi. Bu kasallik bilan asosan maktabgacha yoshdagi bolalar og'riydi. Skarlatinaning asosiy belgisi — kataral angina. Bunda tanglay bezlari, tilcha va tanglay yoychalari qizarib, o'zgarmagan qattiq tanglay shilliq pardasidan yaqqol chegaralanib turadi. Regionar limfatik bezlar kattalashib, paypaslaganda qattiq va og'riqli bo'ladi. Til qip-qizil — «malinali til» (10—12 kun davomida shunday ko'rinishda bo'ladi). Kataral angina «malinali til» va giperemiyalangan tana terisidagi mayda nuqtali toshma bilan kechadi.

Davolash: asoratsiz yengil formasida uy sharoitida, qolgan hollarda infekcion statsionarda amalga oshiriladi. Bemorga qat'iy yotoq rejim (5—6 kun davomida), antibiotikoterapiya buyuriladi. Qon va siydk tahlilini o'tkazish shart.

Difteriya halqum, hiqildoq, traxeyalarda yallig'lanish jarayoni bilan kechadigan infekcion kasallik. Unda fibrinoz

pardalar hosil bo'ladi, yurak-tomir, nerv va siyidik chiqarish tizimlarida o'zgarishlarga olib keluvchi umumiy intoksikasiya kuzatiladi. Bemor kasallikning inkubatsion davridan boshlab to oxirgacha yuqumli hisoblanadi. Inkubasion davr bir necha soatdan 12 kungacha davom etadi (ko'pincha 2—7 kun). Kasallik jarayoni joylashishiga qarab, uning quyidagi klinik formalari tavofut qilinadi: og'iz-halqum, burun, hiqildoq (chin krup), traxeya, bronx, ko'z va burun difteriyasi.

Og'iz-halqum difteriyasi kasallikning eng keng tarqalgan klinik formasidir. (bemorlarning 95—97%). U chegaralangan, tarqalgan va toksik bo'lishi mumkin. Chegaralangan formasiga quyidagilar xos: kasallik o'tkir boshlanib, qisqa muddatga (bir necha soatdan 2 kungacha) tana haroratining ($38-39^{\circ}\text{C}$ gacha) ko'tarilishi, bosh og'rig'i, bo'shashish, ishtaha pasayishi, yutunganda tomoqda og'riq kuzatilishi bilan kechadi.

Faringoskopiyada tanglay bezlari va tanglay yoychalari ning ko'kintir tusdag'i giperemiyasi aniqlanadi. Bezlар kattalashib, ularning yuzasi silliq tortgan bo'ladi, ularda fibrinoz plyonkalar «pardalar» ko'rindi. Plyonkalar rangi oq yoki kulrang bo'ladi. Ular qiyinlik bilan ko'chadi, ko'chirilganda shilliq parda qonaydi. Bu plyonkalar buyum oynachalari orasiga qo'yilganda ezilmaydi. Plyonkalar 5—10 kun kuzatiladi. Regionar limfatik bezlar kattalashib, yumshoqroq bo'ladi, aytarli og'riq sezilmaydi.

Difteriyaning tarqalgan formasida fibrinoz pardalar tanglay yoychalari, tilcha va halqumning orqa devori shilliq pardasiga o'tib ketgan bo'ladi. Asta-sekin nafas siqilishi boshlanib, bir paytda to'satdan asfiksiya paydo bo'lishi mumkin. Tovush o'zgarib, hatto afoniya rivojlanishi ham mumkin.

Davolash: zudlik bilan difteriyaga qarshi zardob yuborish, bemorni infekcion klinikaga yotqizish va uni muntazam shifokor nazorati ostida bo'lishini ta'minlash lozim. Zarurat bo'lsa intubaciya va traxeostomiya qilinadi.

Paratonzillyar abscess

Paratonzillyar abscess — o'tkir angina asorati hisoblanadi. Kasallikka sabab — infeksiyaning lakunalardan yoki folikulalardan bodomcha bezlar orti bo'shliqlariga tushishidir. Jarayonning kechishi — organizmning immun holatiga va infekciya virulentligiga bog'liq bo'ladi. Paratonzillyar abscessning kechishida shishgan, infiltrativ va abses-slanadigan bosqichlar kuzatiladi. Bodomcha bezlarida joylashishiga ko'ra oldingi, o'rtalarda tashqi absesslar tavosut qilinadi. Oldingi paratonzillyar abscess ko'proq uchrab turadi, u bodomcha bezlar yoki to'qimada bodomcha bezning ustki tubi oldida joylashadi.

Paratonzillyar abscess ko'pincha bir tomonda bo'ladi. Odatda kasallik anginadan keyin boshlanadi. Yutinganda og'riq zo'rayadi, umumiylashtirish holsizlik va darmonsizlik kuchayadi, yutinish qiyinlashadi, salivatsiya zo'rayadi. Og'izdan yoqimsiz hid keladi. Chaynov muskullarining trizmi paydo bo'ladi, tovush manqalanib chiqadi. Bo'yin va jag' osti limfa tugunlari kattalashib, og'riq beradi. Faringoskopiyada yumshoq tanglay, oldingi ravoqcha qizarib ketgani va shishgani ko'rindi. Tilcha keskin infiltratlanib, bo'rtib chiqadi. Tegib ko'rildiganda flyuktuatsiya aniqlanadi. Ko'pincha abscess oldingi ravoqcha yoki ravoqchalar orasidagi bodomcha bezlar usti bo'shlig'i orqali boshlanadi. Tashxis anamnez, shikoyat, faringeskopiya manzarasiga qarab qo'yiladi.

Kasallikning boshlang'ich bosqichida konservativ davo qo'llanilib, antibiotiklar, sulfanilamidlar, desensibilizasiyalovchi vositalardan foydalilaniladi. Mahalliy davo sifatida aerozol bilan davolash, tomoqni antiseptik preparatlar bilan chayish tavsya etiladi. Fizioterapiya davo vositalaridan, magnit bilan davolash, ultratovush, davolovchi lazer muolajalaridan foydalilaniladi. Abscess hosil bo'lganda, uni yorib ochish kerak bo'ladi. Paratonzillyar abscess oqilona davolanmasa infeksiya halqum oldi bo'shlig'i, to'sh osti suyagi kletchatkasiga tarqalishi mumkin. Bu esa



I

II



a



b



d

54-rasm. Murtak atrofidagi yiringlagan joylar

I — murtak atrofidagi yiringli joyni kesish; II — tonzillektomiya bosqichlari; a — tanglay oldingi yoychasini murtakning medial tomoniga tortib kesiladi; b — tanglay murtagini ajratish; d — murtakka sirtmoq qo'yish.

hayot uchun xavfli hisoblangan asoratlarni keltirib chiqaradi (54-rasm).

Parafaringeal abscess

Bu anginadan kelib chiquvchi, kam uchraydigan, og'ir va xavfli asoratlardan biridir.

Klinik manzarasi. Bemorning umumiy ahvoli og'irlashadi. Tana harorati 40°C gacha ko'tariladi, eti uvishadi, yutinganda og'riq paydo bo'ladi, nafas olish qiyinlashadi. Bemorning boshi abscess tomonga og'gan bo'ladi. Bo'yin

mushaklari taranglashadi, palpatsiya vaqtida og'riydi. Farfingoskopiyada halqumning yon devori shishgani, qizargani va bo'rtib chiqqanligi aniqlanadi.

Parafaringeal abscessda yiringli jarayonni ko'krak qafasiga tarqalishi, yirik tomirlardan qon ketishi, flebit va tromboflebitlar rivojlanish havfi bor.

Davolash bemor zudlik bilan jarrohlik klinikasiga yotkizilishi kerak. Abscess tashqaridan yoki og'iz bo'shlig'i orqali ochilishi zarur. Antibiotiklar va sulfanilamidlar buyuriladi.

Retrofaringeal abscess

Bunday abscess limfatik bezlar va halqum orti kletchatkasining yiringlashi natijasida hosil bo'ladi.

Infeksiya limfatik tomirlar orqali burun bo'shlig'i, burun-halqum, eshituv nayi va o'rta qulodan tushishi mumkin. Abscess gripp, yiringli rinit, qizimiq, skarlatina kabi infektion kasalliklarning asorati bo'lishi mumkin.

Kasallik bolalikning 1—3 yoshida ko'proq kuzatiladi.

Klinik manzarasi. Yutinganda kuchli og'riq kuzatilib, bola ovqatlanishdan bosh tortadi, Tana harorati 39—40°C gacha ko'tariladi. Nafas olish qiyinlashadi, ovozi o'zgaradi. Abscess kasallikning 5—6 kunida shakllanib bo'ladi. Agar uni vaqtida ochilmasa, halqumga kirish qismi shishib, nafas siqilishi mumkin, keyin abscess o'zi yorilib yiring halqum bo'shlig'iga tushib bemor bo'g'ilishiga yoki yiringli mediastenit rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Davolash faqat shoshilinch jarrohlik yo'li bilan amalga oshiriladi. Absessni kesib ochiladi, antibiotiklar, sulfanilamidlar buyuriladi. Abscess kesib ochilgandan keyin yiring aspirasiyasiga yo'l qo'ymaslik va yiringni tuflab tashlash oson bo'lishi uchun bemor boshini darhol pastga engashtirish kerak (55-rasm).



55-rasm. Halqum orqasidagi absessni yorish.

Surunkali tonsillit

Tanglay bezlarining surunkali yallig'lanishi — surunkali tonsillit deb ataladi. Bu yuqumli, allergik kasallik bo'lib, mahalliy alomatlar bilan namoyon bo'ladi, ular tanglay bezlarining turg'un yallig'lanish reaksiyasi ko'tinishida uchraydi. Surunkali tonsillit keng tarqalgan kasallikdir. Tanglay bezlarining bakterial florasi polimorfdir.

Stafilokokklar, β - gemolitik streptokokklar, pnevmokokk, bolalarda I, II va V serotipli adenoviruslar jaryonni surunkali davom etishiga sabab bo'ladi. Karioztishlar, paradantoz, adenoidlar, sinusitlar, shuningdek burun orqali nafas olishning buzilishi, burun to'sig'inining qiyshayishi, surunkali yallig'lanish o'choqlari surunkali jarayonning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Soldatovning tasnifiga ko'ra, kompensatsiyalangan va dekompensatsiyalangan nospesifik surunkali tonsilit tafovut qilinadi.

Kompensatsiyalangan surunkali tonsillitga quyidagilar xos:

1. Yilda ikki marta tana haroratini ko'tarilishi bilan kechadigan anginalar, mahalliy va umumiy asoratlarsiz kechadi;

2. Tanglay bezlarining lakunalarida yiringli ajralmalar, «probkalar» joylashadi.

Regionar limfatik tugunlar kattalashadi.

Dekompensatsiyalangan surunkali tonzillitga quyida-gilar xos:

1. Yiliqa ikki martadan ko'p tana harorati yuqori darajagacha ko'tarilishi bilan og'ir kechadigan anginalar (lakunar, follikular). O'tkaziladigan konservativ davo choralar yaxshi natija bermaydi: anginalar yilning turli vaqtlarida qaytariladi;

2. Tez-tez qaytariladigan anginalar, ularning biridan keyin nefrit, revmokardit va shular kabi asoratlar paydo bo'ladi;


3. Tanglay bezlari tekshirilganda ularning lakunalarida yiringli «probkalar» aniqlanadi. Bemor revmokardit bilan kasallangandir;

4. Anamnezida paratonzilyar abscess bilan asoratlan-gan angina mavjud.

Surunkali tonzillitning klinik kechishi turlicha bo'lishi mumkin. Tashxis qo'yishda bemor shikoyatlarini, anamnestik ma'lumotlar va tanglay bezlarini tekshirish natijalariga asoslanish kerak. Bemor tez-tez angina bilan og'rishdan shikoyat qiladi. Angina tana haroratini ko'tarilishi, tez toliqish, terlash, bosh og'rishi, og'izdan badbuy hid kelishi, yutinganda og'riq, balg'amli yo'tal bilan kechadi. Angina bilan bog'liq yurak, bo'g'imlar, buyrak, xastalik-lari aniqlanadi. Surunkali tonzillitning asoratlari (revmatizm, revmatoid poliartrit va boshqalar) ko'p uchraydi. O'tkir va surunkali glomerulonefrit va uning asoratlarining sabablaridan asosiysi bu surunkali tonzillitdir.

Davolash usulini tanlash surunkali tonzillitning klinik shakli va dekompensatsiya turlariga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Konservativ davo kompensatsiyalangan surunkali tonzillitda qo'llaniladi. Bu tanglay bezlarini sanasiya qilish, organizmning himoya kuchlarini ko'tarishdan iborat. Tanglay bezlarini sanasiya qilish uchun ularning la-




56-rasm. Tanglay bodomcha bezlari lakunalarini yuvish.

kunalarini antisептик суyuqlıklar bilan chayish keng qo'llaniladi (56-rasm). Chayilgandan keyin bezlarning yuzasi va lakunalar Lyugol eritmasi bilan artiladi. Shuningdek fizioterapevtik davo choraları (tubus orqali ultrabinafsa nurlari bilan ta'sir etish, ultratovush, lazoterapiya, elektroforez) qo'llash yaxshi natija beradi.

Xirurgik davo — bu tonzilektomiya — ya'ni tanglay bezlarini mahalliy infiltratsion og'riqsizlantirish ostida ekstrakapsullar olib tashlash. Ikki tomonlama tonzilektomiya uchun zarur asbob-anjomlar rasmda keltirilgan (57-rasm).

Operatsiya vaqtida bemor o'tirgan holatda bo'ladi, tanasi va boshi steril choyshab bilan yopib qo'yiladi. Tanglay bezlari olib tashlangandan keyin bemorni yon boshi bilan daxaniga muz xalта qo'yib yotqiziladi. Har soatda muz xaltani 15—20 daqiqaga olib turiladi. Qon ketayotganini vaqtida aniqlash uchun hamshira bemor so'lagini nazorat qilib turishi kerak. Operatsiyaga mo'neliklar bo'lsa tanglay bezlariga krioxirurgik ta'sir, krioultratovush yoki lazer bilan ta'sir etish usullari qo'llaniladi.



57-расм. Тонзилэктомияда ишлатыладыган асбоб-анжомлар.

1 — чойшаб; 2 — операция оқлиқлари учун қисқыч; 3 — лоток; 4 — қоң тұхтатувчи Кохер қисқыч; 5 — қошиқча; 6 — дарчали қисқыч; 7 — икки томонлама распаратор; 8 — скалпел; 9 — шпатель; 10 — дока шарчалар; 11 — Бэхон тонзилляр сиртмоги; 12 — тонзилляр игналар (6 дона); 13 — 10 мл ли шприц.

FARINGITLAR

O'tkir faringit bu — halqum shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi. Aksari hollarda bu kasallilik o'tkir burun kasalliklari bilan kechadi, lekin alohida turlari ham uchrab turadi. O'tkir faringitning paydo bo'lishiga burun va burun oldi bo'shliqlarining patologik jarayonlari, kasb-korga tegishli zararlar, ichkilik ichish, tamaki chekish, juda issiq va achchiq ovqatlar yeyish sabab bo'ladi. Bunda holsizlik tomoqqa va qulooqqa beriladigan sanchiqsimon og'riq turishi (u so'lak yutilganda ayniqla kuchayadi) kuzatiladi. Halqum orqa va yon devorlari shilliq pardasining, orqa tanglay ravoqchasi va tilchasinining qizarishi hamda biroz shishib chiqishi faringitga xos bo'lgan xususiyatlardir. Halqumning orqa devorida limfoadenoid granulalar, yon devorlarida esa

limfadenoid bolishchalarining kattalashuvi va qizarib turishi kuzatiladi.

O'tkir faringit odatda mahalliy davolanadi. Iliq ishqorli ingalyasiyalar, ingalipt yoki oksikort aerozollar, burunga moy tomchilari tayinlanadi. Faringosept va isituvchi kompresslar tavsiya etiladi.

Tana harorati subfebril bo'lganda antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar qo'llanadi.

Surunkali faringit — bu LOR a'zolari kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasallikkadir.

Kasallik o'tkir faringitdan keyin rivojlanadi. Uning paydo bo'lishiga burun kasalliklari, zararli odatlar, kasb-kor zararlari, iqlim sharoitlari (jazirama issiq, changdan ifloslanish) sabab bo'ladi. Unga uzoq davomiylik xos. Surunkali faringitning uch turi: kataral, gipertrofik va atrofik turi tafovut qilinadi.

Kataral faringit. Uning belgilari tomoq qichishishi, so'lak yutganda tomoqning og'rishi, achchiq, issiq yoki sovuq ovqatlar yeganda og'riqning zo'rayishi, halqumda ko'p shillimshiq ajralmalarni yig'ilishi natijasida yo'talishga va balg'am tashlashga majbur bo'lish. Yo'tal va balg'am tashlash ayniqsa ertalab kuzatiladi va bu ko'ngil aynash, quşish bilan kechishi mumkin.

Faringoskopiyada halqum shilliq pardasida giperemiya va shish aniqlanadi.

Gipertrofik faringit. Unga ham yuqorida aytib o'tilgan belgililar xos, faqat bular kataral faringitga nisbatan ko'proq bezovta qiladi. Faringoskopiyada og'iz-halqumning orqa devori shilliq pardasi yuzasidan bo'rtib chiqib turgan limfold to'qimaning katta qizil rangli granulalari aniqlanadi. Bu holat granuloz faringit deb ataladi.

Atrofik faringit. Bu ancha qiyin kechadigan kasallik turidir. Bemor doim tomoni qurishidan, og'riqdan, achishishidan shikoyat qiladi. Faringoskopiyada shilliq parda quruq, yupqa, och pushti rang, yaltiroq ko'rindi.

Davolash: Kompleks davo choralari amalga oshiriladi. Kasallika olib kelgan sababga va kasallikning mahalliy belgilarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mahalliy ta'sir etish choralaridan shilliq pardadagi o'zgarishlarni davolovchi dori moddalari qo'llaniladi.

Kataral faringitda — tomoqni uzoq muddat moychek, shalfey damlamalari, ishqoriy eritmalar bilan chayish, halqum shilliq pardasini 2—3% li kumush nitrat eritmasi bilan artish tavsiya etiladi.

Gipertrofik faringitda gipertrofiya sohalarini elektrokauter bilan kuydiriladi, kriodestruksiya yoki lazerekoagulyasiya qo'llaniladi.

Atrofik faringitda asosan simptomatik davo tayinlanadi. Bu maqsadda 1% li Lyugol eritmasi, yog'li va ishqoriy ingalyasiyalar, ishqoriy eritmalar bilan tomoqni chayish tavsiya etiladi. Shuningdek vitamin A va yodli dori vositalari (masalan 3 % li kaliy yodid) buyuriladi. Achishish, yutinganda og'rishi, faringoskopiyada shilliq pardanining giperremiyasi va uning yupqalashgani surunkali faringitning kataral turiga xosdir.

Davosi: moy-ishqorli ingalyasiyalar, aerozollar, tomoqni antiseptik preparatlar bilan chayqash, shilliq pardaga dezinfeksiyalovchi preparatlar bilan ishlov berish. Dori berib davolash foyda bermasa, gipertrofiyalangan limfov to'qimaga krioaplikator, ultratovush yoki lazer bilan ishlov beriladi.

Surunkali atrofik faringit burunda va hiqildoqdagi shilliq pardanining atrofik o'zgarishlari bilan kechadi. Bemor tomog'i qurishidan, achishishidan, tomog'ida yot jism borga o'xshayotganidan shikoyat qiladi. Shilliq parda faren-goskopiya qilinganda yutqinaning orqa devori quruq, yupqalashgan, yaltirab turadi, ba'zan esa yopishqoq shilliq yoki po'stloq bilan qoplangan bo'ladi.

Davosi: Moyli, ishqorli va mumiyoning suvli eritmasi bilan ingalyasiya qilish, Lyugol eritmasini surtish, vitaminnlar berish, biogen stimulyatorlar, temir saqlovchi preparatlar tayinlanadi.

HALQUM O'SMALARI

Halqumning xavfsiz va xavfli o'smalari farq qilinadi. Xavfsiz o'smalarga papilloma, fibroma, limfangiomma, gemangiomalar kiradi.

Papilloma — qoplama epiteliydan rivojlanadigan o'sma. U qizg'ish rangda, yuzasi notekis bo'lib tanglay murtaklarida, tilchada joylashadi.

Fibroma — etilgan biriktiruvchi to'qima hujayralaridan rivojlanadigan o'simta bo'lib, tanglay murtaklarida, til ildizi tomonida, halqumning orqa devorida bo'lishi mumkin. Bunda yutinish qiyinlashadi va bemor dimog'i bilan gapiradi.

Limfangioma — limfa tomirlaridan rivojlanadigan o'sma tanglay murtaklarida, halqumning yon devori va til ildizida o'sishi mumkin.

Gemangioma — qon tomirlaridan rivojlanadigan xavfsiz o'sma.

Xavfsiz o'smalardan halqumda pappiloma, angiofibromalar keng tarqalgan. Xavfsiz o'smalar tasodifan aniqlanadi (masalan profilaktik ko'rikarda), ularni olib tashlash va uni gistologik tekshiruvdan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Burun-halqum fibromasi

Halqum yuqori paydevorining mushak pardasidan rivojlanib, elastik tolalarga, qon tomirlarga boy bo'lib, qattiq biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan. Bunday o'sma ko'proq o'spirinlik chog'ida uchraganligi uchun — o'spirin fibromiomasini ham deyiladi. Bu kasallikda burunning bir tomonlama bitib qolishi kuzatiladi. Keyinchalik burundan umuman nafas olish buziladi, tez-tez burun va og'izdan qon ketib turadi. O'simta tez ko'zga, tanglayga, kalla ichiga qarab o'sadi. Bunday hollarda ko'z soqqasi bo'rtib chiqadi, burunda va yuzda o'zgarishlar yuz beradi, kuchli bosh og'rig'i kuzatiladi.

Davosi: faqat jarrohlilik yo'li bilan olib boriladi. Bunda ko'p qon yo'qotilishi mumkin. Shuning uchun qon yo'qotishni oldini olish chora-tadbirlari o'tkazish zarur.

Xavfli o'smalar

Xavfli o'smalariga sarkoma, rak, melanoblastomalar, retikulosarkoma, limfoepitelioma kabi o'smalar kiradi.

O'smalarning dastlabki bosqichida yot jism borligi hissi, yutinganda og'riq sezilishi mumkin. O'smaning parchalanishi, yutinganda turadigan kuchli og'riq bemorning tinka-madorini quritadi.

Xavfli o'smalar tez o'sadi, regionar limfatik tugunlariga, ichkaridagi a'zolarga erta metastaz beradi, burundan qon ketish, noxush hidli yiringli ajralma kelishi kuzatiladi.

Xavfli o'smalar ko'pincha rak yoki sarkoma shaklida uchraydi.

Halqum o'smalari g'adir-budur bo'lib, qizg'ish rangli va qattiq konsistensiyaga ega bo'ladi. Xavfli o'smalar asosan (52—86 %) regionar bo'yin limfatik tugunlariga, metastaz beradi. Boshlang'ich bosqichida xavfli o'smalar aniq belgilarga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababga ko'ra ularni vaqtida aniqlash qiyin kechadi. Klinik manzara yuzaga chiqib, tashxis qo'yilgandan keyin davo choralarini yaxshi natiya bermasligi mumkin.

Tashxis anamnestik ma'lumotlar, klinik manzara, endoskopik, rentgenotomografik (kompyuter tomografiya), citologik va gistologik tekshiruvlar natijalariga asosan qo'yiladi. Halqumning xavfli o'smalarida mujassamlashgan davolash usuli qo'llaniladi. U o'z ichiga jarrohlilik aralashuvi, nurlash va kimyoterapiyani oladi.

Masalalar

№1. 27 yoshli bemor tomog'ining o'ng tomonida kuchli og'riqdan, so'lak oqishi, og'zini ochishga qiynalayotganidan shikoyat qilmoqda.

Bir hafta oldin angina bilan og'igan, antibiotiklar bilan davolangan. Bemor boshini o'ng yonboshiga egib turibdi. Bo'ynining o'ng tomonida, jag' burchagi ostida og'riqli shish aniqlanmoqda.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Davolash yo'l-yo'riqlari.

№2. Bemor ayol tez-tez angina bilan og'rishidan, har oyda tana harorati o'zgarmasdan umumiy ahvoli yomonlashuvidan shikoyat qildi. Kasallik davrida ayniqsa yutinish akti og'riqli bo'ladi.

1. Taxminiy tashxis.

№3. Bemor tomog'i doimiy qurishidan unda yet jism borligi hissidan shikoyat qildi. Tekshirilganda: halqumning orqa devorining shilliq pardasi qurib yupqalashgani, karashlar bilan qoplanganligi aniqlandi.

1. Tashxisi.
2. Davolash.

№4. 30 yoshli bemor yilda 3—4 marta angina bilan og'rishidan, shunda tana harorati 39—40°C gacha ko'tarilishidan, bo'g'inlarda og'riq paydo bo'lishidan shikoyat qilmoqda.

Tekshirilganda: tanglay bodomcha bezlari yoylarga yopishgan, ularning lakunar erida suyuq yiring aniqlandi.

1. Tashxisi.
2. Mazkur kasallikka yana qanday belgilarni xos?

№5. Bemor baliq yeganda qiltanog'ini yutib yuborgan. U tomog'ining o'ng tomonidagi og'riqdan va qayd qilishdan shikoyat qilmoqda.

1. Halqumning qaysi bo'limida ko'pincha yet jism ushlanib qoladi.
2. Sizning xatti-harakatingiz.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi anginada meningizm simptomlari bo'lishi mumkin?

- A. Fibrinoz anginada.
- B. Folikulyar anginada.

- C. Kataral anginada.
- D. Nekrotik anginada.

2. Nutq hosil qilish funksiyasini buzilishi qaysi anginada kuzatiladi?

- A. Pay murtaklarining anginasida.
- B. Til murtagi anginasida.
- C. Gerpetik anginada.
- D. Flegmonoz anginada.

3. Flegmonoz anginaga qaysi simptom xos?

- A. Murtak qizarishi.
- B. Murtak kattalashishi.
- C. Palpasiya vaqtida murtakda og'riq paydo bo'lishi.
- D. Murtakda tvorogsimon oq karash paydo bo'lishi.

4. Anginaning qo'zg'atuvchisi ...

- A. Guruqli betta-gemolitik streptokokk.
- B. Stafillokokk.
- C. Yashilsimon streptokokk.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

5. Parafaringeal abscessga qaysi simptom xos emas?

- A. Yutunishda kuchli og'riq bo'lishi.
- B. Bemor og'zini ochishga qiynalishi.
- C. Abscess tomoniga boshini egib turishi.
- D. Splenomegaliya.

6. Paratonzillit — bu

- A. Limfa to'qima yoki devorining o'tkir yallig'lanishi.
- B. Tanglay murtaklarining xronik yallig'lanishi.
- C. Tanglay murtagi yonbosh devorlarida yallig'lanish.
- D. Limfa tugunlarining yiringli yallig'lanishi.

7. Tomoq qurishi, yutunishga qiynalish, og'izdan yoqimsiz hid kelishi. Mazkur simptomlar qaysi faringitda uchraydi?

- A. Kataral faringitda.
- B. Atrofik faringitda.
- C. Gipertrofik faringitda.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

8. Adenotomiyaga mone'liklar — bu


- A. Burun orqali nafas olishning qiyinlashuvi.
- B. Qon kasalligi.
- C. O'tkir yuqumli kasalliklar.
- D. B va C javoblar to'g'ri.

V b o b .

HIQILDOQ KASALLIKLARI

Hiqildoq anatomiyasi

Hiqildoq (*larynx*) — nafas olish va tovush hosil qilish a'zosi. U bo'yinning old tomonida til osti suyagi va traxeyaning orasida IV—VI bo'yin umurtqasi sohasida joylashgan. Hiqildoq bir-biriga bog'langan tog'aylardan iborat bo'lgan kovak a'zo. Uning yuqori qismida til osti — qalqonsimon parda bilan ulangan, pastda hiqildoq traxeya bilan bog'langan. Hiqildoqning yon devorlari bo'yinning yirik tomir va nerv tolalari, orqadan esa halqum va qizil-o'ngach bilan qo'shni joylashgan. Hiqildoqning old va yon yuzalari mushaklar, fassiyalar va qalqonsimon bez bilan chegaradosh. Qalqonsimon bez traxeyaning I-halqasidan III halqasigacha bo'lgan sohasini egallagan. Hiqildoq — harakatchan a'zo bo'lib gaplashganda, kulganda, nafas olganda va yutinganda faol harakat qiladi. U tashqarisidan teri osti kletchatkasi va teri bilan qoplangan. Hiqildoq sohasidagi teri yupqa (2 mm) va elastik bo'lib, engil siljiydi. Bu hiqildoqni paypaslashga imkon beradi. Hiqildoq skeleti 3 ta toq yirik va 3 ta juft mayda tog'aylardan iborat. Toq tog'aylargauzuksimon, qalqonsimon va hiqildoq usti tog'aylari kiradi. Uzuksimon tog'ay hiqildoqning asosini tashkil etadi, qalqonsimon tog'ay bo'shlig'ini tashqi ta'sir himoya qiladi, hiqildoq usti tog'ayi esa uni «qopqog'i» sifatida so'lak va ovqat bo'laklari ketib qolganda uni nafas yorig'iga tushib qolishini oldini oladi. Juft tog'aylar cho'michsimon, shoxsimon va ponasimon tog'aylaridan iborat (58-rasm).



58-rasm. Hiqildoq skeleti.

1 — traxeya; 2 — uzuksimon tog'ay; 3 — konussimon boylam; 4 — qalqonsimon tog'ay; 5 — qalqonsimon tog'aydag'i o'yma; 6 — qalqonsimon til osti membranasi; 7 — til osti suyagi; 8 — qalqonsimon tog'ayning yuqori shoxi; 9 — qalqonsimon tog'ayning pastki shoxi.

Hiqildoq tog'aylari bir-biriga nisbatan ma'lum harakat-chanlikka yo'l qo'yadigan boylamlar va bo'g'imlar orqali o'zaro birlashgan.

Hiqildoq muskullari tashqi va ichki muskullarga bo'linadi. Tashqi muskullarga hiqildoqni muayyan bir holatda tutib turadigan, uni ko'taradigan va tushiradigan uchta juft muskullar kiradi.

Hiqildoqning ichki muskullarini bajaradigan vazifasiga ko'ra guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Bitta (juft) muskul nafas olishda hiqildoq teshigini kengaytiradi.
2. Uchta muskul hiqildoq teshigini toraytiradi va bu bilan tovush funksiyasini ta'minlaydi.
3. Ikkita muskul tovush burmalarini tortib turadi;
4. Ikkita muskul hiqildoq usti qopqog'ini tushiradi va orqaga egilishini ta'minlaydi.

Hiqildoq bo'shlig'ini tog'aylar, boylamlar, muskullar hosil qiladi. Hiqildoq ichki tomondan shilliq parda bilan qoplangan. Hiqildoqda uch qavat tafovut qiladi: tovush burmalari ustidagi yuqori (vestibulyar) qavat, o'rta-tovush burmalari sohasi va pastki — burma osti bo'shlig'i.

Erkaklarda tovush boylamlarining uzunligi 20—22 mm ayollarda 18—20 mm bo'ladi. Tovush yorig'i orqa qismining eni kattalarda o'zgarib turib, u 17—20 mm atrofida bo'ladi.

Hiqildoq shilliq pardasi hiqildoq-halqum shilliq pardasining davomi hisoblanib, pastda u traxeya shilliq pardasiga o'tadi.

Hiqildoqning qon bilan ta'minlanishi yuqorigi va pastki hiqildoq arteriyalari orqali amalga oshiriladi.

Venalardan qon oqishi hiqildoq, til va bo'yin venalarining chigallari bilan bog'langan yon tutam bilan amalga oshiriladi. Asosiy qon oqimi hiqildoqdan yuqorigi qalqonsimon vena orqali ichki bo'yinturuq venaga yo'naladi.

Hiqildoqning limfa turi qorinchalarining shilliq pardasida va hiqildoqning yuqori qavatida yaxshi rivojlangan. Limfa shu erdan va hiqildoqning o'rta qavatidan bo'yinturuq vena qon tomiri bo'ylab joylashgan chuqur bo'yin limfa tugunlariga to'planadi. Limfa pastki qavatdan konussimon boylam oldida, ichki bo'yinturuq venasi bo'ylab va traxeya oldida joylashgan tugunlar tomon oqadi.

Hiqildoq innervasiyasi — adashgan nervning sezuvchan va harakatlantiruvchi tolalari bilan amalga oshiriladi. Yuqorigi hiqildoq nervi asosan sezuvchan nerv bo'lib, u adashgan nervning pastki bo'limidan ajralib chiqadi. Pastki hiqildoq nervi harakatlantiruvchi nerv, chapdagisi adashgan nervdan, u aorta ravog'ini aylanib o'tgan joyidan, o'ng tomondagi esa adashgan nervdan, o'mrov osti arteriyasi sathidan ajralib chiqadi. Hiqildoqqa bu shoxchalar yon tomondanuzuksimon va qalqonsimon tog'aylar orasidan kiradi.

Traxeya (*trachea*) hiqildoqning davomi hisoblanib, u bevosita uzuksimon-traxeal boylam bilan bog'langan. Traxeya — uzun silindrsimon nay bo'lib (uzunligi 11—13 sm) VII bo'yin umurtqasi tanasining sathidan boshlanadi, IV—V ko'krak umurtqalari sathida esa 2 ta asosiy bronxga bo'linadi. Bo'lingan joyi traxeya ayrisi deyiladi (bifurkasiya). Yangi tug'ilgan chaqaloqda traxeyaning pastki uchi III—IV ko'krak umurtqalari sathida joylashgan. Traxeya devorining bo'sh turgan uchlari orqaga yo'nalgan 16—20 ta taqasimon shakldagi gialin tog'aylaridan iborat. Ular orasida traxeya devorining pardasimon qismi tortilgan. Tog'aylar o'zaro halqasimon boylamlar bilan birikkan, shular orqali traxeya oralig'i nafas olishda kengayadi va nafas chiqarishda torayadi. Traxeya ichining kengligi doimiy hisoblanmaydi. Erkaklarda u 15 dan 22 mm gacha, ayollarda 13 dan 18 mm gacha, ko'krak yoshidagi go'daklarda 6—7 mm, 10 yoshli bolada 8 dan 11 mm gacha bo'ladi. Traxeya ichki tomonidan cilindrsimon hilpillovchi epiteliy qoplagan shilliq parda bilan o'ralgan. Kiprikchalarining harakati yuqoriga tomon yo'nalgan.

Traxeyaning pardasimon orqa devori qizilo'ngachning oldingi devoriga yopishib turadi. Bu nisbatni traxeostomiya qilishda nazarda tutish lozim. Traxeya ayrisining (bifurkasiya) ichki tomonidan do'ngcha-pix hosil qiladi, u oz-moz chapga siljigan. Ikki asosiy bronxdan o'ng tomondagisi chap tomondagiga qaraganda kaltaroq va kengroq. O'ng bronxning uzunligi 3 sm, chap bronxniki 5 sm. O'ng bronx traxeyaning deyarli davomi hisoblanadi, shuning uchun ham unga ko'pincha yot jismlar tushadi.

Traxeya va bronxlarning qon bilan ta'minlanishi pastki qalqonsimon va bronxial arteriyalar hisobiga amalga oshiriladi. Traxeya va bronxlarning venalari qalqonsimon venalarga qo'shiladi.


Traxeya va bronxlarning innervasiyasi adashgan nervning qaytuvchi tarmog'i va uning traxeal tarmoqchalari hisobiga amalga oshiriladi, ular nafas yo'llarining pastki bo'limida

chigal hosil qiladi. Bronxlarda joylashgan muskul tolalari adashgan va simpatik nervlar hisobiga inervasiya qilinadi.

Hiqildoq fiziologiyasi

Hiqildoq, traxeya va bronxlar nafas, himoya va tovush hosil qilish (fonator) funkciyasini bajaradi. Hiqildoqning nafas funksiyasi olingan havoni pastki bo'limlariga o'tkazishdan iborat. Nafas olinayotganda tovush yorig'i ochiq turadi va uning kengligi organizmning kislorodga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq bo'ladi. Tovush yorig'i reflektor ravishda ochilib turadi. Bunda nafas aktiga qovurg'alararo mushaklar va diafragma qo'shilgani tufayli nafas harakatlari maromi va chuqurligi o'zgaradi. Reflektor yoyi nafas markaziga yo'nalgan bo'ladi (59-rasm).

Himoya funksiyasi. Hiqildoq va traxeya bir tomondan nafas yo'llariga yot jismlarning tushishiga qarshilik qiladigan to'siq rolini, ikkinchi tomondan nafasga olinadigan havoni namlash, isitish, tozalashni ta'minlaydigan a'zo vazifasini bajaradi. Himoya funksiyasi mexanizmi hiqildoq shilliq pardasida uchta refleksogen zonalar borligi bilan bog'liq.



59-rasm. Hiqildoq nafas olganda (*a*) va fonatsiya vaqtida (*v*).

1 — hiqildoq ubsti qopqog'i; 2 — daxliz burmasi; 3 — tovush burmasi; 4 — cho'michsimon burmasi; 5 — cho'michsimon tog'ay; 6 — traxeya teshigi.

Ovqat va boshqa zarrachalarning yoki biror kimyoviy moddalarning shu refleksogen zonalar shilliq pardasiga ta'siri natijasida tovush yorig'ining spazmi yuzaga keladi. Refleks nafas chiqarishga imkon beradigan muskullarga o'tadi. Bunday hollarda reflektor yo'tal paydo bo'ladi, balg'am tashlanadi va nafas olish tezlashadi. Hiqildoq yutunishda murakkab harakat qiladi. U yuqoriga va orqadan oldinga, o'nga kirib, til ildizi bilan pastga tushiriladigan hiqildoq usti qopqog'i bilan yopiladi, bunda hiqildoq usti qopqog'ining uchi halqumning orqa devoriga tegib turadi. Ovqat moddalari hiqildoq qopqog'ining ikki tomonidan o'tib, qizilo'ngachning kengaygan kirish qismiga tushadi.

Traxeya va bronxlarning himoya funksiyasi ulardan havo bilan tashqaridan kirgan yot moddalarni chiqarib tashlashdan iborat. Bunga hiqildoq shilliq pardasining hilpilllovchi epiteliysi va ularni ishlab chiqaradigan shilimshiq imkon beradi.

Tovush hosil qilish funksiyasi. Tovush hosil bo'lishida nafas apparatining uchta asosiy bo'limi: 1) o'pka, bronxlar, traxeya (pastki rezonator); 2) hiqildoqning tovush apparati, xususan, tovush burmachalari; 3) og'iz bo'shlig'i, burun va uning atrofidagi qo'shimcha sinuslarni rezonasiya qiladigan, pastki jag', lab, tanglay va lunjlarning harakati tufayli o'z shaklini o'zgartiruvchi a'zolar (yuqorigi rezonator) ishtirok etadi.

Tovush balandligi, kuchi va tembri bo'yicha farq qiladi. Erkaklarda hiqildoq va tovush burmachalari o'lchami bolalar va ayollarga qaraganda kattaligi tufayli erkaklarda tovush bir oktavaga past bo'ladi. Tovushning o'zgarishi yoki uning sinishi (mutasiyasi) balog'at yoshiga etganda (12—16 yoshlar orasida) yuzaga keladi. O'g'il bolalarda tovush diskant yoki altdan tenor, bariton yoki basga o'tadi, qizlarda esa — soprano yoki kontroltoga o'tadi.

Hiqildoqni tekshirish usullari

Hiqildoqning o'smalaridagi assimetriyani, tog'aylar to'qimasidan yallig'lanish jarayonlarini aniqlashda tashqi ko'zdan kechirish va hiqildoq sohasini paypaslash usullari yordam beradi. Hiqildoq bo'shlig'ini tekshirish uchun bevosita va bilvosita laringoskopiya usullari qo'llaniladi. Bilvosita laringoskopiya hiqildoq ko'zgusi yordamida nafas olish va tovush chiqarish (fonasiya) vaqtida amalga oshiriladi (60-rasm). Hiqildoq shilliq pardasining rangiga, tovush burmalarining holatiga e'tibor qaratiladi. (normada tovush burmalarining rangi oqroq). Tovush burmalarining harakatchanligini va fonasiya paytidagi o'zgarishlarini tekshirish kerak. Chuqur nafas olinganda traxeyaning yuqori qismini ham ko'zdan kechirish mumkin.

Halqumning quisish refleksi yuqori bo'lsa hiqildoqni chuqurroq tekshirish uchun mahalliy og'riqsizlantirish usullaridan foydalaniladi. Bu maqsadda pulverizator yordamida anestetik eritmasi tanglay shilliq pardasi, halqum orqa devori, til ildiziga purkaladi. Bilvosita laringoskopiya ba'zi kasalliklarni aniqlashda doimo ham kutilgan natijani




60-rasm. Bilvosita laringoskopiya.

bermaydi. Shuning uchun murakkab hollarda bevosita laringoskopiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bevosita laringoskopiya maxsus asboblar—laringoskoplar yordamida amalga oshiriladi. Ular avtonom yoritish moslamalari bilan ta'minlangan. Usulning mohiyati og'iz bo'shlig'i va hiqildoqning orasidagi burchakni to'g'rilib, hiqildoq va traxeyani ko'zdan kechirish imkoniyatini yaratadi. Bu usul ko'proq bolalarni tekshirish amaliyotida qo'llaniladi. Bevosita laringoskopiya mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish ostida o'tkazilishi mumkin.

Hiqildoqni tekshirishning zamonaviy usullaridan biri — bu (to'g'ri) — bevosita mikrolaringoskopiadir. Bu fokus masofasi 300—400 mm bo'lgan maxsus mikroskop yordamida narkoz ostida o'tkaziladi. Bu usul asosida hiqildoqning endolaringeal mikroxirurgiyasi rivoj topgan. Oxirgi yillarda hiqildoq bo'shlig'ini tekshirishda uni endoskop yordamida ko'zdan kechirish katta ahamiyat kasb etmoqda — fibrolaringoskopiya. Bu usul hiqildoqning barcha qismlarini egiluvchan fibrolaringoskop bilan tekshirib chiqishga imkon yaratadi. (61-rasm). Fibrolaringoskopiya mahalliy



61-rasm. Egiluvchan fibroskoplar yig'masi.

og'riqsizlantirish ostida amalga oshiriladi va biopsiya, endofotografiya qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Hiqildoqni tekshirish uchun laringostroboskopiya qo'llaniladi. Bu usul yordamida tovush burmalarining tebranish harakatlarining (ko'ndalang, to'lqinsimon, bo'ylama) turini aniqlash mumkin. Harakatlar amplitudasini va tovush burmalarining tebranish tezligini aniqlash ham mumkin. Mazkur usul hiqildoqning turli patologik holatlariga (xavfsiz o'smalar, o'sma oldi va infiltrativ jarayonlar, disfoniylar) baho berishda katta ahamiyatga ega.

Tashxisni aniqlashda rentgen diagnostikani ahamiyati katta. Frontal proeksiyada o'tkazilgan hiqildoqning rentgenologik tekshiruvi, ayniqsa tomografik usul, hiqildoqning barcha bo'limlarini holatini aniqlashga imkon beradi.

HIQILDOQ KASALLIKLARI

Hiqildoq shikastlari

Hiqildoq yiqilish natijasida, biror qattiq narsaga urilishi sababli, hiqildoq atrofiga zarb bilan urganda jarohatlanadi. Bunday hollarda tog'aylar sinishi, darz ketishi, kesilishi, ezilishi mumkin. O'tmas narsa bilan shikastlanganda teri ostiga tarqalgan hollatda qon quyilishi mumkin. Ba'zan hiqildoq tog'aylari o'z o'rnidan qo'zg'aladi.

Hiqildoq jarohatlanganda hiqildoq stenozi, undan qon oqishi, arterial bosimning pasayishi va pulsning tezlashuvi kuzatiladi.

Klinik manzarasi. Ovozning (tovush chiqarishning) buzilishi, hatto afoniya rivojlanishi mumkin. Hiqildoq sohasida og'riq, nafas olish (shovqinli, stridoroz nafas) va yutinishing buzilishlari kuzatiladi.

Hiqildoqni tekshirganda shilliq pardaga qon quyilganini, u qoramitir- qizg'ish tusga kirganini kuzatish mumkin.

Davolash: Hiqildoqni shilliq ajralmalardan, karashlardan tozalash lozim. Antiseptik eritmalar bilan yuvish kerak, antibiotikli eritmalar yoki adrenalin eritmani purkash lozim.

Jarohatlangan bemor hayoti uchun xavfli bo'lgan qon ketishini to'xtatish, ochiq kesilgan yaralarni tozalab tikish va nafas olishni tiklash kerak. Singan tog'aylarni to'g'rilab joy-joyiga qo'yish, tog'ay usti pardasini tikish lozim.

Og'riq va yo'talni qoldiruvchi, so'lak va shilimshiqni kamaytiruvchi dorilar, antibiotiklar beriladi. Bo'g'ilishning og'ir turida traxeostomiya qilinadi. Jarohatlangan bemorga qoqsholga qarshi zardob yuborish lozim.

Hiqildaq kuyishlari. Amaliyotda asosan hiqildaq, halqum, qizilo'ngachning aralash kuyishlari kuzatiladi. Shish ovoz (tovush) va dahliz burmalariga tarqaladi va natijada nafas yo'llari torayadi. Yutunish qiyinlashadi va og'riqli bo'ladi, keyinchalik stenoz oqibatida nafas olish qiyinlashadi.

Davolash: yallig'lanishga qarshi vositalar (moychechak, shalfey) bilan tomoqni chayish buyuriladi. Antibiotiklar, to'qimalar shishini kamaytiruvchi vositalar qo'llaniladi. Ko'rsatma bo'lsa, traxeostomiya qilinadi.

Hiqildoqqa yot jism tushishi

Yot jismlar — ovqat bo'laklari yoki boshqa jismlar og'iz orqali hiqildoqqa to'satdan nafas olganda, baqirganda, gapirganda, kulganda tushib qolishi kuzatiladi. Ko'p hollarda 1—4 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Katta yoshdagagi kishilarda esa nafas yo'llariga yot jismlar e'tiborsizlik va ehtiyyotsizlik tufayli (igna, to'g'nog'ich, shpilka va boshqalar) tushishi ayniqsa, mastlik holatida bronxlarga qusuq massasi, qon, ovqat bo'lakchalari, tish protezlari va boshqalar tushib qolishi mumkin.


Klinik kechishi. Yot jismlar hiqildoqda ko'p turib qolmay, ko'pincha tovush yorug'i orqali traxeya yoki bronx-

larga o'tib ketishi mumkin. Yot jismning nafas yo'llarida bo'lishi uning o'ziga va organizmning reaksiyasiga bog'liq. Yot jism hiqildoqqa tushganida yo'tal xuruji paydo bo'ladi. Tovush yorug'i butunlay bekilib qolganda o'sha zahoti asfiksiya va o'lim sodir bo'ladi, qisman bekilganda tovush bo'g'ilishi, yo'tal, shilliq parda shishi tufayli nafas olish qiyinlashadi.

Davolash: xodisa sodir bo'lgan joyda zudlik bilan shoshilinch tibbiy yordam choralari ko'rsatiladi: barmoq yordamida hiqildoqqa tiqilgan jismni olib tashlashga uriniladi. Chorasiz qolganda yosh bolani boshini pastga qaratib, oyoqlarini ushlab silkitish kerak. O'spirin va katta yoshdag'i bemorlarda kindik sohasini ikki qo'l bilan ushlab, tez bir necha bor siqiladi, shunda yot jism tushib ketadi. Bunda yordam ko'rsatuvchi bemorning orqasida turishi kerak. Barcha ko'rsatilgan yordamlar faqat boshni pastga qaratgan holda amalga oshiriladi. O'tirgan holda orqasiga urib bo'lmaydi — bu bemorni holatini og'irlashishiga olib kelishi mumkin.

Bemor hushsiz bo'lsa, uni qattiq joyga chalqancha yotqizib, siqib turgan kiyimlari echiladi. Bemor oyoqlari yirilib, yordam ko'rsatuvchi ikkala qo'l kaftlarini birlashtirib kindikdan boshlab hiqildoq tomonga (yuqoriga) bosiladi. Keyin bemorning og'iz bo'shlig'i ko'zdan kechiriladi va yot jism ko'rinsa uni barmoqlar bilan olib tashlashga harakat qilinadi. So'ngra, sun'iy nafas berish kerak. Mazkur usul — Geymlix amali deb ataladi. Bu amal 6—8 marta o'tkaziladi. Agarda yot jismni olib tashlash imkonи bo'lmasa zudlik bilan koniko- yoki traxeostomiya qilish zarur. Konikotomiya va traxeostomiya operasiyalari haqida to'liq ma'lumot «Hiqildoq stenozlari» mavzusida berilgan.

Og'ir hollarda bemorni gospitalizasiya qilish lozim. Kichik yoshdag'i bolalarda faqat to'g'ri laringoskopiya qilinadi. Shu paytda traxeyada harakatlanib turgan yot jismni olib tashlash mumkin. Ba'zan olib tashlash rentgen nazorati ostida olib boriladi. Bolalarda, katta yoshdag'i odamlarda va



62-rasm. Traxeobronxoezofagoskop yordamida o'ng bronxdan yet jismni chiqarib olish.

- 1 — asbobning dastasi;
- 2 — uning oyna yorig'i;
- 3 — tracheoskop;
- 4 — traxeya;
- 5, 8 — o'ng bronxnинг tarmoqlarga bo'linishi;
- 6 — chap bronxnинг tarmoqlarga bo'linishi;
- 7 — yet jismni olish uchun qisqich;
- 9 — yet jism.

zaiflashgan bemorlarda yet jismlar narkoz bilan olinadi. Nafas olish qisilganda yoki asfiksiyada darhol traxeostomiya qilish, sun'iy nafas oldirish, so'ngra Fridel optik asbobi yordamida pastki traxeobronxoskopiya qilish kerak (62-rasm).

Nafas yo'llariga yet jismlar tushishining **profilaktikasi** aholi o'rtasida bu patologiya qoldiradigan asoratlar va uning og'irligi to'g'risida madaniy-oqartuv ishlarini olib borish-dan iborat.

Traxeya va bronxlardagi yet jismlar

Traxeya va bronxlarga yet jismlar 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga og'iz bo'shlig'idan chuqur nafas olganda tushi-shi mumkin. Ular turli mayda narsalar bo'ladi: pista, tarvuz urug'i, loviya, noxot, tugma, to'g'nog'ich, mix, shurup, o'yinchoqlar qismlari va hokazolar. Kattalarda bu tish protezlari, tish qoplamlari, go'sht suyaklari bo'lishi mumkin.

Yet jismlarni tushishiga kulish, yig'i, yo'tal, hushdan ketish, mastlik sabab bo'lishi mumkin.

Klinik manzara yet jismning xarakteri, shakli, kattaligi, uning joylashishiga, bemor yoshiga bog'liq. Aspirasiya vaqtida tovush yorug'inинг reflektor spazmi yuzaga chiqadi, bo'g'ilish xuruji boshlanadi. Teri qatlamlari keskin sianoz bo'ladi. Bo'g'ilish xuruji tez tarqab, kuchli yo'tal paydo bo'ladi. Traxeyaga yet jismlar tushishi 9—13 % hollarda uchraydi. Yo'tal vaqtida ular traxeyada siljib turadi. Nafas yorig'idan o'tib ketib yet jism traxeya bifurkasiyasiga etib yo'tal refleksini chaqiradi. Shunda yet jism yuqoriga ko'tarilib, mustaqil chiqib ketishi mumkin. Lekin ko'p hollarda yet jism burma osti yuzalariga tegib refleksogen zonani ta'sirlantiradi, oqibatda tovush yorig'ini berkitib turuvchi mushaklar qisqarib, yet jismni yana pastga bifurkasiyagacha tushishiga sabab bo'ladi.

Ayrim paytda u tovush burmalari orasida qisilib, bo'g'ilishga olib keladi.

Bronxlardagi yet jismlar ko'proq o'ng bronxga joylashadi, chunki u traxeyaning davomi kabi to'g'ri yo'nalishga ega, chap bronx esa, traxeyadan o'tkir burchak hosil qilib ajraydi.

Klinik manzarasi. Agar yot jism o'Ichami bronx bo'shilig'iga mos kelsa va u bronxni to'liq obturasiya qilsa, o'pka ateletkazi (kollaps) hodisasi yuzaga chiqadi: o'pka chegarasi siljiydi, tovush titrashi kuchayadi. Auskultasiyada nafas yo'q bo'ladi. Perkussiyada tovushning o'zgarishi, qaramaqarshi tomonda emfizemaga xos belgilar kuzatiladi. Xansirash paydo bo'ladi. Bunday manzara keskin yoki sekin-asta rivojlanadi. Ba'zan yot jism klapan rolini ijo etadi: nafas olganda havo bermalol bronxdan o'tadi, nafas chiqarish esa qiyinlashadi. Bunda zararlangan bronx tomonida emfizema rivojlanadi. Tashxis qo'yish uchun umumiy tekshirish (ko'zdan kechirish, perkussiya, auskultasiya, palpaciya) va to'liq anamnez yig'ilishidan tashqari ko'krak qafasi rentgenoskopiya va rentgenografiyasi o'tkaziladi.

Davolash: shoshilinch yordam sifatida asosan bronxoskopiya o'tkaziladi. U og'iz bo'shilig'i orqali yoki traxeostoma orqali qilinishi mumkin. Agar bronxoskopiya vaqtida yot jismni olib tashlashni iloji bo'lmasa, bemorni xirurgik bo'limga torakotomiyani bajarish uchun o'tkazish kerak.

O'tkir laringit

O'tkir laringit hiqildoq shilliq pardasining eng ko'p tarqalagan kasalliklaridan hisoblanadi. Alovida kasallik sifatida o'tkir laringit tovushning o'ta taranglashuvi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Ko'pchilik hollarda u o'tkir respirator xastaliklar, gripp bilan birga kechadi. Ba'zan kasallik sanoat korxonalaridagi changning, gazlarning ishchilarga bo'lgan salbiy ta'siriga bog'liq bo'ladi. O'tkir kataral laringitda hiqildoq shilliq pardasining patologoanatomik o'zgarishlari barcha hiqildoq bo'limlarining giperemiyasi bilan ifodalangan shish orqali harakterlanadi. Bu ayniqsa tovush burmalarida seziladi. Normada tovush burmalarining chekkasi yupqa bo'ladi. Yallig'lanishda burmalar yo'g'onlashib, chetlari burishib qoladi. Burmalarning taranglashish va yopilish xususiyati o'zgaradi. Yallig'lanish sekreti nafas

yorig'ining bo'shlig'iga to'planib, burmalarning ochilib, yopilishiga halal beradi. O'tkir laringit — halqum, traxeya va bronxlarning shilliq pardasining yallig'lanishi bilan kechishi mumkin. Bunda kasallik faringolaringit, laringo-traxeit deb nomlanadi. O'tkir laringitning yuzaga chiqishida umumiyl va mahalliy sovqotish, tovush chiqarishdagi zo'riqish (baqiriq, baland ovozda uzoq gapirish), juda muzdek oziq-ovqat va suyuqliklarni iste'mol qilish, burundan nafas olishning imkonini bo'limganda og'iz bilan nafas olish sabab bo'lishi mumkin.

Simptomlari. O'tkir laringit tovush bo'g'ilib qolishi, tomoq qichishishi, achishishi va tomoqning qurib qolishi bilan xarakterlanadi. Tana harorati odatda normal, kam hollarda subfebrilgacha ko'tariladi. Subyektiv sezgilar bilan birga kasallikning dastlabki kunlarida quruq, keyinroq balg'amli yo'tal bezovta qiladi. Tovush hosil qilish funksiyasining buzilishi har xil darajadagi disfoniyadan to afoniyagacha boradi. Qator hollarda nafas olish qiyinlashadi, bu shilimshiq-yiringli qatqaloqlar to'planishi va shilliq pardanining shishuvi bilan bog'liq. Laringoskopiyada barcha hiqildoq bo'limlarining bir xil qizarishi, nafas yorig'ida yopishqoq modda to'planishi aniqlanadi. Bolalarda laringitni difteryaning tarqalgan formasidan ajratish lozim. Bu holda patologo-anatomik o'zgarishlar, fibrinoz yallig'-lanish, shilliq osti to'qimalar bilan zich bog'langan kulrang sarg'ish rangdagi pardalar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Davosi: ehtiyyot choralarini ko'rish, ya'ni baland ovozda gapirmaslik zarur. Bordi-yu, kasalning kasb-kori ko'p gapirish bilan bog'liq bo'lsa, tovush funksiyasi tomomila tiklanmagunga qadar bemor ishdan ozod qilinadi. Davolashda ovqatlanish rejimi muhim o'rinn tutadi. Bunda sovuq, juda ham issiq, achchiq ovqat yeyish man qilinadi. Bemor spirtli ichimliklar ichmasligi va chekmasligi kerak. Hiqildoqning shilliq pardasi iliq suv yoki iliq mineral suv ichish, bo'yinga issituvchi kompress qo'yish yo'li bilan

isitiladi. Dori-darmonlar bilan davolash hiqildoqdagi yallig'lanish jarayonini tugatish va kasallik asoratlarining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun antibiotiklarni aerozol yoki eritmalarini ingalyatsiya holida tayinlash lozim: penitsillinni 10 ml natriy xlordinning izotonik eritmasi bilan ingalyatsiya uchun 5 daqiqadan kuniga 2 marta, kamida 10 kun qilinadi. Qator hollarda yuqoridagi eritmalarga 2 ml gidrokortizon suspenziyasi qo'shish maqsadga muvofiq. Organizmning antibiotiklarni ko'tara olishini tekshirgan holda boshqa antibiotiklarni ham ingalyatsiya uchun qo'llash mumkin. Qatqaloqlar bo'lganida hiqildoqqa o'simlik moyini (Ol. Persicorum) 7 kungacha har kuni 2—3 g dan quyish yaxshi natija beradi. Bolalarga oyoqqa chalg'ituvchi issiq vannalar, boldirlarga xantallar qo'llash, namlangan kislorod hidlatish kerak. Kasal bola yotgan xona havosining namligini saqlab turish kerak. O'tkir kataral laringit o'tib ketgandan so'ng, yuqori nafas yo'llarini tekshirish va tishlar, murtaklar hamda boshqalardagi yuqumli o'choqlarni sog'lomlashtirish zarur.

Burmalar osti laringiti (soxta bo'g'ma)

Burmalar osti laringiti (soxta bo'g'ma) o'tkir kataral laringitning bir turi bo'lib, burmalar osti tovush bo'shilig'ida hosil bo'ladi. Odatda 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi, bu bolalar hiqildog'inining anatomik tuzilishi — teshigining torligi va burmalar osti bo'shilig'i kletchatkasining g'ovakligiga bog'liq. Kasallikning boshlanishi odatda burun yoki hiqildoq shilliq pardasining o'tkir yallig'-lanishi bilan bog'liq. Soxta bo'g'ma laringospazmga moyilligi bo'lgan, diatez bilan kasallangan bolalarda ko'proq uchraydi.

Soxta bo'g'ma odatda to'satdan, yarim kechada, quvquv yo'tal huruji bilan boshlanadi. Bola uyg'onib, o'rinda bezovtalanadi. Bunday paytda nafas olish xushtak chalgandek, shovqinli, og'irlashgan bo'ladi, inspirator xansirash yuzaga keladi. Tirnoqlar va ko'riniq turadigan

shilliq pardalar ko'karib ketadi. Qo'rquvdan bolaning yo'tali yana ham zo'rayib ketadi.

Tekshirib ko'rilmaga bo'yinturuq chuqurchasi, o'mrov usti va o'mrov osti bo'shliqlari, epigastral soha yumshoq to'qimalarining ichiga tortilganligi aniqlanadi. Bu holat bir necha daqiqadan to yarim soatgacha davom etib, shundan keyin kuchli terlash paydo bo'ladi, nafas olish deyarli normallashadi, bola uyquga ketib, ertalab soppasog'dek uyg'onadi. Ertasiga ba'zi bolalarda tovush biroz bo'g'iq bo'lib qolishi mumkin, ko'pincha tovush o'zgarmaydi. Ammo kasallik xuruji bir necha kundan yoki 1—2 haftadan keyin yana qaytalanishi mumkin. Nafas olishning buzilishi va yo'tal doimiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Laringoskopiyada burmalar osti bo'shlig'i shilliq pardasining gardishsimon qizargan shishini aniqlash mumkin. Bu gardishlar tovush burmalari ostidan chiqib, hiqildoq bo'shlig'ini toraytirib, nafas olishni qiyinlash-tiradi.

Davolash. Umumiy gigiyenik tadbirlar (bola yotgan xona havosini shamollatish, namlash) va davo choralarini ko'rishdan iborat. Bemorga iliq sut ichish tavsiya etiladi. Bo'yinga issiq muolajalar qilinadi va xantalli qog'ozlar qo'yiladi. Oyoqni issiq vannalarga solish yaxshi natija beradi. Balg'amning ko'chishi uchun balg'am ko'chiruvchi dorilar beriladi.

Bo'g'ilish xurujini shpatelni halqumning orqa devoriga tegizib quşish refleksini qo'zg'atish bilan to'xtatish ham mumkin.

Agar yuqorida aytilgan tadbirlar yaxshi natija bermasa, nafas bo'g'ilishi bemor hayotiga xavf solgan taqdirda traxeostomiya qilinadi. Intubasiyani odatda ehtiyyotlik bilan qilinadi, chunki u hiqildoq shilliq pardasining yaralanishiga olib keladi. Og'ir hollarda bevosita laringoskopiya qilinadi, burmacha osti bo'shlig'i shilliq pardasiga tomirlarni toraytiruvchi dorilar surtiladi, bu kifoya qilmasa, laringoyoki bronxoskopni chiqarmay turib traxeostomiya qilinadi.

Surunkali laringit

Surunkali laringit — aholining turli yoshdagi va turli ijtimoiy guruhlariga mansub shaxslari orasida keng tarqalgan. Kasallikning uch turi uchraydi: kataral, giperplastik va atrofik turlar. Hiqildoq tovush funksiyasining buzilishi barcha turlarga xosdir. Kasb-korga oid zararli omillari, chekish, ko'p gapirish hiqildoqning surunkali yalig'lani-shiga sabab bo'lishi mumkin.

Sigaret tutuni hiqildoq, kekirdak va bronxlarning shilliq pardasiga zararli, qiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, sigaret tutuni shilliq pardaning beqaror giper-miyasiga olib keladi. Bu o'z navbatida ko'p miqdorda balg'am ajralishi bilan davom etuvchi yallig'lanish jarayonini yuzaga keltiradi. Bunga sabab — sigaret tutuni hiqildoq, kekirdak va bronxlarni hilpillovchi epiteliysining faoliyatini susaytirishidir. Shuning uchun kunbo'yi yo'tal refleksi pasaygandek bo'ladi. Yig'ilib qolgan balg'amning tovush osti bo'shlig'iga tushishi qiyinlashadi. Tunda hilpillovchi epetileyning ishslash qobiliyati ma'lum darajada tiklanib yig'ilib qolgan balg'am yo'talga sabab bo'ladi (yo'talga balg'amning kekirdakdan ko'chib tushishi sabab bo'ladi). Yo'tal kuchli bo'ladi, chunki balg'am devorlarga yopishib qolib, ko'chishi ancha qiyin bo'ladi. Burun va hiqildoq shilliq pardasi nekrozlanishi mumkin. Bunda ham yallig'lanish jarayoni kuzatiladi.

Surunkali kataral laringit. Barcha hiqildoq bo'limlari shilliq pardalarining turg'un bir maromlik giperemiyasi, bundan tashqari, ularning o'rta me'yorda shishganligi qayd qilinadi. Hiqildoqning shilliq pardasi, ayniqsa tovush burmalari sohasi va cho'michsimon bo'shlig'i yopishqoq shilliq balg'am bilan qoplangan bo'ladi. Tovush burmalari uzunasiga yoki orqa bo'limlarida yopilmaydi. Bemor tovushining xirillab qolgantigidan, balg'amli yo'taldan shikoyat qiladi. Nafas olishda o'zgarish kuzatilmaydi. Disfoniya va afoniya kuzatiladi.

Davolash: gapirish (tovush chiqarish) va ovqatlanish rejimlariga rioya qilish bilan bir qatorda, medikamentoz va fizioterapevtik davo qo'llash talab etiladi. Tarkibida antibiotiklar bo'lgan aerozollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek ingalyatsiyalar yaxshi natija beradi.

Surunkali giperplastik (gipertrofik) laringit. Tovush dahliz oldi burmalari, cho'michsimon bo'shliqdagi shilliq pardanining qalinlashuvi gipertrofik laringitga xosdir. Tovush burmalarining qalinlashuvi tovush yorig'ini tamomila yopib qo'yadi. Bu hiqildoq mushaklarining tezkor ishslashini talab qiladi, natijada ularning o'ta toliqib qolishiga va oqibatda tovushning barqaror buzilishiga olib boradi. Tovush burmalarining gipertrofiyasi diffuz va chegaralangan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tovush burmalarining bo'sh chekkasida oldingi va o'rta uchdan bir qismi chegarasida kichkina tugunlar hosil bo'ladi, ularning yuzaga kelishi odatda tovushning o'ta zo'riqishi bilan bog'liqdir. Bemor ovozi dag'al bo'g'iq tovushda chiqishidan shikoyat qiladi. Hatto, afoniya paydo bo'lishi mumkin.

Davolash: surunkali kataral laringitdagiga o'xshab olib borilishi mumkin. Og'ir hollarda operativ davo qo'llaniladi.

Surunkali atrofik laringit. Atrofik laringit — bu og'ir, davolash qiyin bo'lgan xastalikdir. Hiqildoqning shilliq pardalarida yuzaga keladigan distrofik jarayonlar surunkali atrofik laringitga xos belgilardir. Bemor og'zi qurishidan, tomog'ida go'yo biror narsa borligidan, tovushining hatto afoniyagacha buzilishidan shikoyat qiladi. Laringoskopiyada hiqildoq shilliq pardasining rangsizlanib, tovush burmalari yupqalashgani aniqlanadi. Burmalar o'rta chiziq bo'yicha yopilmaydi. Tovush yorig'ida sarg'imtir tusli, qurib qoladigan yopishqoq balg'am ko'rindi.

Davolash: asosan simptomatik tarzda amalga oshiriladi. U hiqildoq shilliq pardasini namlash, patologik ajralmalarni olib tashlash, hiqildoq va traxeya bezlarining sekretsiyasini faollashtirishga qaratilgan. Kunda natriy xlorid va yod eritmasidan ingalyatsiya qilish, Lyugol eritmasini surtish

yaxshi natija beradi. Shuningdek polivitaminlar va fermentlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Hiqildoq difteriyasi (chin bo‘g‘ma)

Chin bo‘g‘ma — difteriya o‘tkir yuqumli xastalik bo‘lib, yuqori nafas yo‘llari (burun, halqum, hiqildoq) shilliq pardalarining yallig‘lanishi va organizmning umumiyliz zaharlanishi bilan kechadi. Qo‘zg‘atuvchisi — Leffler tayoqchasi.

Klinik kechishi. Odadta kasallik tana haroratining ko‘tarilishi, dag‘al yo‘tal va tovushning qisman xirillashi bilan boshlanadi. Bu difterianing birinchi bosqich yoki kataral bosqichi deyiladi.

Ikkinci bosqich — stenotik bosqich bo‘lib, bunda nafas yo‘llari ancha torayadi. Nafas jarayoni qiyinlashadi, puls tezlashadi. Lab-burun uchburchagi ko‘karadi. Bolaning ovozi jarangsizlanib qoladi.

Oxirgi bosqichiga holsizlik, uyquchanlik, mushaklarning bo‘sashi, terining ko‘karishi, yuzning oqarishi, pulsning buzilishi xos. Bu alomatlar kuchayib agoniya holatiga o‘tadi. Tashxis anamnestik ma'lumotlar, og‘iz-halqum va hiqildoqni ko‘zdan kechirish natijalariga asosan qo‘yiladi.

Klinik ko‘rinishiga qarab difteriya alomatlari halqumdan va burundan surtma olib bakteriologik tekshirish mumkin.

Davolash: bemor zudlik bilan infektion statsionarga yotqizilishi lozim. Doimiy shifokor nazoratida bo‘lishi shart. Bo‘g‘ilib qolganda xirurgik yo‘l bilan traxeostomiya qilinadi. Oldindan tashxis qo‘yib zamонавији usul bilan davolash samaralidir. Og‘ir hoatlarda toksik formalarda, qizamiq yoki skarlatina kuzatiladi.

Davolash: bermorga tezlikda Bezredka usulida difteriyaga qarshi zardob yuborish, uni atrofdagilardan alohidash va yuqumli kasalliklar kasalxonasiga yotqizish lozim. Tezlikda sanitariya-epidemiologik tadbirlar ko‘rilishi zarur. Stenoz bo‘lganda traxeostomiya, ba‘zan intubasiya qilinadi. Difte-

riyaga spetsifik davo qilish bilan birga burun va halqum shilliq pardasini dizenfeksiya qiladigan eritmalar (kaliy permanganat, furatsillin) bilan yuvib turiladi; hiqildoq natriy xloridning izotonik eritmasidagi ximotripsin bilan, antibiotiklar bilan, instillyasiya qilinadi, pardalar tushib ketguncha ishqoriy — moyli ingallyasiyalar qilinadi; balg'am ko'chiruvchi dori-darmonlar ichiladi. Yurak, qon-tomirlar sistemasining ishini har tomonlama va muntazam nazorat qilib turish kerak, agar zarurat sezilsa tegishli preparatlar tayinlanadi.

Hiqildoq anginasi

Hiqildoq anginasi — hiqildoqda joylashgan limfold to'qimalarning o'tkir yallig'lanishidir. Yallig'lanish qattiq sovuq qotish, gripp, terlab turib muzdek suyuqlik ichish hamda yot jismlar bilan hiqildoq shilliq qavatining jarohatlanishi sababli kelib chiqishi mumkin.

Bemor yutinganda, bo'ynini qimirlatganda kuzatiladigan og'riqdan shikoyat qiladi, uning ovozi o'zgarib, nafas olishga ham qiynaladi. Tana harorati 38°C gacha ko'tarilib, puls tezlashadi. Regionar limfa tugunlari kattalashib, paypaslaganda og'riq seziladi.

Laringoskopiyada hiqildoq shilliq pardasining bir tomonlama yoki uning chegaralangan bo'lagi qizargani va infiltrasiyalanganligi ko'rindi.

Kasallik cho'zilib ketsa hiqildoq absessi rivojlanishi mumkin.

Davosi: kuchli antibiotiklar, sulfamilamidlar beriladi, bo'yinga kompress, oyoqqa xantalli vannalar qilinadi. Nafas olish og'irlashgan hollarda traxeostomiya qilinadi.

Hiqildoqning o'tkir va surunkali stenozlari

Hiqildoq stenozi — shu a'zo teshigining torayishi bo'lib, u pastda joylashgan nafas yo'llariga havo o'tishiga qarshilik ko'rsatadi.

Hiqildoq stenozi o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin. Ularning sababalari quyidagilar: shilliq pardasining shishiga olib keluvchi hiqildoqning yallig'lanish kasalligi, allergik kasalliklar (Kvinke shishi), hasharotlar chaqqandagi shishlar (asalari, chivin), yot jismlari, o'smalari, hiqildoqning tug'ma nuqsonlari, paralichlar bo'lishi mumkin.

O'tkir stenoz. Hiqildoq sohasidagi nafas yo'lining o'tkir torayishi inson hayotini ta'minlaydigan barcha asosiy funksiyalarini tezda buzib, bemor o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

O'tkir stenoz to'satdan yoki nisbatan juda qisqa vaqt ichida paydo bo'ladi. U, odatda, ko'pgina kasalliklarning simptomni hisoblanadi. Stenozning kechishi ko'pincha qaytariladigan bo'ladi.

Hiqildoqning o'tkir stenozida shifokor tomonidan tezda ko'rsatiladigan shoshilinch yordam, asosiy patofiziologik omillar quyidagilar:

- 1) tashqi nafasning yetishmovchilik darajasi;
- 2) organizmning kislород tanqisligiga reaksiyasi hisoblanadi.

O'tkir stenoz avj olganda rezerv yoki moslashish mexanizmlarining shakllanish imkoniyatlari kam bo'lganligidan u yoki bu funksiyaning falajlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Moslashish reaksiyalariga nafas olish, gemodinamik, qon va to'qima reakciyalari kiradi. Nafas olish reaksiyalarini nafas qisishi bilan namoyon bo'ladi, u o'pka ventilyatsiyasining oshishiga olib keladi, xususan, nafas olishning chuqurlashishi yoki tezlashishi sodir bo'ladi. Gemodinamik kompensator reaksiyalariga taxikardiya, tomir tonusining oshishi kiradi, bu qonning daqiqalik hajmini 4—5 marta oshiradi.

Bu mexanizmlar gipoksiya va giperkapniyani ma'lum darajada kamaytirishi mumkin. O'pkada havo almashuvining yetishmovchiligi o'pkaga har bir bemor uchun individual bo'lgan qandaydir minimum havo hajmining

kirishi hisobiga qoplanishi mumkin. Bu sharoitda stenozning zo'rayishi og'ir patologik reaksiyalarga olib keladi.

Stenoz darajasiga qarab shovqinli og'ir nafas olish, o'mrov usti chuqurchalarining ichiga botganligi, qovurg'alar orasining ichiga tortilganligi, nafas ritmining buzilishi kuzatiladi. Bularning hammasi ko'ks oralig'ida manfiy bosimning oshishiga bog'liq. Og'ir stenozda bemorni qo'rquv bosadi, bezovtalanadi (u yoqdan bu yoqqa harakat qiladi, turib qochmoqchi bo'ladi), yuzi qizarib ketadi, ko'p terlaydi, yurak faoliyati, me'danining sekretor funsiyasi va buyrakning siyidik ajratish funksiyasi buziladi.

Stenoz davom etganda puls tezlashadi, lab va tirnoqlarning ko'karib ketishi kuzatiladi. Bu organizmda karbonat kislotaning to'planishi bilan bog'liqdir. Ayni vaqtida ispirator hansirash kuchayadi.

Stenozning **klinik** kechishini to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

I bosqich — kompensasiya bosqichi. Organizm o'z imkoniyatlardan kelib chiqib nafas tanqisligini yenga oladi. Nafas olish uzayib, nafas chiqarish vaqtini qisqaradi. Teri qoplamlarining rangi o'zgarmaydi, nafas yetishmovchiligi kuzatilmaydi, yurganda hansirash paydo bo'ladi.

II bosqich — subkompensasiya bosqichi. Chuqur nafas olinadi, uzoq va shovqinli bo'ladi, nafas chiqarish keskin va qisqa bo'ladi. Bemor bezovtalanadi, majburiy holatda o'tirib qoladi. Yurak urushi tezlashadi, akrosianoz kuzatiladi.

III bosqich — dekompensasiya bosqichi. Bemor juda bezovtalanadi, tovushi chiqmaydi. Nafas olishi tezlashib, yuzaki bo'ladi. Yuzi sovuq ter bilan qoplanadi, akrosianoz yuzi, bo'yni, ko'krak qafasini qamrab oladi; tirnoqlari ko'karib ketadi, es-hushi xiralashadi.

IV bosqich — asfiksiya bosqichi. Bu terminal bosqichda ipsimon puls, Cheyn — Stoks shaklidagi nafas kuzatiladi. Ixtiyorsiz siyidik va najas ajralishi mumkin. Bu bosqichda bemor o'ladi.

Davolash: hiqildoq stenozining barcha bosqichlarida bemorni zudlik bilan gospitalizatsiya qilish kerak. Agar bunga imkon bo'limasa shoshilinch yordam ekstremal sharoitda ko'rsatilishi kerak.


O'tkir hiqildoq stenozida konservativ yordam ko'rsatish usullari.

Yordam usulini tanlashda stenoz bosqichi, uni yuzaga chiqish sababları, yordam ko'rsatishi shart bo'lgan sharoitlar katta ahamiyatga ega. I-II bosqichidagi hiqildoq shishida chalg'ituvchi muolajalar: issiq oyoq vannalari, boldirlarga xantal qo'yish, diuretiklar (furosemid yoki laziks), antigistamin moddalar (dimedrol, kalsiy xlorid, pipolfen, suprastin), kortikosteroidlar qo'llaniladi. Nafas markazini faollashtirish uchun — lobelin qo'llaniladi. Aerozol orqali antibiotiklar, namlangan kislorod yaxshi natija beradi. III—IV bosqichli stenozda xirurgik davo ko'rsatiladi. Hiqildoq stenozi rivojlanishining sabablariga ko'ra bunday yordamni shifoxonada yoki turli maishiy sharoitda ham amalga oshirish mumkin.

Konikotomiya — elastik konus sohasida hiqildoqni kesib ochish — traxeostomiya o'tkazishning iloji bo'limasa, duch kelgan o'tkir kesuvchi asbob yordamida zudlik bilan amalga oshirilishi mumkin (pichoq, o'tkir tig'li narsalar va hokazo).

Traxeostomiya — hiqildoqni kesib ochish va uning ichiga maxsus naylarni tiqish. Ambulatoriya va shifoxonalarda traxeostomiya o'tkazish uchun kerakli asbob- anjomlar yig'masi doimo tayyor bo'lishi kerak (63, 64-rasmlar). Traxeostomiya operatsiyasini faqat shifokor bajarishi kerak. Lekin ayrim hollarda mazkur operatsiya shoshilinch tarzda o'tkaziladi va feldsher yoki hamshira shifokorning yordamchisi bo'lishi mumkin. Shuning uchun ular ham operasiyaning borishini bilishlari shart.(65, 66, 67-rasm).

Buning uchun bemor chalqancha yotqiziladi. Kuraklari tagiga (bo'yin tagiga emas) yostiq qo'yiladi. Operatsiya maydoni tozalanib, 0,5% li novokain bilan mahalliy an-



63-rasm. Traxeostomiya qilishda ishlataladigan asboblar
yig'masi.

1 — skalpel; 2 — qaychi; 3 — pinsetlar; 4 — shprits va ignalar;
5 — o'tkir ilmoqlar; 6 — to'mtoq ilmoqlar; 7 — qisqichlar;
8 — igna tutqich; 9 — traxeostomik kengaytirgich; 10 — so'rib olish
uchun shlang.



64-rasm. Traxeostomik naychalarning turlari.

1 — teflondan; 2 — zanglamaydigan po'latdan; 3 — manjetka
o'rnatilgan termolabil plastmassadan yasalgan nay.

steziya qilinadi. Agar bemor ahvoli juda og'ir bo'lsa, organizmda karbonat angidrid me'yordan ortib ketsa og'riqqa sezgirlik pasayishi sababli anesteziya o'tkazilmasligi mumkin.

Traxeostomiya quyidagi boqichlardan iborat:

teri, teri osti kletchatkasini kesish, kesilgan jarohat chetlarini yirish, qonni to'xtatish;

ko'krak-til osti mushaklarining birlashgan oq chizig'i ochiladi;


ikkita pinset bilan oq chiziq to'qimalari markazdan ko'tarilib, Kupfer to'mtoq qaychisi yordamida ko'ndalang kesiladi;

tarnovsimon zond oq chiziq ostiga oldin yuqoriga, keyin pastga tijilib, u bo'ylab to'qimalar kesiladi;

qalqonsimon bo'yinchcha ochiladi va pastga tortiladi;


shunday qilib traxeyaning oldingi devori ko'rildi, skalpel bilan traxeyaning ikkinchi va uchinchi yarim halqasi kesiladi;

traxeya devori kesilgandan keyin unga Trusso turidagi kengaytirgichlar kiritilib, traxeostomik kanyulya kiritiladi;



65-rasm. Tomoqni kesish turlari.

1 — konikotomiya, 2 — yuqori traxeostomiya,
3 — pastki traxeostomiya.




66-rasm. Traxeostomiya bosqichlari.

a — traxeyani kesishdan oldin, *b* — traxeostomik naychani kiritish.

agar kanyulya orqali bemor nafasi tiklansa, kanyulya atrofidagi teriga choc qo'yiladi;

traxeyaga kiritilgan nay bemor bo'yniga dokali bog'lam bilan mustahkamlanadi.

Traxeostomiyanadan keyin bemorlarni parvarishlash. Operatsiyadan keyingi birinchi kunlarda bemor alohida



67-rasm. Traxeostomik kanyulani kiritish.

parvarishga va doimiy nazoratga muhtoj bo'ladi. Traxeostoma atrofidagi terini tozalab, dezinfeksiyalovchi vositalar bilan artilishi kerak. Bog'lamni almashtirish uchun nay chiqarib olinmaydi.

Traxeostoma ichida shillimshiq va qatqaloqlar yig'ilib qolishini oldini olish uchun har 2—3 soatda unga 2—3 tomchi steril o'simlik moyi, 4% li natriy gidrokarbonat quylishi lozim. Sutkada 2—3 marta ichki nayni chiqarib, uni oqar sovuq suvda yuvib, spirt bilan tozalash kerak. Uni yana kiritishdan oldin o'simlik moyi surtish kerak. Ayrim hollarda traxeyaning ichidagi ajralmalarni maxsus so'rg'ich bilan olib tashlash kerak bo'ladi. Bu muolajadan yarim soat oldin bemor karavotining oyoq qismini yuqori ko'tariladi va bemorning ko'krak qafasi uqalanadi. Ichki traxeostomik nay orqali 1 ml 2% li natriy gidrokarbonat quylidi va 10 daqiqadan keyin traxeostomaga 10 sm chuqurlikka so'rg'ich uchligi kiritiladi va traxeya tozalanadi. Shu bilan bir qatorda stenozga sabab bo'lgan asosiy kasallik davolanadi.

Surunkali stenoz. Ko'p hollarda surunkali stenozlar o'smalar, innervatsiyaning buzilishi, chandiqli jarayonlar sababli rivojlanadi.

Surunkali stenoz tashxisini qo'yish qiyin emas va uning darajasi saqlanib qolgan nafas yorig'i kattaligiga bog'liq bo'ladi.

Davolash: asosan xirurgik usulida amalga oshiriladi. Bunday bemorlarni davolashdan asosiy maqsad — bemorga mustaqil tabiiy yo'l bilan, burundan nafas olishni ta'minlashdan iborat.

Hiqildoq nerv apparatining kasalliklari (sezuvchanlik va harakatining buzilishlari)

Hiqildoq sezuvchanligining buzilishi markaziy va periferik sabablar tufayli sodir bo'ladi, markaziy buzilishlarda ikki tomonlama zararlanish kuzatiladi (isteriya bunga kirmaydi). Sezuvchanlikning buzilishi, anesteziya, giperesteziya va paresteziya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Hiqildoq anesteziyasi, ko'pincha, hiqildoqning va hiqildoq yuqori nervining jarohatlanishi tufayli sodir bo'ladi. Bunday jarohatlarga bo'yin a'zolarida o'tkaziladigan xirurgik aralashuvlar ham kiradi. Anesteziya odatda oz-moz subyektiv sezgilarni yuzaga chiqaradi, biroq ba'zida nafas yo'llariga suyuqlik va ovqat qoldiqlarining tushib qolish xavfi vujudga kelishi mumkin.


Giperesteziya intensivligining turli-tumanligi bilan farqlanadi, u ba'zi hollarda nevralgiyaga xos xarakterga ega bo'ladi. Sezuvchanlik oshib ketganda uning buzilishi (paresteziya) kuzatilishi mumkin. Giperesteziyaga aksari nerv sistemasining umumiy kasalligi (nevraستeniya, isteriya) yoki shilliq parda periferik nervlarining o'zgarishlari sabab bo'ladi. Kasallik gapirayotganda, nafas olayotganda biror narsa tomoqda turganga o'xshash, ba'zan esa shilimshiq ajratishga ehtiyoj kabi sezgilar bilan o'tadi. Bunda bolalarda qayt qilish istagi paydo bo'ladi. Paresteziyalar hiqildoqda biror bir narsa qadalganga o'xshash, achishish, yot jismlar tushganga o'xshash, spazm va boshqa sezgilar bilan kechadi.

Davolash: nerv sistemasiga ta'sir qiladigan chora-tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi: xvoyli vannalar, vitaminlar bilan davolash, mehnat va dam olish rejimi va boshqalar shular qatoriga kiradi. Qator hollarda nerv tugunlari sohasiga ham o'tkazuvchi yo'llar bo'yab novokainli blokadalar qo'llaniladi.

Periferik jarohatlanishlarda hiqildoq ichi yoki hiqildoq tashqarisiga galvanizatsiya, diatermiya va boshqa fizioterapevtik muolajalar tayinilanadi.

Hiqildoq harakatining buzilishi. Hiqildoq parezi va paralichi mushaklardagi yallig'lanish va degenerativ jarayonlari, hiqildoqni innervatsiya qiluvchi nervlar, miya markazlari va o'tkazuvchi yo'llari faoliyatini buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ular miopatik va nevropatik bo'ladi. Miopatikerez va paralichlar hiqildoq mushaklaridagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, o'tkir va surunkali laringit, ayrim umumiy infektsion kasalliklar (difteriya, gripp, sil, tif), hiqildoq mushaklariga qon quyilishida, tovushning keskin zo'riqishida kuzatiladi. Ular asosan ikki tomonlama bo'ladi va hiqildoqning ovoz mushaklarini zararlanishi bilan kechadi. Nevropatikerez va paralichlarning kelib chiqishi periferik va markaziy bo'lishi mumkin. Markaziyerez yoki paralichlar asosan bulbar markazlarni zararlanishida va isteriyada yuzaga chiqadi. Periferikerez yoki paralichlar adashgan nerv tolalarining faoliyati buzilishiga bog'liq. Mazkur nervlar faoliyatining buzilishi sabablari: jarohatlar, turli yallig'lanishlar, o'sma kasalliklari va bo'yin, ko'krak qafasi sohasidagi patologik jarayonlar. Asosiy simptom — afoniya yoki ovozni xirillab qolishi. Tashxis laringoskopiya yordamida qo'yiladi. (68-rasm).

Davolash: etiologiyasi yallig'lanish bo'lgan hiqildoqning miopatikerez va paralichlarida o'tkir kataral laringitdagiga o'xshash tarzda davolash o'tkaziladi. Nevropatikerez va paralichlardagi hiqildoq innervaciyasining buzilishiga sabab bo'lgan asosiy kasallik davolanadi.



68-rasm. Hiqildoq muskullarining falaji.

- a* — fonatsiyada m. thyroarytaenoedei interni ning ikki tomonlama falaji; *b* — m. arytaenoedei transversi ning ikki tomonlama falaji;
- d* — shu muskullarning kombinatsiyalangan zararlanishi,
- e* — fonatsiyada chap tomondagi m. rectirrentis ning falaji;
- f* — xuddi shuning o\'zi nafas olish paytida; *g* — nafas olish paytida chap tomondagi m. postici ning falaji.

Hiqildoqning xavfsiz o'smalari

Xavfsiz o'smalardan eng keng tarqalganlari — bu fibroma va papillomalar. Ularga asta-sekin o'sish, metastaz va yaralanishlar yo'qligi xos. Juda kam hollarda laringosele uchraydi (hiqildoqning xavfli o'smasi).

Hiqildoq fibromasi. Kasallik ko'proq 20—40 yoshdagি erkaklarda kuzatiladi. O'sma doim bir tugunli bo'lib tovush burmalarining bo'sh chetida joylashib, asta-sekin o'sadi.

Kasallik alomatlari o'sma joylashishiga qarab erta yoki kechroq yuzaga chiqishi mumkin, hemor asosan ovozi o'zgarganidan shikoyat qiladi.

Tashxis bilvosita laringoskopiyada aniqlanadi. Hiqildoq ko'zgusida oyoqchali hosila ko'rindi. U moshdek, no'xatdek va kattaroq bo'lishi mumkin. Davolash faqat xirurgik usulda o'tkaziladi: maxsus qisqichlar (69-rasm) yordamida mahalliy yoki umumiy og'riqsizlantirib o'sma olib tashlanadi. Bunda operatsion mikroskop va mikro asbob-anjomlari yig'masidan foydalaniladi.


Hiqildoq papillomasi — bu epitelial o'sma, uning etiopatogenezi to'liqligicha o'rganilmagan. Hozirgi davrda papillomaning rivojlanishida virusli nazariya ko'p olimlar tomonidan tan olinmoqda. Katta odamlarda hiqildoq shilliq pardasining surunkali yallig'lanishiga, kasbga oid va zararli odatlar sabab bo'ladi. Klinik jihatdan hiqildoq papillomalar 2 ta asosiy turga ajraladi: bolalarda uchraydigan yassi hujayrali papillomalar — yuvenil tip (papillomatoz) va kattalarda uchraydigan yassi hujayrali papillomalar. Gistologik tekshirilganda ularning orasida katta farq yo'q. Lekin klinik manzarasi turlicha kechadi. Bolalardagi papilloma hiqildoqning o'zgarmagan shilliq pardasida paydo bo'ladi. Ko'pincha papillomalar tovush burmalari sohasida joylashadi. Lekin jarayon jadallahsganda ular dahliz burmalari, hiqildoq osti, burma osti sohalariga va traxeyaga tarqalishi mumkin. Ayrim hollarda odam hayotining yetuklik davrida o'z-o'zidan tuzalishi (involutsiya) ham kuzatiladi. Lekin yuvenil papillomalari malignatsiya bo'lishi ham ku-

zatiladi. Papillomalar bolalarda ko'proq 2—3 yoshligida paydo bo'ladi. Klinikasida bolaning ovozi xirillab chiqishi hatto afoniya kuzatiladi. Papillomalar kattalashgan sari jadallagan surunkali stenoz rivojlanishi mumkin. Davolashning asosiy usuli — xirurgik usuldir. Kattalarda papillomalar — tovush burmalarida joylashgan qattiq hosilalar dan iborat bo'ladi. Ular patologik o'zgargan shilliq parda fonida paydo bo'ladi. Bemorlarda ovozni xirillashi hatto afoniya kuzatiladi. Faqat xirurgik usul bilan davolanadi.

Hiqildoqning xavfli o'smalar

Hiqildoqning xavfli o'smalariga yassi hujayrali rak, turli ko'rinishdagi sarkomalar, adenokistozli rak, karsinoid kiradi.

Hiqildoq raki. Asosan 40 yoshdan oshgan erkaklarda uchraydi. Chekuvchi kishilar chekmaydiganlarga qaraganda 25 marta ko'proq kasallanadi. Bundan tashqari hiqildoq rakining paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi: nest va uning mahsulotlari, bo'yoqlar, asbestos changi va



69-rasm. Hiqildoq qisqichlari.

boshqa kancerogen moddalar bilan uzoq muddat ishlaga-

ganda.

Hiqildoq raki hech qachon to'satdan, o'zgarmagan to'qimalarda paydo bo'lmaydi. To'qimalarni xavfli o'smalarga o'tishga tayyorligini belgilaydigan patologik holatlar — rak oldi holati yoki rak oldi kasallik sifatida baholanadi. Ularga obligat rak oldi holati (ya'ni havfli o'smaga o'tishga moyilligi yuqori bo'lgan) — kattalardagi papilloma, paxidermiya, diskeratoz (leykoplakiya, leykokokeratoz) va fakultativ rak oldi holati (ya'ni rakka o'tish havfi past bo'lgan) — kontaktli fibroma, surunkali spetsifik infeksiyalardan (sil, zahm, skleroma) keyingi chandiqli jarayonlar kiradi.

Rak o'smasini o'sish shakli bo'yicha ekzofit rak (ko'p uchraydigan) — hiqildoq ichiga qarab tarqaluvchi; endofit rak — infiltratsiya hosil qilib atrofdagi to'qimalarni buzilishiga olib keluvchi; fungoid rak — o'zida ekzofit va endofit raklarning elementlarini mujassamlashtirgan; yuzaki rak — eng kam uchraydigan hiqildoq ichiga o'tmaydigan shakli tafovut qilinadi. Tarqalishiga qarab hiqildoq raki 4 ta bosqichga ajratiladi:

I bosqich. O'sma hiqildoqning bir bo'limi chegarasida joylashgan, masalan, tovush burmalarida. Metastaz bermagan.

II bosqich. O'sma hiqildoqning yaxlit bir bo'limini egallagan.

Metastaz bermagan.

III bosqich. O'sma hiqildoqning boshqa bo'limlariga o'tadi. Regionar limfatik tugunlarda metastazlar kuzatiladi.

IV bosqich. Hiqildoq o'smasi boshqa qo'shni a'zolarga tarqalgan bo'lib, regionar metastazlar hamda kaxeksiya kuzatiladi.

Klinik manzarasi. O'sma joylashishiga va tarqalishiga bog'liq. Tovush burmalari rakida boshlang'ich va eng xarakterli simptom — bu tovushning xirillab chiqishi. O'sma hiqildoqning yuqori qismida lokalizatsiya bo'lganda (hiqildoq dahlizida) tomoq qichishi, bir narsa borligiga

o'xshash hissi, yutinganda diskomfort va qulqoqqa tarqaluvchi og'riq kuzatiladi. O'sma kengroq tarqalganda disfagiya va og'riq kuchayib boradi. Hiqildoqning burma osti rakida asta-sekin nafas olishning qiyinlashuvi va tovushni xirillashi kuzatiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan belgilar o'sma va uning atrofda-gi to'qimalar kattalashgan sari kuchayib boradi.

Hiqildoq stenozi asta-sekin rivojlanib, bemorning umumiy ahvoli og'irlashadi. Bo'yin oldi va yon yuzalaridagi regionar limfatik tugunlar metastazli, kattalashgan, qattiq, paypaslaganda og'riydi. Kaxeksiya rivojlanadi.

Tashxis laringoskopiya va laringostroboskopiya, fibrolaringoskopiya, rentgenologik tekshiruv natijalariga asosan qo'yiladi. Tashxisni tasdiqlashda biopsiya katta ahamiyatga ega.

Ovozlari anchadan beri xirrilab qolgan, surunkali giperplastik jarayonlar kuzatilayotgan, hiqildoq shilliq pardalari bir tomonlama zararlangan bemorlar onkologik jihatdan havfi yuqori hisoblanadilar.

Davolash: nur bilan, jarrohlik, kimyoterapevtik usullaridan iborat. Xavfli o'smalarni oldini olish choratadbirlarini kuzatishda shaxsiy gigienaga, yashash va mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarga alohida e'tibor qaratish kerak. Kasbga oid zararli omillar bilan ishlaydigan, hiqildoqning surunkali kasalliklari va rak oldi holatlari bo'lgan, uzoq muddat chekib yurgan kishilarni profilatik ko'rikdan o'tkazish kerak.

O'tkir traxeit

O'tkir traxeit kamdan-kam hollarda alohida kechadi, ko'pincha, o'tkir rinit, farengit va laringitning asorati hisoblanadi, asosan, kuzda, qishda va bahorda avj oladi. O'tkir traxeitning avj olishining asosiy sabablaridan biri organizmning umumiy sovqotishi natijasida yuzaga keladigan o'tkir virusli infeksiyadir.

Traxeyadagi morfologik o'zgarishlar shilliq pardaning shishishi, infiltratlanish va giperemiyalar bilan xarakterlanadi.

Kasallikning asosiy simptomi — tunda yo'talning kuchayishi hisoblanadi. Kasallikning boshida yo'tal quruq bo'lib, keyin balg'am ko'chadi. Yo'tal xurujidan keyin aksari hollarda to'sh orqasida va hiqildoq sohasida paydo bo'ladi. Ovoz odatda bo'g'iq bo'ladi.

Davolash: o'tkir kataral laringitdagi kabi o'tkaziladi. O'pkani doimo nazorat qilib turish zarur, og'ir hollarda bronxopnevmoniya, bolalarda esa kapillyar bronxit rivojlanishi mumkin.

VAZIFALAR

№1. 18 yoshli bemorming tishini oldirganidan so'ng va jarohatga yod bilan ishlov berilgandan keyin to'satdan nafasi qisilgan. Nafas olish va chiqarish orasidagi pauza qisqargan. Nafas shovqinli, bir daqiqada 10—11 marta.

1. Bu holatning sababi nimada?
2. Qanday shoshilinch yordam chora-tadbirlari ko'rish zarur?

№2. 4 yoshli bola URVI bilan og'riqan. To'satdan tunda nafasi qisila boshlagan, u qiynalib nafas olmoqda, teri qatlamlari ko'kargan, xuruj bir necha daqiqa davom etib, so'ng quv-quv yo'tal paydo bo'ldi.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Qanday shoshilinch yordam chora-tadbirlari ko'rish zarur?

№3. Avtomobil falokati vaqtida bermor hiqildoq sohasi bilan qattiq urilgan. U urilgan joyidagi kuchli og'riqdan, tovush o'zgarishidan, nafas olishning qiyinlashuvidan shikoyat qilmoqda. Traxeostomiya o'tkazishning iloji yo'q.

1. Bunda qanday chora-tadbirlarni qo'llash mumkin?
2. Mayjud bo'lgan qanday vositalardan foydalansa bo'ladi?

№4. I soat avval o'tkazilgan traxeostomiyadan so'ng bemorning ahvoli og'irlashdi. Traxeostomik nay orqali nafas olish

qiyinlashdi. Bemorning yuzi, bo'yni, ko'krak qafasining yuqori qismi shishdi.

1. Buning sababi nimada?

2. Qanday yordam chora-tadbirlarini qo'llash kerak?

№5. Terapevtik statsionarda davolanayotgan bemorga lakunar angina bor deb tashxis qo'yilgan.

1. Bu holda qanday profilaktik tadbirlarni amalga oshirish zarur?

№6. Bemor ikki yillardan beri ovozini xirillab qolayotgani dan shikoyat qilib, vrachga murojaat etdi. Laringoskopiyada burmalarning bo'sh turgan chekkasida ankioma aniqlandi.

1. Bemorni qanday davolash kerak?

№7. Bemor shifokorga murojaat qilib, ovozi bo'g'ilib qolganidan, tomog'i qichishishidan shikoyat qildi. Ovozi o'zgargan bo'lib, quruq yo'tal kuzatilmoxda. Laringoskopiyada: shilimshiq yiringlar to'plangan, shilliq qavat shishgan.

1. Siz qanday chora-tadbir ko'rgan bo'lardingiz?

TEST SAVOLLARI:

1. Erkaklarning tovush boyamlarini uzunligi:

- A. 20 — 22 mm.
- B. 19 — 20 mm.
- C. 18 — 20 mm.
- D. 20 — 25 mm.
- E. 21 — 22 mm.

2. Hiqildoqni ichki tekshiruvi — bu:

- A. Traxeostomiya
- B. Mezofaringoskopiya
- C. Bevosita laringoskopiya
- D. Laringoskopiya
- E. Otoskopiya

3. Bevosita laringoskopiya qaysi asbob bilan o'tkaziladi?

- A. Shpatel
- B. Mikroskop
- C. Hiqildaq oynachasi bilan

- D. Ortoskop
- G. Endoskop

4. Hiqildoqning limfadenoid to‘qimasini o‘tkir yallig‘lanishi — bu:

- A. O‘tkir traxeit
- B. Soxta bo‘g‘ma
- C. Hiqildoq difteriyasi
- D. Shilliq parda ustı laringiti
- G. Chin bo‘g‘ma

5. Hiqildaq stenozida nechta bosqich bor?

- A. — IV
- B. — V
- C. — III
- D. — VI
- G. — II

6. So‘zlashuv nutqida aniq tovush chiqishi nimaga bog‘liq?

- A. Og‘iz va halqum shakliga
- B. Hiqildaq va traxeya shakliga
- C. Og‘iz va traxeya shakliga
- D. Hiqildaq va halqum shakliga
- G. Traxeya va halqum shakliga

7. Traxeyaning 2 ga bo‘linish joyining nomi — bu:

- A. Koordinatsiya
- B. Rotatsiya
- C. Malignizatsiya
- D. Bifurkatsiya
- G. To‘g‘ri javob yo‘q.

8. Burma osti laringiti odatda qaysi yoshda ko‘proq uchraydi?

- A. 1 yoshdan — 5 yoshgacha
- B. 10 yoshdan — 16 yoshgacha
- C. 40 yoshdan — 60 yoshgacha
- D. 7 yoshdan — 12 yoshgacha
- G. 2 yoshdan — 5 yoshgacha

9. Shilliq parda ustini yiringli yallig‘lanishi — bu:

- A. O‘tkir traxeit

- B. Burma osti laringiti
- C. Absessli laringit
- D. Shilliq parda ustini o'tkir laringiti
- G. Hiqildoq disteriyasi

10. Hiqildoq stenozi — bu:

- A) Hiqildoqni torayishi.
- B) Hiqildoqni kengayishi.
- C) Hiqildoqni yallig'lanishi.
- D) Traxeostomiya.
- G) To'g'ri javob yo'q.

11. Hiqildoq tuzilishida qaysi tog'aylar qatnashadi?

- A) cho'michsimon tog'ay, qalqonsimon tog'ayning ustki shoxi.
- B) cho'michsimon tog'ay, qalqonsimon tog'ayning ustki shoxi.
- C) hiqildoq qopqog'i, qalqonsimon tog'ay, uzuksimon tog'ay.
- D) qalqonsimon tog'ay, traxeal tog'ay, qalqonsimon tog'ayning ustki shoxi.
- G) «A» va «B» varianti

12. Yumshoq to'qimalardan yallig'lanishni tog'aylarga tar-qalishi — bu:

- A) Absessli laringit
- B) Hiqildoq anginasi
- C) Soxta bo'g'ma
- D) Shilliq parda ubti laringiti
- G) Xondroperixondrit.

13. Dekompensasiya hosqichida tovush boylamining kengligi?

- A) 4—6 mm.
- B) 6—7 mm.
- C) 2—3 mm.
- D) Taxminiy 1 mm.
- G) O'zgarmaydi.

14. Bevosita laringoskopiyada soxta bo'g'ma chin bo'g'ma-dan nimasi bilan farq qiladi?

- A) Hiqildoq shilliq pardasida oq fibrinozli karash.
- B) Burma osti sohasidagi shilliq parda shishgan va qizargan.
- C) Hiqildoq shilliq pardani infiltratsiyasi.
- D) Hiqildoq shilliq pardasining nekrozi.
- G) Tovush boylamlarida giperemiya.

15. Surunkali laringitning turlari?

- A) kataral gipertrofik, oddiy.
- B) kataral serozli, vozomotorli.
- C) oddiy, toksik-allergik.
- D) nekrotik-flegmonoz follikulyar.
- G) kataral giperplastik atrofik.

16. Hiqildoq difteriyasida spetsifik davolash

- A) Ximotripsin bilan instillyatsiya.
- B) Bezredko bo'yicha zardobni yuborish, gospitalizatsiya, izolyatsiya.
- C) Antibiotiklar.
- D) Antigistamin vositalar
- G) To'g'ri javob yo'q.

17. Hiqildoq jarohatlanganda qanday simptomlar bo'ladi?

- A. Arterial bosimning pasayishi
- B. Ko'ngil aynishi
- C. Qayd qilish
- D. Qorin og'rig'i

18. Hiqildoq nima yordamida tekshiriladi?

- A. Auskultatsiya qilib.
- B. Rentgin yordamida.
- C. Lorengoskopiya yordamida.
- D. Endoskopiya yordamida.

19. Hiqildoq sezuvchanligini buzilishi nima deb ataladi?

- A. Hiqildoq stenozi.
- B. Hiqildoq defteriyasi.
- C. Hiqildoq anisteziyası.
- D. Hiqildoq anginasi.

20. Hiqildoqning o'tkir stenozida qaysi bosqichida nafas olish qiyinlashadi?

- A. Kompensatsiya bosqichida.
- B. Asfaksiya bosqichida.
- C. Subkonpensaciya bosqichida.
- D. Dekonpensatsiya bosqichida.

Foydalanoligan adabiyotlar

- A. G. Mexchayev* "Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari". M.: "Meditina", 1977.
- B. V. Shevrigin* "Bolalar Otorinolaringologiyasidan qo'llanma". M.: "Meditina", 1985.
- Y. B. Isxaki, L. N. Kalshteyn* "Bolalar otorinolaringologiyasi". Dushanbe "Maorif", 1985.
- P. Nikolayevskaya*. "Otorinolaringologiyada fizik metodlar bilan davolash". M.: "Meditina", 1989.
- M. Y. Kozlov, A. A. Levin*. "Bolalar surdoaudioloutiyasi". Leningrad "Meditina" 1989.
- I. B. Soldatov*. "Otorinolaringologiya bo'yicha lakunyalor" M.: "Meditina", 1990.
- A. I. Mo'minov*. "Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1994.
- Palchun V. T., S. A. Voznesenskiy*. "Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari". O'zbekcha ikkinchi nashri. T.: "Meditina" nashriyoti, 1989.
- Y. M. Ovchinikov, S. V. Marozova*. "Otorinolaringologiya" Moskva. Izdatelstvo "Masterstvo" 2002 god.
- G. O. Xaydarov, Sh. X. Irmatov*. "Ichki kasalliklar". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- V. A. Galkin*. "Ichki kasalliklar". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- N. K. Ahmedov*. "Normal patologik anatomiya bilan fiziologiya". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.
- L. X. Postnova, L. F. Titova*. "Farmakologiya bilan retseptura" T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- K. A. Svyatkina, Y. V. Belogorskaya, N. P. Kudryavseva*. "Bolalar kasalliklari" T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.
- V. P. Bisyarina*. "Bolalar kasalliklari". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- A. I. Buraya va boshqalar* "Sog'lom va kasal bola parvarishiga doir amaliy mashg'ulotlardan qo'llanma". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- S. A. Muratov*. "Xirurgik kasalliklar va bemorlarni parvarish qilish" T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1989.
- A. I. Qosimov, X. X. Holmatov*. "Ruscha, o'zbekcha, lotincha tibbiy terminlar lug'ati". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.

MUNDARIJA

So'z boshi	3
I BOB. Kirish. Otorinolaringologiya tarixi	5
Test savollari	10
II BOB. Quloq shikastlari va kasalliklari. Surdologiya va eshitishni protezlash	13
Quloq anatomiysi	13
Quloq fiziologiyasi	22
Quloqni tekshirish usullari	24
Quloqning eshituv funksiyasini tekshirish	27
Quloqning vestibulyar funksiyasini tekshirish	31
Tashqi quloq kasalliklari	34
Quloq shikastlari	34
Quloqdagi yot jism	38
Quloq chirk'i	39
Yallig'lanish kasalliklari	40
Quloq saramasi	40
Perixondrit	40
Quloq ekzemasi	41
Tashqi eshituv yo'li chipqoni	41
Otomikoz	42
O'rta quloq kasalliklari	43
O'tkir kataral otit	43
O'tkir yiringli otit	44
Balalarda o'tkir otitlar	45
Mastoidit	47
Surunkali yiringli otitlar	48
Otogen miya ichi asoratlari	51
Ichki quloq kasalliklari	53
Labirintit	53
Koxlear nevrit (neyrosensor chala karlik)	54
Menyer kasalligi	56
Otoskleroz	57
Quloq o'smalari	58

Surdologiya va eshitishni protezlash	59
Masalalar	62
Test savollari	65
III BOB. Burun va uning yondosh bo'shliqlarining kasalliklari	69
Burun anatomiyasi	69
Burunning qo'shimcha bo'shliqlari	70
Burun fiziologiyasi	74
Tekshirish usullari	75
Burunning qo'shimcha bo'shliqlarini tekshirish	79
Tashqi burun kasalliklari	80
Burun saramasi	80
Burun furunkuli (chipqon)	80
Burun sikozi (follikulit)	81
Burun ekzemasi	81
Burunni pushtirang husnbuzalarli va rinosfima	82
Burun bo'shlig'i kasalliklari	83
Burun bo'shlig'i sinexiyalari va atreziyalari	83
Yot jismlar va rinolitlar	83
Burun shikastlari	83
Burun to'sig'ining qiyshayishi	88
Burun to'sig'i gematomasi va absessi	88
Burundan qon ketishi	88
Burundan qon ketishning sabablari	89
O'tkir va surunkali rinitlar	93
O'tkir rinit	93
Surunkali rinit	93
Burunning yondosh sinuslari yallig'lanish kasalliklari (kataral va yiringli sinusitlar)	98
Yuqori jag' bo'shlig'ining o'tkir yallig'lanishi (gaymorit)	98
Surunkali gaymorit	99
G'alvirsimon labirintning o'tkir va surunkali yallig'lanishi (etmoidit)	101
Peshona bo'shlig'ini yallig'lanishi (frontit)	102
Ponasimon bo'shliqning yallig'lanishi (sfenoidit)	102
Rinogen asoratlari	103
Burun bo'shlig'i o'smalari	105
Burun oldi bo'shliqlarining (sinuslarining) o'smalari	107
Burun sohasidagi operatsiyalarga bemornarni tayyorlash	108
Bemorni burunning qo'shimcha sinuslardagi operatsiyalarga tayyorlash va operatsiyadan keyingi davrdagi parvarish	110
Masalalar	111
Test savollari	112
IV BOB. Halqum kasalliklari	114
Halqum anatomiyasi	114
Halqum fiziologiyasi	116

Halqumni tekshirish usullari	116
Qizilo'ngachning klinik anatomiysi va uni tekshirish usullari	118
Halqum kasalliklari	119
Halqum shikastlari	119
Halqumga yot jismlar tushib qolishi	120
Qizilo'ngachga yot jismlarni tushib qolishi	121
Adenoidlar	123
Anginalar	126
Birlamchi angina	126
Ikkilamchi (simptomatik) anginalar	129
O'tkir infeksiyon kasalliklardagi angina	131
Paratonzillyar abscess	133
Parafaringeal abscess	134
Retrofaringial abscess	135
Surunkali tonsillit	136
Faringitlar	139
Halqum o'smalari	142
Burun-halqum fibromasi	142
Xavfli o'smalar	143
Masalalar	143
Test savollari	145
V BOB. Hiqildoq kasalliklari	147
Hiqildoq anatomiysi	147
Hiqildoq fiziologiyasi	151
Hiqildoqni tekshirish usullari	153
Hiqildoq kasalliklari	155
Hiqildoq shikastlari	155
Hiqildoqqa yot jism tushishi	156
Traxeya va bronxlardagi yot jismlar	159
O'tkir laringit	160
Burmalar osti laringiti (soxta bo'g'ma)	162
Surunkali laringit	164
Hiqildoq disteriyasi (chin bo'g'ma)	166
Hiqildoq anginasi	167
Hiqildoqning o'tkir va surunkali stenozlari	168
Hiqildoq nerv apparatining kasalliklari (sezuvchanlik va harakatining buzilishlari)	175
Hiqildoqning xavfsiz o'smalari	178
Hiqildoqning xavfli o'smalari	179
O'tkir traxeit	181
Vazifalar	182
Test savollari	183

O'quv nashri

Ma'muraxon Sadirovna Yusupova.

P.F.Borovskiy nomidagi Toshkent shahar tibbiyot kolleji direktori

Gulnora Yunusovna Nazarova.

P.F.Borovskiy nomidagi Toshkent shahar tibbiyot kolleji bo'lim imdiri

Sayyora Sabirovna Shaimova.

P.F.Borovskiy nomidagi Toshkent shahar tibbiyot kolleji o'qituvchisi

**Qulog, towoq va burun
kasalliklari:**

Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti,
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Muharrir *Sh. Inog'omova*

Texnik muharrir *U. Kim*

Badiiy muharrir *T. Qanoatov*

Musahhihlar *M. Yo'ldosheva, S. Abdunabiyeva*

IB 2940.

Bosmaxonaga berildi 18.11.03. Bosishga ruxsat etildi 29.03.2004. Bichimi
84x108/^{1/2} Shartli bosma taboq 10.08. Nashr bosma taboq 9.85.
102—2003-raqamli shartnoma. 163- raqamli buyurtma. Jami 6060 nusxa.
Narxi shartnoma asosida.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Toshkent kitob-jurnal fabrikasida chop etildi. Toshkent, Yunus-Obod dahasi. Murodov
ko'chasi, 1.

